

Z. K. ISMAILOVA

# PEDAGOGIKA



ISMAILOVA ZUXRA KARABAYEVNA

# PEDAGOGIKA

(*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi nopedagogik oliy o'quv yurtlari uchun  
darslik sifatida tavsiya etgan*)

*Pedagogika fanlari doktori **SAFO OCHIL**ning  
umumiyl tahriri ostida*

Ushbu darslikda «Pedagogika» fanining maqsad va vazifalari, uning mohiyati va jamiyat uchun zarurligi, shaxsni tarbiyalashning qonun, qoida, uslub va vositalari, mutaxassisning yuksak ma’naviyati va axloqiy fazilatlari hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish bo‘yicha bilimlar ko‘rgazmali vositalar shaklida keng yoritilgan. Darslik nopedagogik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan bakalavrلarga, magistrلarga, kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilariga hamda ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

***U. Mahkamov,***  
*pedagogika fanlari doktori*

***A. Shayusupova,***  
*pedagogika fanlari nomzodi*

---

---

## KIRISH

Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatdiki, ta’lim-tarbiya bilan barcha, ya’ni butun jamiyat a’zolari shug‘ullanishlari zarur. Bu mas’uliyatlari va sharaflari ishda bog‘cha tarbiyachisi, maktab va oliy o‘quv yurti muallimlari bilan bir qatorda jamiyatning bilimli va obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan a’zolari, oliy ma’lumotli mutaxassis va rahbar xodimlar ham o‘z hissalarini qo‘sishlari kerak.

Chunki ular o‘zlarining bilimlari va yuqori malakalari bilan o‘z mehnat jamoalarida katta e’tiborga egadirlar, shu bilan birga hamma joyda o‘z nutqlari bilan insonlarga ta’sir o’tkaza oladilar.

«Ta’lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, — degan edi yurtboshimiz I. A. Karimov, — uning mazmunini lo‘nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’limi va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak ... Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi»<sup>1</sup>.

Bozor munosabatlari sharoitida bizga mustaqil fikr yurituvchi, erkin, tashabbuskor, tadbirdor va milliy g‘ururga ega bo‘lgan shaxslar kerak. Bunday kishilarni tarbiyalash uchun xalqning tarixiy shakllangan ma’rifiy madaniyatidan kelib chiqib, umuminsoniy pedagogik qadriyatlarga tayanuvchi milliy pedagogika fanini shakllantirish va bu fanni barcha oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish zarur.

Ammo shu vaqtgacha xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun mutaxassis tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya berish sirlarini o‘rgatuvchi pedagogika fani o‘qitilmagan edi.

Bu ijtimoiy hodisani Prezidentimiz Islom Karimov chuqur his etgan holda jamiyatimiz istiqlolining birinchi yillardan boshlab nopedagogik oliy o‘quv yurtlarida pedagogikadan bilim berishni tavsiya etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligining 1996-yil 7-avgustidagi 189-sonli buyrug‘iga ko‘ra xalq xo‘jaligi mutaxassislarini tayyorlaydigan barcha oliy o‘quv yurtla-

---

<sup>1</sup> **I. A. Karimov.** Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997. 9-bet.

rida pedagogika fani o‘qitila boshlandi. Nopedagogik yo‘nalishlardi bakalavrilar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarida pedagogika fanini o‘qitish jarayonida talabalarda quyidagi pedagogik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish ko‘zda tutiladi:

- talaba o‘z ixtisosligini o‘zlashtirishi davomida hamda ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘yicha beriladigan bilimlarni ongли egallashi uchun pedagogika fanining nazariy asoslarini o‘rganishi va bu bilimlarga ko‘nikma hosil qilishi;
- o‘z ixtisosligi bo‘yicha o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini to‘g‘ri tashkil qilish, texnikani o‘rganish, ulardan ehtiyojkorona foydalanish davrida pedagogikaning asosiy tarbiya metodlarini o‘rganishi va malakalarga ega bo‘lishi;
- mutaxassislik fanlaridan ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarning mohiyatini anglashdan avval pedagogik texnologiya degan birikmaning ma’no-mazmunini tushunib yetib, o‘z ma’naviyati ustida timmay ishlash ko‘nikmasini hosil qilishi;
- mutaxassislik fanlaridan O‘rta Osiyo va jahon xalqlariga xos bo‘lgan bilimlarni egallah davrida ularning pedagogik merosi bilan tanishib, o‘zida umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lgan milliy g‘ururni namoyon qilishi;
- mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish, nazoratlarni vaqtida topshirish, fanlardan yaxshi natijalarga erishish uchun bilish faolligini oshirishi, bilish nazariyasi asoslarini o‘rganishi va shu bilan birga ta’lim olish usullari bilan tanishishi.

Mazkur darslik oliy o‘quv yurtini tugatuvchi talaba kelajakda faqat o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib qolmasdan, balki ma’naviy-intellektual yetuk shaxs bo‘lib yetishishini ta’minlash maqsadida uning ko‘z o‘ngida mustaqil fan sifatida shakllanadigan qilib yozilgan.



## **PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI**

---

---

### **1.1. PEDAGOGIKANING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

Shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun va qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma’rifiy va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fani yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fandir. «Pedagogika» grekcha so‘z bo‘lib, «paydogogos» — «*bola yetaklovchi*» ma’nosini anglatadi. Insonlarning ma’rifiy va ma’naviy barkamollikka munosabatlari o‘zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to‘g‘ri yo‘lga solish san’ati) fani xalq orasida o‘z mavqeyiga ega bo‘ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyo fanlari tizimi qatoridan alohida o‘rin egalladi.

Pedagogikaning bosh masalasi — tarbiyadir. Tarbiyaning keng ma’no-mazmuni — ta’lim, rivojlanish, ma’lumot bilan bog‘lagan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Inson tarbiyasiga oid g‘oyalari, qoida va qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalar-da, yozma yodgorliklarda hamda hadislarda asoslab berilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib, boyib borishida Sharq va G‘arb qomusiy pedagog-olimlarining o‘rni kattadir. Faylasuf Forobiy o‘zining «Fozil shahar kishilarining qarashlari» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab berdi. Ibn Sinoning «Tadbir al-manzil», Umar Xayyomning ruboiylari, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Kaykovusning «Qobus-noma»si, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub»i ... inson ko‘nglini turli bilimlar xazinasiga aylantirdi va bu tilsim ichida Tangri o‘zini yashirdi. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasi o‘laroq o‘zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi, ya’ni Ollohnинг butun olamni yaratishdan ko‘zlagan maqsadi — Inson bo‘lib, u hamma mavjudotlar ichida tengi yo‘qdir.

G‘arbda Suqrot, Aristotel, Platon o‘z ijodiyotlarida, ayniqsa, Platon «Davlat», Aristotel «Siyosat» asarida, Yan Amos Komen-skiy, I. G. Pistalotssi, Gerbart, K. D. Ushinskiylar o‘z ijodiy pedagogik faoliyatlarida pedagogikaning bosh masalasi – tarbiya muammosiga turlicha munosabat bildirib, pedagogika tarbiya haqidagi fan ekanligini asoslاب berdilar. Ma’rifat darg‘asi Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida pedagogika faniga quyidagicha ta’rif bergan edi: «Pedagogika» tarbiya, ya’ni bola tarbiyasi fani demakdir. Ilmi axloqning asosi tarbiya... Bolaning salomati, sadoqati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, tanini pok tutmoq, yosh vaqtida maslakini tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq, yomon xulqlardan saqlab o‘stirmoqdir». Pedagogika komil insonni tarbiyalashda hayotiy tajribalarga suyangan holda yuksak ma’naviy maskurani shakllantiruvchi qonun-qoida, tamoyil va usullarni o‘rganuvchi fandir.

Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, o‘zining nazariy, milliy va amaliy asoslariga ega.

Pedagogikaning milliy asosi ta’lim-tarbiya masalalarini har bir millatning o‘z milliy merosini umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lagan holda amalga oshirishdir. Har bir millatning o‘ziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda, tarbiyashunoslik masalalarini milliy asosda yosh avlodga yetkazish mazmuni, shakli, usuli, metod va tamoyillarini milliylashtirishdir.

Prezidentimiz aytganlaridek, fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir. Bunday yangicha yondoshishlar pedagogika fanining obyekti va predmetini kengaytiradi. Endi pedagogika fanining obyekti faqat ta’lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik asosini ta’minlovchi fan emas, balki komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta’minlaydigan keng sohalarni ham o‘z ichiga oladi (1- chizma).

«Pedagogika» fanining **predmeti** o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatları, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun uning metodolotik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning milliy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi qonuniyatları va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi (2- chizma).

«Pedagogika» fanining **obyekti** muayyan ilm sohasi yoki tarmoq ilmi tadqiqotlarini aniq bir majmuuga qaratishdir.

## Pedagogikaning maqsad va vazifalari

**Pedagogikaning maqsadi** — insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy, axloqiy-amaliy o'quv, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, har tomonlama yetuk, komil insonlarni tarbiyalash, ularda har bir sohaga mos ilm, bilim, ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

### O'quv fanining asosiy vazifalari

Yosh avlodni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi oliyjanob g'oyalalar ruhida tarbiyalash.

Yoshlarda asosiy konstitutsiyiv huquqlardan biri bo'lgan har bir kishining axloqiy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish.

Yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan, odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarни, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirish.


Yuksak fazilatlarga ega, ezgu g'oyalalar bilan qurollangan komil insonlarni voyaga yetkazish.

Yoshlarning o'zi xohlagan kasbni tanlashlari, uni mu-kammal egallab, shu sohada muvaffaqiyatli faoliyat ko'r-satishlari uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy didaktik shart-sharoitlar yaratish.

O'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongida milliy qadriyatlар asoslarini shakllantirish.

Yoshlarni jamiyatimizga yot va begona, zararli g'oyalarga qarshi kurashishga o'rgatish, ularda hushyorlik ko'nikmalarini hosil qilish.

**1- chizma.** Pedagogikaning maqsad va vazifalari.



2- chizma. Pedagogikaning predmeti.

## 1.2. PEDAGOGIKANING METODOLOGIK ASOSI

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat mahsuli sifatida turli fanlar bilan qadim-qadim zamonalardan bog'liq. Olloh yer-u osmonni yaratib, insonni yer yuzida o'ziga xalifa etib tayinladi. O'zining mavjudligi, har bir ishga qodirligini, ilmda tengsizligini, mehr-u muruvvatda beqiyos-

ligini bildirdi. Islomda ilm berishda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan din va dunyo haqida tushuncha mavjud va ular alohida tushunchalar emasligi isbotlangan. Dunyoviy deb ataladigan ilmlarning barchasi Qur’oni Karim ta’limoti bilan bog‘liqidir. Shuni ta’kidlamoq kerakki, pedagogika fanining metodologik asosi diniy va dunyoviy fanlar tarkibida rivojlangan. Qur’onda «Ilm» so‘zi turli hollarda 765 marta takrorlanadi. G‘arb faylasuf olimlari ham Islom falsafasiga suyangan holda ijod etganlar.


Rivoyatlarga ko‘ra, yunon olimi Batlimus falakiyat ilmiga oid kitobida ... tuya qanday yaratilganini va osmon qanday ko‘tarilgанинning sharhini Qur’oni Karimdan o‘qib, bilib olganligini ta’kidlaydi. Islom ilmi barcha fanlarning asosiy negizidir. Fransuz faylasufi Jak Kodorse «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasi chizgilari» nomli asarida: «Pedagogikaning nazariy asoslari inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, O‘rta Osiyo va jahon ma’rifatparvar, mutafakkir olimlarining asoslariga suyangan holda, komil insonni tarbiyalash, o‘qitishning qonun-qoida va tamoyillarining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

O‘rta asrlarda musulmon olamida to‘plangan ilmiy bilimlar G‘arbda uyg‘onish davrini tayyorlashga xizmat qilmaganida insoniyat besamar yo‘qolib ketar edi», – deb yozadi.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Aristotel, Platonlar ma’lum g‘oyaga asoslanib o‘zlarining inson kamoloti haqidagi qarashlarini va tarbiya masalalarining falsafiy negizini yaratganlar. Aristotel «Iskandarga qilgan nasihat»da insonning eng yuksak fazilati taqvodor, iymonli, ilmli bo‘lish ekanini alohida ta’kidlagan edi: «Taqvodorlik iymon vositasida kamol topadi. Iymon esa fikr-u andisha soyasida hosil bo‘ladi» (Arastuning Iskandarga nasihat, «Sharq mash’ali», 1–3-son, 8-bet). Falsafa G‘arbdan Sharqqa tomon yurdi. Forobiy «Sharh»lar yozishi orqali Sharq falsafasi bunyodga keldi. Ibn Sinoning «Tib qonuni» asarida ham inson kamolotining qonun-qoidalari, falsafasi yoritib beriladi. Pedagogika ilmining asosini yaratishda Qur’oni Karim, Hadis, ya’ni Islom ta’limoti katta rol o‘ynadi.

Xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti, xalq yodgorlik obidalari, nasihatnomalar, pandnomalar va vasiyatnomalarda ham komil insonni tarbiyalash qonun, qoida va usullari o‘z aksini topgan.

Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida qomusiy mutafakkir va pedagoglarning xizmatlari diqqatga sazovordir. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy, chex olimi Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalotssi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K. D. Ushinskiy kabilar o‘z ijodiyotlarida pedagogikaning metodologik asosini yaratib, komil insonni tarbiyalashdagi qonun-qoidalarni asoslab



**3- chizma.** Pedagogika fanini o'rganishda zarur bo'ladigan muhim jihatlar tizimi.

berdilar. O‘tmish ajdodlarimizning barkamol inson tarbiyasiga oid g‘oya va ta’limotlarini o‘rganib, unga suyangan holda aytish mumkinki, yangicha sharqona pedagogikaning metodologiyasi milliy istiqlol mafkurasini mustahkamlash va unga amal qilishdir. Pedagogika fanining mazmuni, maqsad va vazifalari, tamoyil, usul va vositalari, umuman, har bir inson uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy ta’sirlar yangicha asosga ega bo‘lishi kerak.

Prezidentimiz I. A. Karimov bu borada shunday degan edi: «O‘zbekistonning yangilanish va rivojlanish yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi:

- umumiy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insонning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik (I. A. Karimov. «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent, «O‘zbekiston», 1992-y., 65-bet).

O‘zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda pedagogika fani metodologiya asoslari muhim ahamiyatga ega va unga bevosita bog‘langan holda har bir pedagog masalalarga ijodiy, taraqqiyot nuqtayi nazardan yondashishi zarurdir (3- chizma).

### **1.3. PEDAGOGIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TARMOQLARI**

Pedagogika fanida bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi tushunchalar mavjud: tarbiya, ta’lim, ma’lumot. Tarbiya ijtimoiy hayot uchun juda zarur va yuksak ma’naviy-jismoniy barkamollikka yetaklovchi vosita bo‘lib, yaxshini yomondan farqlash, buyuk insoniy fazilatlarni shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, o‘sib, avloddan-avlodga vorislik vositasida o‘tib boradi. Lekin har bir jamiyatda tarbiyaning maqsadi, vazifasi, mazmuni o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Xalqning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy zaruriyatidan kelib chiqib, yosh avlodni tarbiyalash muammolari dastlab xalq og‘zaki ijodiyoti pedagogikasi, yozma yodgorlik, pandnomalarda, tafakkur qilishga va ma’rifatparvarlikka undovchi asarlarda bosh mav-

zu bo‘lib kelgan va insonni komillikka yetaklovchi zaruriy hodisa sifatida talqin etilgan. Axloq va odob, vatanga cheksiz muhabbat, adolat, insof, rostgo‘ylik, botirlilik, vafodorlik, mehnatsevarlik, ilm, bilimdonlik kabi g‘oyalar tarbiya vositasi hamdir: *Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas, Vatanga kelgan – iymonga kelar. Bola tug‘ganniki emas, tarbiyalaganniki. Ota g‘ayratli bo‘lsa, bola ibratli bo‘lar* va hokazo.

Hadis ilmida ham tarbiyaning inson kamoloti uchun naqadar zarurligi, ota-oni, oila, qarindoshlar hamjihatligi, ilm, bilimdonlik, mehnatsevarlik, vatanga cheksiz muhabbat kabi sifatlar ulug‘lanadi: *Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz. Otaga itoat qilish Tangriga itoat qilishdir...*

Xalq og‘zaki ijodiyoti va pedagogikasida tarbiya muammosi iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ma’naviy qarashlarni o‘ziga qamrab olgan bo‘lib, ular tarbiya orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Tarbiyaning kuch-qudratini Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida quyidagicha ta’riflaydi:

Qobilga tarbiyat erur ul nav’kin guhar,  
Tushsa, najosat ichra yugay kimsa ani rok.  
Gar it uzumiga kishi may birla bersa suv,  
Bu tarbiyat bila qila olgaymu ani toq.

Alisher Navoiy mazkur she’rida tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va uning qonun-qoidalariga amal qilishga chorlaydi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining milliy pedagogika fanida tarbiya inson muammolari, ajdodlarimiz g‘oyalariga suyangan holda, quyidagi qonunlarga asoslanishi zarur deb hisoblanadi:

- Tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibli ta’sir etuvchi hodisa bo‘lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi.
- Inson kamolotini xarakterlovchi kuch o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi uning shaxsiy hayotida namoyon bo‘ladi.
- Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqishini uyg‘otish va uni e’tiqodga aylantirish kerak.
- Tarbiya yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlар bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayonining qonun, qoida, tamoyil va usullarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismi chuqur va atroflicha o'rganadi.

Bilimni tartibli bayon qilish ta'lif-tarbiya bilan uzviy bog'-langan jarayon bo'lganligi sababli o'quvchilarning aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali ular ilmli, barkamol inson bo'lib yetishadilar. Ta'lifning ahamiyati, insonga beradigan foydalari haqida Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida shunday yozgan edi:

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,  
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik olar.  
O'quvli tirikdir, o'quvsiz – o'lik,  
Kelu, ey o'quvsiz, uquv ol o'lik.

Pedagogikada bir qancha tushunchalar mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Chunonchi:

**Bilim** – bir butunni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlik. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan, ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarini, qonun va tushunchalarni o'zlashtirish natijasidir.

**Tarbiya** – keng qamrovli tushuncha bo'lib, avloddan-avlodga ijtimoiy-tarixiy tajribalarni yetkazish, shaxs shakllanishiga uzlusiz, maqsadga muvofiq, izchil ta'sir etish orqali uni mustaqil harakatga, ishlab chiqarish, foydali, unumli mehnatga tayyorlashdir. Tarbiya ta'limsiz amalga oshmaydi. Ta'lif berishdan maqsad, uning ketidan tarbiya berishdir, ya'ni ta'lif orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatiladi. Tarbiyaning uch xil talqini mavjud: 1. Bola boqib katta qilish. 2. Parvarish, qarov, tarbiyalab voyaga yetkazish. 3. Inson olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishi. Masalan: odob-axloqqa o'rgatish – axloqiy tarbiya, kasb-hunarga o'rgatish – kasb tarbiyasi, atrof-muhitni e'zozlashga o'rgatish – ekologik tarbiya va hokazo.

**Ma'lumot** – o'qish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o'quvchining bilim, iqtidor va ko'nikmalarni o'zlashtirganligi, bilish qobiliyatining o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarashi, shaxsiy sifatlari shakllantirilganligini, ularning ijobiy xislatlari va qobiliyatlari qay darajada rivojlanganligini anglatadi. U ikki ma'

noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga tegishli: 1. Xabar – o‘qitish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishilarning unga talabgor bo‘lganlarga bilim berishlari, yetkazishlari. Ma’lum qilish, ya’ni til va ko‘rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirish. 2. Bilim darajasi – o‘qitish, bilish, borliqdagi obyektiv qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig‘indisi: past, o‘rta va yuqori ma’lumotli va hokazo.

**Ko‘nikma** – malakaning tarkibiy qismi bo‘lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi. Ko‘nikma o‘quvchilarda ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.

**Malaka** – o‘quvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu oqrali mehnatda ijobiy natijalarga erishib, uni ongli va to‘g‘ri bajarishga tayyor bo‘lishdir.


**Mahorat** – turli malakalardan ishonchli, ijodiy foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta’limning mutloq maqsadidir. Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmidir.

**Odob-axloq** – shaxsning o‘ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti-harakatlarning belgilangan, aniqlangan usuli bo‘lib, tasavvurlar va qarashlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

**Shaxs** – jamiyat a’zosi sifatida o‘z-o‘zini anglashi va tafakkur faoliyatining obyektivligi. Muloqotda hamda kamolga yetishishda nasl (irsiyat), biologik, ijtimoiy muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya va nihoyat, o‘zining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

**Shaxsning axloqiy sifatlari** – shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo‘ladi: bilag‘onlik, obyektivlik, fikrllovchilik, qobiliyat-lilik va h. k.

**Tizim** – yunoncha «sistema» so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘laklardan hosil bo‘lgan, birikish ma’nosini anglatadi. Ya’ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro bog‘liq elementlarning yig‘indisidir.



#### 4- chizma. Pedagogikaning asosiy tarmoqlari tizimi.

**Intizom** – maqsadga erishishda, qilinayotgan ishlarda keragi-chi va maslahatga muvofiq doimiy ravishda bajariladigan xattiharakatlar yig‘indisidir.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshlariga mos pedagogika tarmoqlari mavjud (4- chizma).

Jumladan, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, umumiylar ta’lim pedagogikasi, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi pedagogikasi, oliy ta’lim pedagogikasi, ishlab chiqarish ta’limi pedagogikasi, pedagogik menejment, davolash pedagogikasi, gerontopedagogika, harbiy pedagogika, yangi pedagogik texnologiya kabilalar. Bulardan tashqari, defektologiya deb ataluvchi maxsus pedagogika fani ham shakllandiki, bu maxsus o’quv maskanlari o’qituvchi, tarbiyachilar tayyorlashda surdopedagogika (soqov bolalarni o’qitish va tarbiyalash), tiflopedagogika (ko’zi ojiz bolalarni o’qitish), oligofrenapedagogika (aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni tarbiyalash va o’qitish), logopediya (nutqi yaxshi rivojlanmagan

bolalarni o‘qitish) masalalari bilan shug‘ullanadi. Pedagogika fanlar tizimining muhim tarmog‘i bo‘lgan aniq fanlarni o‘qitish va o‘rganish qonuniyatlarini o‘rgatuvchi uslubiyot fanining ham xizmatlari beqiyosdir. Har bir fanning o‘ziga xos usullari mayjud. Ba’zan bu fanni xususiy metodika, ya’ni uslubiyot deb atashlari ham bejiz emas.


Keyingi yillarda oila pedagogikasi, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi, harbiy pedagogika, sport pedagogikasi kabilar shakllanmoqda. Pedagogika bundan keyin ham mustaqil fan sifatida shakllanib boraveradi.

## 1.4. PEDAGOGIKANING ILMIY-TADQIQOT METODLARI

Pedagogika muammolarini hal qilishda turli-tuman tadqiqot metodlari mavjud. **Metod** lotincha «mitodos» – yo‘l so‘zidan olingan. Ilmiy tadqiqot shu metod orqali nazariy, siyosiy, ilmiy, milliy va ijtimoiy hayot hodisalarini, qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot metodlarini tavsiflash olimlar tomonidan turlicha asoslab berilgan.

Akademik S. Rajabov tahriri ostidagi «Pedagogika»da kuza-tish, suhbat, mакtab hujjatlarini tahlil qilish, eksperimentlar metodi, statistika ma’lumotlarini tahlil va sintez qilish, anketalar, hisoblash, matematika va kibernetika metodlari asoslab berilgan. I. F. Xarlamov «Pedagogika» o‘quv qo‘llanmasida pedagogik kuza-tish, suhbat, tajriba-eksperiment, mакtab hujjatlarini o‘rganish, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish, ijtimoiy-sotsiologik tadqiqot, matematik hisoblash metodlari haqida to‘xtaladi.

S. P. Baranov va boshqalar yaratgan «Pedagogika» qo‘llanmasida esa kuzatish, savol-javob, hujjatlarni o‘rganish, eksperiment-tajriba, modellashtirish metodlari beriladi. A. Munavvarov tahriri ostidagi «Pedagogika» o‘quv qo‘llanmasida kuzatish, suhbat, bolalar ijodini o‘rganish, test-so‘rovnomalar, mакtab hujjatlarini tahlil qilish, matematika va kibernetika metodlari haqida so‘z boradi. Mavjud pedagogika darslarining deyarli barchasida metodlarni tavsiflab chiqishda bir xillik mavjud. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan talaba, o‘qituvchi-tarbiyachi, aspirant-tadqiqotchi va ilmiy xodimlar biror pedagogik muammoni hal



**5- chizma.** Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

qilish maqsadida foydalananadilar. Bulardan foydalananish ijodiy yondashishni talab qiladi. Ilmiy izlanishning dastlabki debochasi adabiyotlarni o'rganib, tahlil qilishdan iboratdir (5- chizma).

**Adabiyotlarni o'rganish metodi.** Pedagogika adabiyotlarini o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagogik olimlarning asarlari, Mustaqil O'zbekistonning iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov asarlari, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi.

**Kuzatish metodi.** Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatish biror maqsadni ko'zda tutgan holda tashkil etiladi va rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqt, vaziyati, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddati ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish – obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosalarga kelish. Uzoq muddatli kuzatish – qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi, kuzatishning yakunini qayd etishda kinosyomka, videoyozyuv, televideniye va

boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to‘g‘ri foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

**Suhbat metodi** – tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma’lum va mas’ul shaxslarga og‘zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So‘roqlar mavzu doirasida mantiqli, mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo‘lishi lozim. Uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab jadval tuziladi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. O‘rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil qilinadi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig‘ib olish muddati anket metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liqdir. Odatda, anketalar anketa ma’lumotlarini EHMda qo‘llab, matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan bunday tahlil qilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog‘lanishlari va bog‘liqliklarini aniqlashga imkon beradi.

**Pedagogik eksperiment** – har qanday ilmiy-pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperimentning asosiy turlari bo‘lib, ular o‘z ichida yana turlarga bo‘linadi. Tabiiy eksperiment sharoitida yangi o‘quv rejalarini, dasturlar, darsliklar va hokazolar odatdagagi o‘quv jarayonini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik eksperiment ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o‘tish sharoitlarini muntazam o‘zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etilgan bo‘ladi. Buni aniqroq o‘rganish uchun eksperimentator o‘zi tashkil etgan pedagogik jarayonni kuzatadi. Unga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyati uchun muayyan sharoitlarni yaratadi.

Pedagogik eksperiment dastlabki ma’lumotlarni, aniq sharoitlarni va o‘qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Laboratoriya eksperimenti ilmiy tadqiqotning ancha qat’iy shakli bo‘lib, juda keng pedagogik kon-

tekstdan uning muayyan bo‘lagi ajratib olinadi. Natijalarni aniq tekshirib borishga va o‘zgaruvchan kattaliklar o‘rnini almashtirishga imkon beradigan sun’iy sharoit yaratiladi. Pedagogik eksperiment uch bosqichda amalga oshiriladi: eksperimentni rejalashtirish, eksperiment o‘tkazish va natijalarni sharhlash.

Rejalashtirish eksperimentning maqsadi va vazifalarini belgilash, eksperiment natijasiga ta’sir etuvchi omillar va ularning darajasi miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o‘tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o‘z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o‘tkazish belgilangan rejaga qat’iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida esa ma’lumotlar yig‘iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o‘tkazish tezkorlik tamoyillariga javob berishi uchun quydagi shartlarga rioya qilish kerak, ya’ni:

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo‘lishi.
2. Tadqiqot metodlarining ishonchliligi.
3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish.

Turli metodlarning o‘zaro qo‘sib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunda pedagogikaga kirib kelgan matematika metodlarining hamda hisoblash, yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalaridan foydalaniladi.

**Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi.** Pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqur o‘rganmoq va ularni tahlil qilishda ta’lim qonuniga amal qilmoq shart. Maktab hujjatlarini tahlil qilish o‘quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligi, iqtidori hamda ilg‘or pedagogik tajribalar umumlashtirilishi va joriy etilishi ko‘rsatilgan taqdirdagina to‘liq qiymatga ega bo‘ladi.

**Bolalar ijodini o‘rganish metodi.** Maktab o‘quvchilari ijodi hamda ularning turli-tuman ishlarini o‘rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o‘quvchilar aqliy qobiliyatları, oliyjanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadilar. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasaturi»ga ko‘ra pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur o‘rganish hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishi kerak.


Metodik-pedagogik tadqiqot, statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish, ularni ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rGANISH mustaqil O'zbekistonda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi.

**Anketalar metodi** – bu o'quvchilardan so'rash usulidir. Anketalar o'quvchilar jamoasining saviyasi to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus formada ishlangan bo'lishi lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi lozim.

**Hisoblash matematikasi va kibernetika metodi.** Hozirgi zamон sanoat ishlab chiqarishi, fan va texnikasi turmushda sinalgan texnika vositalarini, hisoblash matematikasi va kibernetika usullarini maktab ishida va pedagogikada qo'llashni talab qiladi. Pedagogik kibernetika o'qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida formasi sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida katta farq bor. Pedagogik tadqiqotlarda kino, ovoz texnikasi, foto, televideniye singari texnika vositalaridan ham keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Bolalar uchun qo'shimcha rag'batlantirish omillarini hosil qiladi. Bular o'quvchilar mehnatini ma'lum darajada yengillashtiradi. Ko'rsatilgan vositalarning har biri bolalarning bilimini, o'quv fani va pedagogik jarayonni mukammallashtiradi.

## **1.5. PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**

Pedagogika fani ham boshqa fanlar singari yakka holda mu'kammallikka erisha olmaydi. «Pedagogika» tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rGANAR ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. U ham ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatning rivojlanish qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi va o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi. Shu sababli etika, estetika, falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya fanlari bilan uzviy munosabatdadir (6- chizma).



**6- chizma.** Pedagogikaning boshqa fanlar bilan uzviy munosabati.

Har qanday pedagogik faoliyatning pirovard maqsadi yosh avlodda turli dunyoqarashni shakllantirishdir, shu bilan birga dialektikaning umumiy qonunlari har qanday inson faoliyatida eng umumiy metodologik asos rolini bajaradi, shu bois pedagogika to'g'ridan-to'g'ri **falsafa** bilan bog'liqdir. To'g'ri fikrlashni, o'z fikrini tushunchalar orqali to'g'ri va aniq ifoda etishni mantiq (logika) fani o'rgatganligi tufayli o'qituvchilar turli fikrni shakllantirish usullarini yaxshi bilishlari lozim.

Pedagogika umumiy psixologiya va yoshlar psixologiyasi bilan ham uzviy bog'langan. **Psixologiya** shaxsning turli yoshdagi ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini, ta'lim-tarbiya ta'sirida inson ruhiyatining o'zgarish mexanizmini tushuntiradi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog tarbiyalanuvchilarning ruhiy rivojlanishini, shaxsiy sifatlarini o'rganishi lozim. Shundagina samarali ta'sir ko'rsata oladi.

O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish uchun ular o'zlarini yashayotgan hududning, tumanning, unda istiqomat qilayotgan xalqlarning yashash tarzi, tarixini bilishlari lozim. Pedagog ta'lim-tarbiyanı millat tarixiga bog'lab o'tsa, ularda milliy g'urur paydo bo'la boshlaydi. Buning uchun pedagog **tarixni** yaxshi bilishi kerak.

Pedagog turli ijtimoiy guruhlar bilan ishlaydi. Har bir ijtimoiy guruhning o'ziga xos ijtimoiy qobig'i mavjud. Dars jarayonida bularni hisobga olish zarur. Demak, pedagogika **sotsiologiya** bilan ham bog'liq.

Dars berish bilan birga tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirish kerak. Buning uchun pedagog ta’lim-tarbiya ishlarini darsdan tashqari olib borishni ham rejalashtirishi mumkin. Bu ishlarni tashkil qilish va o’tkazish usullarini **tarbiyaviy ish metodikasi (TIM)** fani o’rganadi. Ko‘rib turibmizki, pedagogika axloq, odobshunoslik, tarbiyashunoslik fanlariga ham uzviy bog‘liqdir.

Shuni aytib o‘tish joizki, pedagogika fani nopedagogik oliy o‘quv yurtlarida faqatgina ijtimoiy fanlar bilangina emas, balki texnika fanlari bilan ham uzviy bog‘liq holda olib boriladi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Pedagogikaning maqsad va vazifalarini izohlab bering.
2. Pedagogikaning predmeti va obyekti nimalardan iborat?
3. Pedagogika fani nimalarni o‘rgatadi?
4. «Pedagogika» atamasining ma’nosи qanday?
5. Pedagogikaning metodologik asosini tushuntirib bering.
6. Pedagogikaning asosiy tushunchalari mazmunini gapirib bering.
7. Pedagogikaning qanday ilmiy-tadqiqot metodlari mavjud?
8. Pedagogika qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘qitiladi?
9. Pedagogikaning qanday asosiy tarmoqlari mavjud?
10. Maxsus pedagogika va uning turlarini aytib, izohlab bering.



### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – T.: 1997.
3. **I. Karimov.** «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: 1997.
4. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, (tuzuvchi-mualliflar: K. Hoshimov va S. Ochil). – T.: «O‘qituvchi», 1995.
5. **N. G‘aybullayev** va boshq. Pedagogika. – T.: O‘MU, 2005. 3–42-betlar.
6. **Z. K. Ismailova, A. A. Shayusupova.** Pedagogikadan ma’ruzalar matni. – T.: TIMI, 2005. 3–25-betlar.
7. **A. Q. Munavvarov.** Pedagogika. – T.: «O‘qituvchi», 1996.
8. **B. Ziyomuhamedov, Sh. Abdullayeva.** Pedagogika. – T.: O‘ME davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 3–22-betlar.
9. **Z. K. Ismailova.** Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: «Fan», 2001. 3–25-betlar.



## **PEDAGOGIKADA SHAXS MUAMMOSI**

---

### **2.1. MUTAXASSIS SHAXSINI SHAKLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI**

Dunyoga kelgan go'dak ma'lum yoshga qadar individ sanaladi. «Individ» – lotincha «individuum» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bo'linmas», «ayrim shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir.

Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi, biroq bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi.

Go'dakda nutq paydo bo'lishi, shuningdek, u bajarayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi sanaladi.

Shaxc deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam shaxs bo'lmos'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan ajralib turishi lozim.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga nisbatan shaxsiy munosabati bilan boshqalardan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlaridir. Mazkur xususiyatlar rivojlanib, ma'lum bir bosqichga yet-sagina, u mukammal shaxs sifatida namoyon bo'ladi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'z o'mini topadi.

Shaxs nomini olish uchun nimalar kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning uchun odamga ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari (muhit) va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular hamda nasliy xususiyatlarning takomillashib borishi odamning rivojlanib, shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishi-

ning umumiy qonuniyatlarini, unga ta'sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Shuningdek, shaxs faolligining o'mni va rolini ham o'rganishi lozim.

Biz yuqorida «rivojlanish» tushunchasini juda ko‘p ishlatdik. Endi ushbu tushunchaga atroficha yondashib, ta'rif berishga harakat qilamiz. Odam biologik mavjudot sanaladi, uning rivojlanishiga tabiiy qonunlar, biologik va ijtimoiy qonuniyatlar ta'sir etadi, insonning kamol topishiga zamin yaratadi. Bulardan tash-qari, komil inson bo‘lib yetishuvda aniq maqsad uchun bo‘lgan xatti-harakat, iroda sifatlari asosida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan ishonch ham muhim ahamiyatga ega.

Anatomik va fiziologik xarakterdagи o‘zgarishlar, ya’ni odam bo‘yining o‘sishi, gavda og‘irligining ortib borishi, gavda tuzilishining o‘zgarishi, qon bosimi, o‘pka siqishi, tayanch-harakat appartening holati va boshqalar jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlaridir.

Bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari, so‘z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy-psixologik rivojlanishga taalluqlidir.


Shaxs rivojlanishida u yoki bu faoliyat turlari (o‘yin, o‘qish, mehnat va boshqalar), turli yoshdagi faoliyat mazmuni (maqsadga yo‘naltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo‘lishi, ularning samaradorligi va h. k.), shuningdek, muomala hamda kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga bo‘ysunish, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan mas’ullik kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Shaxsning shakllanishida shaxsiy xislat va sifatlarning rivojlanib, taraqqiy etib borishi ham muhim. Mana shu sifatlarni anglash va ularni to‘g‘ri aniqlash uchun uni turli munosabatlar jarayonida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Demak, shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo‘lib, ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy mavjudotdir (7- chizma).

Shaxsning rivojlanishi esa barcha tug‘ma va keyin hosil qilin-gan xususiyatlar: organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik va psixologik xususiyatlar, faoliyat va xatti-harakatning miqdoriy va sifatiy o‘zgarishi jarayonidir.

Pedagogikada «**Shaxs**» tushunchasi «**Inson**» tushunchasidan farqli o‘laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi, ya’ni



**7 - chizma.** Shaxsni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari.

odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ikki xil xususiyatga ko'ra rivojlanib boradi:

**1. Ruhiy xususiyatlarning rivojlanishi.** Bunga aql, diqqat, harakat, iroda, xotira va h. k. kiradi. Hayotda o'z o'rnini topa olish, Vatani va xalqining ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilish, imonli bo'lishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi, albatta, tarbiyaga bog'liq.

**2. Jismoniy rivojlanish.** Bu rivojlanish jarayonida u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z boshidan kechiradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mu-shak qismlari, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kabilalar kiradi.

## 2.2. SHAXSNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

**Irsiyat** – bu ota qoni yoki ajdodlarga xos bo‘lgan biologik xususiyat va o‘xshashliklarning naslga (bolaga) o‘tish jarayonidir.

Nasldan-naslga o‘tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi: anatomik-fiziologik tuzilishi (masalan, yuz tuzilishi), organlar holati, qad-qomat, asab tizimi xususiyatlari, teri, soch hamda ko‘zlarning rangi, shuningdek, nutq va tafakkur.

Ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat (ijod) qilish qobiliyati va boshqa iste’dod alomatlari ham nasldan-naslga o‘tadi. Iste’dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat yoki ijod turiga yo‘naltirilgan emas. Bu alomatlар muayyan faoliyatga omillikni aks ettiradi, xolos.

Ma’lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste’-dod nishonasi aks etganda, aynan ana shu iste’dodning shakllanishida muhim rol o‘ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega oila muhitini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo‘lgan – layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat go‘yo «mudroq» holatda bo‘lib, uning «uyg'onishi» va rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Shaxs xarakteri ayrim ko‘rinishlarining nasldan-naslga o‘tishi xususida ham qobiliyat nishonalarining avlodlar timsolida takrorlanishi borasidagi fikrlarni aytish mumkin.

Shaxs muayyan ijtimoiy tuzum mahsulidir. Uning mohiyatini ijtimoiy munosabatlarning majmuyi tashkil etadi va u yashayotgan ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarixiy sharoit belgilaydi. Shaxsning hayotiy faoliyati sodir bo‘ladigan ijtimoiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma’naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog‘liq.

**Muhit** – shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi olam (voqelik, hodisalar) majmuyidir. «Muhit» tushunchasi o‘zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit ham o‘zida qisman ijtimoiy muhitning mazmuni aks ettiradi va ayni choqda u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit ijtimoiy muhitning bir qismi bo‘lib, oila, maktab, do‘sstar, tengqurlar, yaqin kishilar va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy, rivojlan-tiruvchi (progressiv) va mahv etuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o‘z tug‘ma layoqatiga mos sharoitda o‘sib, zarur faoliyat bilan shug‘ullansa, layoqat erta rivojlanishi, aks holda esa bunday muhit yo‘q bo‘lishi yoki «mudroq»ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari, odob, axloq kabi xulqiy sifatlar – shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, shaxsning shakllanishi jarayoniga alohida e’tibor beradi hamda ijtimoiy voqeя va hodisalarning shaxs rivojiga ta’siri g‘oyat muhim ekanligini ta’kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit emas, balki ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta’siri ostida o‘zgarib boradi, deya ta’kidlaydi.

Oila muhiti – mikromuhit ham o‘ziga xos muhim tarbiyaviy ta’sirga ega. Shu bois mustaqillikka erishganimizdan so‘ng o‘tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o‘rnini va roli masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan «Oila» ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Oila muhiti hamda ijtimoiy muhit o‘rtasida o‘zaro ta’sir, ikki tomonlama aloqa mavjud.

Mavjud ijtimoiy muhit bolaning o‘sib borayotgan ongiga ta’sir etadi, ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxsga nisbatan ongli ta’siri ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ushbu ta’sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalgalashiriladi.

**Tarbiya** – biror maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, u muayyan reja, dastur g‘oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilar tomonidan tashkil etiladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta’sirlarning barchasi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda qulay, samarali omillardan foydalaniladi, salbiy ta’sirlarning kuchi ma’lum darajada kamayadi.

Muhitning ta’siri stixiyali, tarbiyaning ta’siri esa maqsadga muvosiqdir. Tarbiya jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. Kishi organizmining o'sishi sodir bo'ladi, muhitning stixiali ta'siri berolmaydigan narsalar o'rganiladi. Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rabi turgan muhit ta'sirida o'rganib olishi mumkin, lekin o'qish va yozishni maxsus ta'lim yo'li bilangina o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2. Tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi (kar, ko'r, soqov va hokazo). Ammo maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qilishi, tug'ma kamchiligi bo'lмаган kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

3. Tarbiya orqali muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergen kamchiliklarni ham tugatish mumkin (bolalarning qimor o'ynashi, so'kishi...).

4. Tarbiya istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois u shaxs kamolotini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, u yashayotgan muhitning ta'sirini hisobga olishga bog'liqidir. Shuni yodda tutish kerakki, bola yashashga majbur bo'lgan mikromuhit mazmuni uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi kishilar va ular bilan o'rnatilgan aloqa mohiyatini belgilaydi. Bola oila a'zolari, tarbiyachi, o'qituvchi, o'rtoqlari, oilaga yaqin kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Ushbu aloqalar bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bolaga ularning ta'siri aloqa orqali bo'ladi. Yana shu aloqa asosida bola ajdodlar tajribasini o'zlashtiradi, o'zi uchun andaza tanlaydi.

Bolalar va kattalar o'rtasidagi aloqa faol jarayondir. Mazkur jarayonda kattalar faqatgina o'rgatuvchi bo'lib qolmasliklari lozim. Bolaning bu jarayondagi faol ishtirokini ta'minlashga alohida ahamiyat berish kerak. Shundagina u o'z harakatlarini o'zi idora qilishga, o'z faoliyati mazmunini tahlil qilishga o'rganadi. Bola fikrlasa, o'ylasa, uning ongi o'sadi.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutq rivojlanadi. Chunki mana shu vaziyatda bola savollar bera boshlaydi, kuzatadi, mulohaza yuritadi. Hayotiy voqeа-hodisalarни tushunishga, yaxshini yomondan ajratib olishga, o'z harakatlarini davr talabiga moslashtirishga urinadi. Har bir ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning maq-

sad va vazifalari, axloq me'yorlari, madaniy boyliklar, jamiyat a'zolarining didi, axloqiy qarashlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari o'zgarib boradi va bular tarbiya vositasida bolalar ongiga singdirib boriladi.

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shular orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatlari takomillashib boradi.

5. Inson kamol topishining jarayonini faqat irlisyat, ijtimoiy muhit va ta'lif-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lif-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsan, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqqa boshlaydi.

Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatga qiziqishi bilan bir qatorda, uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodli kishilar o'z iste'dodlarini – iqtidor kuchlarini to'la ro'yobga chiqarish uchun o'z ustlarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari shart. Masalan, mashhur grek notig'i Demosfening (eramizdan oldingi IV asr) omma orasidagi dastlabki nutqlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Demosfen duduq, ovozi xasta, qisqa-qisqa nafas oladigan kishi edi. U doimo bir yelkasini ko'tarib turardi. Demosfen mana shu kamchiliklarini tuzatish uchun o'zi ustida tinimsiz ishladi: og'ziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib, so'zlarni talaffuz qilishni mashq qildi, dengiz bo'yida to'lqinlar shovqinida nutq so'zladi, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan she'rlar o'qidi, oyna oldida turib yuz harakatlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga qilichni osib qo'ydi, u odati bo'yicha yelkasini har ko'targanda yelkasiga qilich sanchilar edi. Demosfen haftalab uydan chiqmasdan notiqlikni o'rganish uchun sochining yarmini qirdirib tashladi.

Bunga o'xhash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy, Ibn Sinolarning qunt bilan, hatto kechalari uxlamasdan kitob mutolaa qilganlari-yu Amir Temurning harbiy san'atni egallash borasidagi mehnatlari fikrimizning dalilidir.

Mashhur kishilar hayotini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ularning ijodiy faoliyatlaridagi asosiy narsa – uzlusiz izlana bilish, oylab, yillab o‘z oldilariga qo‘yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga yetish yo‘llarini izlashdan charchamaslik maqsadga erishish yo‘lidagi muhim omildir. Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati davrida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning o‘z oldiga maqsad qo‘yishlari va uni ro‘yobga chiqarishlariga yordamlashish, tinmay izlanish va mehnat qila olish qobiliyatlarini, kuchli iroda va qat’iy xarakterni tarbiyalab borishlari lozim.


Tabiiyki, o‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishishlari uchun maktabda olgan bilim, ko‘nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular yuksak maqsad yo‘lida o‘z ustlarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari lozim.

Baxtga qarshi, mакtab o‘qituvchilari orasida bolalar tarbiyasi-da muhim o‘rin tutuvchi omillar va ularning ahamiyatini bilmay-digan yosh o‘qituvchilar ham uchrab turadi. Masalan, ayrim o‘qituvchilar ulgurmovchi, o‘qishdan orqada qoluvchi o‘quvchilardan qutulish yo‘llarini, ya’ni ularni yo sinfda qoldirish, yoki boshqa maktabga o‘tkazish yo‘llarini qidiradilar va bunga erishadilar ham. Bu kabi choralarни qo‘llash bilan biz o‘quvchilar tarbiyasini tashkil etishda ko‘zlangan maqsadga erisha olmaymiz.

Fanlarda o‘zlashtira olmagan o‘quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato. O‘qituvchining birinchi galdeg‘i vazifasi – har bir o‘quvchi-sining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o‘rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko‘rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyuştilrilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir etadi.

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta’lim-tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlari muvofiq kelishi muhimdir. O‘qituvchi o‘qituvchilarning ruhiy xususiyatlari bilan birga, yosh xususiyatlarini ham bilishi, ma’lum yoshdag‘i o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olish asosida faoliyatlarini tashkil etishi lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab

## SHAXSNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR



**8- chizma.** Shaxsnинг shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.


rivojlanish ro'y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, u bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi (8- chizma).

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosa-larga kelishimiz mumkin:

1. Shaxs ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mahsuli sanaladi.
2. Shaxsnинг shakllanishi biologik (irsiy), ijtimoiy omillar hamda tarbiyaga bog'liqdir.
3. Shaxsnинг shakllanishida faoliyat o'ziga xos, muhim xususiyatga ega. Zero, shaxs faoliyat yordamidagina ijtimoiy borliq bilan bo'ladigan munosabatni yo'lga qo'yadi, shu asosda uning bilish qobiliyati rivojlanadi.
4. Shaxs jismoniy va psixologik jihatdan kamol topib borar ekan, fiziologiya, pedagogika va psixologiya fanlarida «yosh davrlari» deb nomlangan bosqichlarni bosib o'tadi.

## 2.3. JAMOA TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

«Jamo» so‘zi lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma’nolarini anglatadi. Aniqroq aytildigan bo‘lsa, jamoa – bu bir necha kishilardan iborat guruh demakdir. Zamonaliv talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlataladi. Birinchidan, jamoa deganda kishilarning istalgan tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, xo‘jalik jamoasi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyush-tirilgan guruhi tushuniladi. Chunonchi, o‘quvchi (tarbiyalanuv-chi)larning birlashmasi ham o‘ziga xos muhim bir jamoadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so‘z yuritamiz (9- chizma).



**9- chizma.** Jamoa tushunchasi.

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa o‘ziga xos bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgililar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi bo‘lib, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mayjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishini o‘zaro birlik, uzviy maqsadga muvofiqlik tashkil etadi.

Shu bois jamoa hayotining bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalganligi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Uning har bir a’zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishchdagagi o‘rnini va rolini to‘g‘ri baholay olish umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi hamda bo‘linishga yo‘l qo‘ymaydi.

Har bir jamoa o‘z-o‘zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalishi ham uning mazmunida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga ega.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o‘rnata olishdagi usuli, ya’ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhimdir.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a’zolari o‘rtasida ishchanlik, bir-biri uchun g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qapop topadi.

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas’uliyat his-sini uyg‘otib, jamoa a’zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissi paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi, jamoa bilan doimiy munosabatda bo‘lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a’zolari orasida o‘zaro ruhiy yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat, ko‘pincha, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi hamda bu pedagogik ta’sir ko‘rsatishda qo‘l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyati mazmuni-ga, ular orasida hosil bo‘lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog‘liqidir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishi-ni bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko‘rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy jihatlari ko‘zda tutiladi. Mazkur tuzil-ma bir tomonidan jamoa a’zolarining ishchanlik munosabatlarni ifoda etsa, ikkinchi tomonidan rahbarlik vazifasini bajaruvchi tar-biyachilar hamda jamoa a’zolari o‘rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a’zolari o‘rtasidagi shaxs-lararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhini tashkil qiluvchi ayrim a’zolar o‘rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a’zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o‘rinni egallaydi. Tar-biyalanuvchi shaxsning jamoadagi o‘rni uning shakllanish jar-yoniga ta’sir ko‘rsatadi. Maktab yoki sifsdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo‘lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko‘zga ko‘ringan o‘rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo‘la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (ishchi guruhlar) umumjamoa ijti-moiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo‘lgandagina o‘zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o‘zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabatda bo‘lmasinlar, haqiqiy jamoa bo‘la olmaydilar. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a’zolari o‘rtasida ijtimoiy faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o‘rnata olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unda pedagogik rah-barlikning mavjudligidir.

Shunday qilib, jamoa kishilarning muayyan guruhi bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a’zolarining o‘zaro birligi, ularning munosabatlar jarayonidagi tengligi, jamoaga rahbarlik qilish va bir-biriga bo‘ysunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarlik asosida muayyan faoliyat olib boriladi.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilishdan iboratdir.

Umumiy o‘rta ta’lim hamda yangi turdagи ta’lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas’uliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in – bu sinflar jamoalaridir. Sinf jamoasida o‘quvchilarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. Aynan sinf jamoasida o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o‘z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o‘quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O‘quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy jamiyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a’zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o‘zaro birlikka ega o‘quvchilar guruhidir.

O‘quvchilar jamoasi pedagog-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o‘zining psixologik muhitiga, an’analariiga ega guruh hisoblanadi.

Demak, yuksak darajada uyushtirilgan jamoa o‘zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi (10- chizma).

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun to‘rt bosqich zarur. Bu bosqichlarda dastlab pedagog butun guruhga talab qo‘yadi, so‘ngra jamoa faollari jamoa a’zolariga talab qo‘yadi, undan so‘ng butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishni talab qiladi va ni-hoyat, shaxs o‘z-o‘ziga talab qo‘yadi.



#### **10- chizma.** Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari.

Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ijodiy hamkorligi a'zolarning xulq-atvori, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilardir. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Pedagogik nuqtayi nazaridan jamoaning shakllanishini shartli ravishda bosqichlarga ajratish juda muhim. Bolalar jamoasi rivojlanishining har bir bosqichi ta'sir ko'rsatish shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

**Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi.** Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf, guruh)dir. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. Jamoa faoliyatida ishtirot etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga, tarbiyalanuvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqish tug'ilishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasida tajribaga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyshtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi, qat’iyligi, izchiligi, murosasizligi va jamoaning barcha a’zolariga talabni birday qo’ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o‘qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda, bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma’lum bo’lsa-da, guruh a’zolarining faolliklarini rivojlanтирish учун sharoitning mayjud emasligini hisobga olish zarur.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faoliyatining paydo bo’lishi ushbu davr учун xarakterli hodisadir. Bunda faollar tarkib topadi. Jamoa faoli (aktiv) muayyan guruhnинг shunday a’zolariki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, pedagog faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo’ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

**Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi.** Ushbu bosqich jamoa faolining pedagog talabini qullab-quvvatlashi hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo’yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagog jamoada paydo bo’lgan va u bilan bog’liq muammo-masalalarни yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalg etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o’tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinci bosqichda jamoaning muhim ishlari o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko‘rsatuvchi omillardir.

Jamoaning ijobjiy rivojlanishi uning a’zolarida ijodiy hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarining tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faoli jamoa a’zolari orasida hurmat qozona olishi, namuna bo’lishi, o‘z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o‘z mavqeyini suiiste’mol qilmasligi juda muhimdir. Bu o‘rinda A. S. Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «jamoa vijdoni» deya bergen ta’rifini eslab o‘tish joiz.

Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo‘lsa-da, ayni paytda uning o‘ziga ham talablar qo‘yilishi maqsadga muvo-fiqdir.

Jamoanining rivojlanishi bu bosqichda to‘xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko‘rsatayotgan kuch jamoanining bir qismigina xolos. Bordi-yu jamoanining rivojlanishi ushbu bosqichda to‘xtab qolsa, jamoa faolini guruhnning boshqa a’zolari bilan qarama-qarshi qo‘yish xavfi tug‘ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoanining barcha a’zolari faol ishtirok etishlari zarur.

**Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi.** Bu bosqich jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A. S. Makarenko-ning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa ayrim o‘zini chetga olib qochuvchi, injiq shaxslarga talab qo‘ya boshlaydi.

Jamoa ishiga endilikda faqat faolgina emas, balki uning butun a’zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo‘nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasи, jamoanining birgalikdagi faoliyatи, uning a’zolari xatti-harakati jamoa bo‘lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, o‘quvchilar o‘rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlar targ‘iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, ularning o‘zaro munosabatlарini shakllantirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa o‘zining har bir a’zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borishga, jamoa a’zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Buning sababi – uning a’zolari yuksak aqliy mazmunga ega bo‘lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlarining natijasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faolgina emas, balki jamoanining har bir a’zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qo‘ya boshlaydilar.

**Jamoa rivojlanishining to‘rtinchи bosqichi** – bu bosqich jamoanining barcha a’zolari o‘z-o‘zlariga talablar qo‘ya olishlari bilan

tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Xuddi shu jihatdan to'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolaring har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tadi. Biroq bu ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning o'rmini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda pedagog-olimlar (L. I. Novikova va boshqalar) bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni quyidagi uch bosqichga bo'ladilar:

**1. Jamoani dastlabki jipslashtirish.**

**2. Jamoani shakllantirish uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning qurolidir.**

Jamo hayotidagi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi A. S. Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergen edi. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan:

1) major – doimiy tetiklik, tarbiyanuvchilarning faoliyatga (harakatga) tayyorligi;

2) o'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun guruhlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglesh;

3) uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

4) jamoaning har bir a'zosi orasidagi do'stona birlik;

5) tarbiyali, ishchan, harakatga yo'llovchi faollik;

6) o'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

**3. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.**

Yagona talab o‘quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinf- dan tashqari ishlar vaqtidagi, jamoat joylari hamda uydagi xulq- atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Puxta o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi mактабда muayyan tartibning o‘rnatalishini ta’minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo‘yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobjiy natija beradi:

1. Qo‘yilayotgan talablar o‘quvchi shaxsini hurmat qilish asosida bo‘lishi kerak.
2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo‘yilishi lozim.
3. Qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi kerak.
4. O‘quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomaliasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O‘qituvchi qo‘yilayotgan talablar hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo‘yish metodikasini ham o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak. Bu metodika bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borishdan iborat.

O‘quvchilarni talablar bilan tanishtirish, ko‘pincha, umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta’lim muassasasi direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari istiqbol rejalarini va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Bataysil tanishtirish esa ayrim hollarda amalda ko‘rsatish, keyinroq sinflar bo‘yicha, sinf majlislarida, gohida maxsus suhbatlar uyushtirib amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo‘shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab jarayon. O‘quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo‘yilishi jarayonida ularga o‘quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o‘rnatalish lozim. Nazorat turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini

yuritish, sinsdagi navbatchilik uchun baholarni qayd etib borish va boshqalar. Nazorat haqqoniy va muntazam bo‘lishi kerak. Uning natijalaridan o‘quvchilarni ogoh etib borish lozim.

Jamoani uyuşhtirish va jipslashtirish unda faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir pedagogning jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamo faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulqatvorini kuzatib borishi, har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamo faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o‘zлari, albatta, pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashish jarayonini tashkil etadi.

Jamo faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim. Pedagog aynan shu faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois pedagog faolning maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi – bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyuşhtirish va boshqarishda o‘quvchilarning faol ishtirok etishidir. O‘z-o‘zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, konferensiysi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analari ham muhim ahamiyatga ega. Jamoa an’analari – bu barqarorlashgan odat bo‘lib, ularni jamoa a’zolari birdek qo‘llab-quvvatlaydilar. Jamoa an’analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi. Jamoa an’analari shartli ravishda ikkiga bo‘linadi:

- a) kundalik faoliyat an'analari;
- b) bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari)ni va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyuşdırısh va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analalariga turli voqealarda hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash, xususan, «Alifbe» bayrami, Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami, Xotira va Qadrlash kuni va boshqalar kiradi.

An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analalar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'l salargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

An'analarning o'tkazilishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar bolalar jamoasiga u yoki bu ortiqcha an'anani yuklamasliklari kerak. Ularning vazifasi oshkor bo'l magan holda hamda o'quvchilar yaratish zarurligini tushuntirish, tadbirlarni uyuşdırısh va o'tkazishda birgalikda ish olib borish, o'quvchilarni an'analarni davom ettirishga o'rnatishdan iborat.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Jamoa kishilarning shunday muayyan guruhiki, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiyligi maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgilar)ni namoyon etadi.

2. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniylarga buysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik pedagoglarning e'tirof etishlaricha to'rt bosqichli jarayonda qaror topadi.

3. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarining qo'yilishi, jamoa faolini tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

4. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam, hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.



## **Savol va topshiriqlar**

1. Shaxs tushunchasini ta’riflab bering.
2. Shaxsnинг shakllanishiga qanday omillar ta’sir qiladi?
3. Biologik (irsiyat) omilning shaxsni shakllantirishga ta’sirini izohlab bering.
4. Shaxsnинг shakllanishida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati qanday?
5. Tashqi muhit shaxs shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Jamoa tushunchasiga ta’rif bering.
7. Jamoani shakllantirishning qanday bosqichlarini bilasiz?
8. Jamoaning birinchi va ikkinchi bosqichlari to‘g‘risidagi o‘z fikringizni ayting.
9. Jamoaning uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarining mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?
10. Jamoaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.



## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. **Karimov I. A.** Sog‘lom avlod – xalqimiz kelajagi (Konstitutsiya kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqi). «Xalq so‘zi» gazetasi. 1999-yil 8-dekabr.
2. **G‘oziyev E.** Psixologiya. – T.: 1994.
3. Psixologiya fani XXI asrda. (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – T.: O‘MU, 2002.
4. **G‘oziyev E.** Kasb psixologiyasi. – T.: O‘MU, 2005.
5. **G‘aybullayev N. R.** va boshq. Pedagogika. – T.: O‘MU, 2005. 25–34-betlar.
6. **Ismailova Z. K., Shayusupova A. A.** Pedagogikadan ma’ruza-lar matni. – T.: TIMI, 2005.
7. **Ismailova Z. K.** Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: «Fan», 2001.




### **3.1. MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA MILLIY MAFKURANI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Milliy mafkuraviy tarbiyaning maqsadi – millatning maqsadi nima ekanligi; millat qanday yashamog‘i kerakligi haqidagi tasavvurlardan; har bir ota-onalarining kelajakda qanday kishilar bo‘lib yetishuvlari haqida qilgan orzulari ilmiy-nazariy umumlashtirilganidan kelib chiqib belgilanadi.

Shu tariqa O‘zbekiston tarbiya nazariysi va amaliyotida millat va shaxs birligini ta’minlovchi navqiron tarbiya tizimi paydo bo‘lmoqda.

Istiqlol mafkurasi ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining ezgu g‘oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi. Bu maskura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha’n-u sharafi, or-nomusi, ishonch-e’tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, turmush tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib bora-digan g‘oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol g‘oyasining tarixiy ildizlari – xalqimizning moziy sinovlaridan o‘tib kelayotgan boy madaniy va ma’naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an’analari, qo‘shiqlari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, otabobolarimizning mustaqillik yo‘lida ko‘rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma’naviy ruh bergen tafakkur tarzida namoyon bo‘ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Bu tafakkurning markazida insonning ulug‘ligi va mo‘tabarligi g‘oyasi yotadi. Chunki mamlakatning hayoti, farovonligi mehnatkash insonlarning faoliyatiga bog‘liq (11- chizma).



**11- chizma.** Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari.

Milliy istiqlol g'oyasining tarixiylik tamoyili xalqimiz ruhini, dahosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temuring sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan «Kuch –adolatdadir» degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan. U mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishda, ayniqsa, uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy-maskuraviy asos bo'lib xizmat qilgan.

Bundan necha asrlar avval yaratilib, hozirga qadar yurtimiz ko'runga-ko'rka bag'ishlab kelayotgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analaridan dalolat beradi. Ular Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida yaqqol tasavvur va tushunchalar berib, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixon tuyg'ularini uyg'otadi. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, — deb yozadi Islom Karimov, — biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligidimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdag'i boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»<sup>1</sup>. Bu vazifa esa tarixiy xotirani tiklash evaziga amalga oshadi.


<sup>1</sup> **I. A. Karimov.** Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (So'zboshi.) — T.: «O'zbekiston», 2000, 6-bet.

Milliy istiqlol g‘oyasi chuqur **pedagogik asoslarga** ega. Bunda bir tomondan, jahon pedagogikasidagi umuminsoniy qadriyatlar, ikkinchidan, Sharq pedagogikasi va madaniyati, uchinchidan esa, yurtimizda o‘tgan alloma bobolarimizning pedagogika merosi o‘z o‘rniga ega.

Ana shu asosda yaratilgan g‘oya va mafkura shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog‘i, haqiqiy iymonga aylanishi lozim.

Muxtasar qilib aytganda, milliy mafkuramizning pedagogik asoslari deganda ajdodlarimizning pedagogik tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, buniyodkorlik ishlari, jahon xalqlari pedagogikasi, urf-odatlari, qadriyatлari, hozirgi zamondagi pedagogik qarash va ta’limotlar, Prezident Islom Karimov asarlaridagi fikr va xulosalar tushuniladi.

Istiqlol mafkurasi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o‘zi va oilasi oldidagi burch va mas‘uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma’naviy mezon hamdir (12- chizma).



**12- chizma.** Istiqlol mafkurasining ta'lim-tarbiyaviy milliy xususiyatlari.

Milliy istiqlol maskurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida umuminsoniy tamoyillar yotadi.

Milliy istiqlol maskurasi quyidagi pedagogik mohiyatga ega:

— O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Bino-barin, u qonuniylikka, umume’tirof etilgan talablarga, umuminsoniy tamoyillarga zid kelmaydi;

— xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy maskuramizning tarixiy va ma’naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;

— adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqimizning ishonch va e’tiqodini aks ettiradi. Bilamizki, bu ulug‘ g‘oyalari istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e’tiqodi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi;

— vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a’zolarini aniq maqsad sari yo‘naltiruvchi, uyushtiruvchi mohiyatga ega ekanini ifodalaydi;


— jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olıyanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o‘zimizning burchimizni qay darajada anglashimizga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizga ko‘p jihatdan bog‘liqdir;

— millati va dinidan qat‘i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptiradi. Bu qoida Vatanning muqaddasligini har bir fuqaro ongiga singdirishga xizmat qiladi;

— jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma’rifiy yo‘l bilan singdiriladi. Bu milliy istiqlol g‘oyasining fikrlar rang-barangligi, e’tiqod erkinligi kabi demokratik tamoyillarga amal qilgan holda hayotga joriy etilishidan dalolat beradi.

Milliy istiqlol maskurasining asosiy umumbashariy tamoyilliari esa quyidagilarda namoyon bo‘лади:

— mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta’minlashda yordam berish;



**13- chizma.** Milliy istiqlol g'oyasining umumbashariy tamoyillari.

- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanganligi, o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashtushi, islohotlarning tadrijiyligi tamoyillarga xizmat qiladi.

Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e’tirof etadi va ulardan oziqlanadi (13- chizma):

- Qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
- o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish va hokazo.

### 3.2. ISTIQLOL MAFKURASINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA ASOSIY PEDAGOGIK G‘OYALARI

Istiqlol mafkurasining asosiy pedagogik g‘oyalaridan biri bu komil inson g‘oyasidir. Bu tushunchaga to‘xtalishimizdan avval biz komil inson tushunchasining mazmuni va mohiyatini anglab

yetmog‘imiz darkor. Bu borada Prezidentimiz I. Karimov ta’kid-laganlaridek, diplomga ega bo‘lish — bu hali tom ma’nodagi komil, ziyoli odam degani emas. Komil, ziyoli odam o‘z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo‘lakcha inson bo‘ladi.

Shunday ekan, **komil inson** deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Bunday sifatlarga ega bo‘lgan odam har narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘rib, o‘z fikrini, o‘yini, xulosasini mantiq asosida quradi.

Madaniyat barkamol insonni shakllantirish vositasidir. Biz pedagoglar, ota-onalar, tarbiyachilar ham talaba-yoshlarda adolatparvarlik, vatanparvarlik, teran aql-idrokilik kabi ma’naviy sifatlarni tarbiyalashda o‘z mehnatimizni ayamasligimiz, butun kuch-quvvatimizni ishga solishimiz kerak. Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o‘zaro munosabatlarini va o‘rnini aniqlab olmog‘imiz lozim. Insonning ma’naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma’naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida inson ijobiliy sifatlarining kamol topib, boyib bori-shiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiliy sifatlari majmuyidan iboratdir.

Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. Fazilat — axloqiy shaxs, el, elat, xalqqa taalluqli bo‘lgan ijobiliy axloqiy sifatlar majmuyidir.

**Komil inson g‘oyasi** — ham milliy, ham ma’naviy, ham umum-bashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoni y mukammallikni o‘zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g‘oyadir. Bu g‘oya na-faqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraq-qiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida teng-siz yutuqlarga ilhomlanligan.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetka-zish haqida qayg‘urmagan xalqning kelajagi yo‘q.

Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovlidir. Ma’naviy-axloqiy barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas,

butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'yi, qishloq-doshlari va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg'uradi; tevarak atrofini o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lgani singari, o'zi ham ularga kerakli kishi bo'lishga intiladi; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi; otabobolaridan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlaydi; milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi; o'zaro muomala-muncosabatda o'rnak bo'lishga moyil bo'ladi; birovning og'irini yengil qilishni odat qiladi; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qiladi va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatadi; Vatanini himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashaydi; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qiladi, va'daga vafoli bo'lishni o'ziga kasb qilib oladi.

Gap ma'naviy-axloqiy tarbiya, madaniyat to'g'risida borar ekan, VI—XIX asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod qilgan **Abu Nasr Forobiy**, **Abu Ali ibn Sino**, **Imom Buxoriy**, **Termiziy**, **Abu Rayhon Beruniy**, **Xos Hojib**, **Ahmad Yassaviy**, **Ulug'bek**, **Ali Qushchi**, **Hofiz Xorazmiy**, **Lutfiy**, **Navoiy**, **Bobur**, **Samarqandiy**, **Nodira**, **Muqimi**, **Komil Xorazmiy**, **Amir Temur**, **Furqat**, **Anbar Otin**, **Behbudiy**, **Siddiqiy** singari qomusiy olimlarning inson ma'naviyatini va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o'stirishga o'z umrlarini baxshida qilganlarini eslash kifoya.

Ular sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

**Komil Xorazmiy** o'zining ta'llim-tarbiyaga oid qarashlarida inson oliy maqsadga erishishi, adolatli jamiyat qurishi uchun ma'naviy qadriyatlar vositasida uning tafakkurini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, **inson o'z faoliyatida aql-idrokka, tafakkur quvvatiga tayanib ish ko'rmog'i lozim**.

**Alisher Navoiyning** pedagogika falsafasida **kishilarning ma'naviy dunyosini belgilovchi fazilat insonparvarlikdir**, deyilgan. Allo ma tasvirida ma'rifatli, adolatli, har qanday noaxloqiy sifatlardan xoli, yuksak tafakkurli inson ma'naviy yetukdir.

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir,  
Va barcha hammalar uchun yoqimlidir.  
U mansabdar kishilardan go‘zalroq va  
Badavlat odamlardan hurmatliroqdir.

(*Alisher Navoiy. «Mahbub ul-qulub»*)

**Amir Temur** farzandlari-yu nabiralariga qilgan o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlariga o‘zi ham umrbod qat’iy amal qilgan. Jamiyatda ijtimoiy adolat tantanasi uchun kurashda ikkilanish, cheklanish nimaligini aslo bilmagan. Keling, aniq misollarga murojaat qilaylik. Amir Temur jahongir bo‘lsa-da, u kuch-qudrat zo‘rlik, zo‘ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini chuqur anglab yetdi. Adolatni kuch bilan, kuchni esa adolat bilan uyg‘unlashtirdi. Temur tamg‘asining naqshi «**Rosti-rusti**» bo‘lib, bu «**Haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan**» demakdir.

Buyuk sultanat sohibi Amir Temur «**Kuch — adolatdadir**» shioriga qat’iy amal qilib, davlatni boshqarishda jabr-sitam yo‘lini berkitgan. O‘z davrida hech bir davlatda bo‘lмаган va tarixda kamdan-kam uchraydigan «**Adolat amiri**» lavozimini ta’sis etgan.

Jamiyat va davlatni boshqarish, baxt-saodatga erishish, komil insonni tarbiyalash, mukammal va adolatli jamiyat barpo qilish kabi masalalar o‘ziga xos talqin qilingan, ular o‘rtasida mushta-raklik va o‘xhashliklar ham ko‘p.

**Abu Rayhon Beruniy** fikricha, **odamgarchilik (muruvvat)** kishining o‘zi, urug‘-aymog‘i va o‘z ahvoliga ta’sir etish bilan chegaralanadi. Mardlik esa (futuvvat) undan ham ustun bo‘lib, o‘zidan tashqariga ham o‘tadi. Muruvvatli mard kishi o‘zining halimligi, muloyimligi, irodasi mustahkamligi, kamtarinligi tufayli elga tanilib, garchi u shu martabaga ega, uning ahlidan bo‘lmasa-da, oliv darajaga ko‘tariladi. U nasl-nasabi jihatidan emas, balki odamgarchilik jihatidan haqli ravishda hurmat qilinadi.

Inson notiqligi, saodat tildan,  
Nazokat tildandur, nafosat tildan.  
Hayot saboqlari ko‘rsatur shuni,  
Do‘zax tildan erur va jannat tildan.

Ikki narsa ajratadi insonlarni hayvondan,  
Insonligi bilinadi hunar ila zabondan.  
Shunday ekan, kishilarning eng ulug‘i hunarmand,  
Yoki so‘zga chechan kishi, fikri ravon, tili qand.

(*Ibn Sino. «Farosat ilmi haqida»*)

So‘zing bo‘lsa kumush, jim turmak oltin,  
Misi chiqqay so‘zing ko‘p bo‘lsa bir kun.  
Ko‘paygan so‘zning bo‘lgay to‘g‘risi oz,  
Shakarning ko‘pidan ozi bo‘lar soz.


(*A. Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq»*)

Demak, ularning ta’lim-tarbiya nazariyasi haqidagi fikrlari umumjahon ilmiy-pedagogik taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Mustaqil yurtimizning ma’naviyati, ertangi kelajagi qurayotgan buyuk davlatimizning mustahkam poydevoridir.

*Madaniyatli komil inson g‘oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’navay va jismoniy mukammallikni o‘zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g‘oyadir* (14- chizma).

Komil inson shaxsini shakllantirish jarayonida ta’lim-tarbiya borasidagi barcha imkoniyatlar va qadriyatlardan to‘la foydalanmoq kerak. Har qanday tarbiya umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘langandagina yaxshi samara beradi. Har holda jahondagi turli davatlarda, mamlakatlarda amalga oshirilgan tarbiya usullari, ishlari, mazmuni, mohiyati, undan ko‘zlangan maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday qilib, komil inson g‘oyasining maqsadi:

**Birinchidan**, Sharqda ham, G‘arbda ham ulug‘ mutafakkir, hurfikrlikning buyuk dahosi sisatida tan olingan Shayx Umar Xayyom aytgan edilarki, inson dunyoning tilagi, samari, aql ko‘zining gavharidir. Demak, inson, uning kamoloti, erkinligi butun ta’lim-tarbiya tizimining markazida turmog‘i lozim. Inson inson uchun degan fikr oliy qadriyat, oliy maqsad bo‘lib qolishi, buning uchun, eng avvalo, yoshlarning, ularga ta’lim-tarbiya berayotgan barcha kishilarning, Hazrat Navoiy aytganlaridek, o‘zi pok-u so‘zi pok-u dili pok bo‘lmog‘i lozim.



**14- chizma.** Madaniyatli komil inson g'oyasi.

**Ikkinchidan,** O‘zbekiston jahonga yuz tutdi, jahon ham O‘zbekistonga o‘z bag‘rini ochmoqda. Binobarin, endigi mutaxassis kadrlar jahon xalqlari bilan doimiy muloqotda bo‘ladilar. Juhon xalqlari esa O‘zbekistonga, uning xalqiga har bir kadrning shaxsiy sifatlariga qarab baho beradilar, munosabat bildiradilar. Bunday sharoitda bo‘lajak mutaxassis o‘z kasbining qay darajada ustasi ekanligi, ayni choqda O‘zbekiston fuqarosi (talabasi) sifati-dagi fazilatlariga qarab xorijliklar mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Buni har bir yosh avlod nazarda tutishi, shundan kelib chiqib ta’limga munosabat belgilashi, o‘z-o‘zini va milliy o‘zligini anglashi muhimdir. Ya’ni yoshlarda o‘z Vatani, xalqi oldidagi yuksak mas’uliyat hissini barqaror qilish, taraqqiyotning yangi, yuqori darajasiga erishish uchun ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish eng dolzarb masalalardan biridir.

**Uchinchidan,** bozor iqtisodi munosabatlarini O‘zbekistonda shakllantirishning o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyati shundan iboratki, bu munosabatlar ijtimoiy yo‘naltirilgan mazmunga

egadir. Ana shu munosabatlarni shakllantiradigan va unda faoliyat ko'rsatadigan kadrlarning ichki dunyosi — «Meni» yuksak ideallar, milliy qadriyatlar asosida qaror topishi uchun ta'lif-tarbiya tizimining butun yo'nalishi insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Ya'ni bozor iqtisodi munosabatlari odamda hayvoniy hirsler rivoji uchun emas, aksincha, insoniy fazilatlar to'la ravishda ro'yobga chiqishiga xizmat qilsin. Boshqacha aytganda, bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga pirovard ijtimoiy maqsad emas, balki har tomonlama kamol topgan, imon-e'tiqodli, yuksak madaniyatli insonlarni voyaga yetkazish, ularning o'z qobiliyatları, iste'dodlarini erkin ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit sifatida qaralmog'i lozim.


**To'rtinchidan**, ta'lif va tarbiyaning uzlusiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishining nazariy va ilmiy jihatlari shu sohada mehnat qilayotgan kadrlarning ongi va qalbidan zarur darajada o'rinn olishi kerak. Ta'lif-tarbiyani «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» bo'yicha belgilangan vazifalar asosida amalga oshirish lozim.

### **3.3. MILLIY ISTIQLOL G'OYASINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**

Milliy istiqlol g'oyasini, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lif-tarbiya, targ'i-bot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalananish taqozo etiladi.

Milliy istiqlol g'oyasini singdirishda har bir ota-onan o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahmiyat kasb etishi, bu davr uzlusiz ta'lif va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab yetishi nihoyatda muhim (15- chizma).

Bunda oila va ta'lif muassasalari tizimining izchil uyg'unlashtuviga erishish zarur. Bu davrdagi barcha bevosita ta'lif beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari) masjuraviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Barcha




**15- chizma.** Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar qalbi va ongiga singdirish yo'nalishlari.

amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonlarida, o'quv qo'l-lanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim:

- Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat uyg'otish;
- milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'r-satish;
- mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish va hokazo.

**Istiqlol g'oyasining tarbiyaviy mohiyati.** Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi – bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu tarbiya jarayonida inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlar maqsadli shakllantiriladi.

## Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish usullari




**16- chizma.** Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish usullari.

Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o‘z maqsad va mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy tarbiyadir.

Bu bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatları, insoniy munosabatlар borasidagi o‘ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go‘zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Milliy istiqlol g‘oyasi – tom ma’noda mafkuraviy tarbiyaning assosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo‘lishi mumkin emas (16- chizma).

**Istiqlol g‘oyasining tarbiyaviy maqsadi.** Har qanday mafkura-viy tarbiyaning maqsadi – jamiyatning har bir a’zosi va ular timsoldida har bir ijtimoiy qatlam, guruhnинг tarbiyaviy darajasini ta’minlashdir. Bu pirovard natijada o‘scha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg‘or g‘oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishini, uning tasakkur va fikrlash tarziga aylan-tirilishini ta’minlaydi. Shu ma’noda, milliy istiqlol mafkurasi



### **17- chizma.** Mafkuraviy ta'lim-tarbiya tizimi va funksiyalari.

O‘zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog‘lom g‘oyalar va fikrlar tarzida – xalq tafakkuri tarzida o‘z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir (17- chizma).

Istiqlol g‘oyasining eng muhim tarbiyaviy omillaridan biri oiladir.

Oila – jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati,

ona mehri orqali amalga oshadi. O‘zini o‘zi boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an’analalariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o‘rni beqiyosdir.

Keksalarning pand-nasihatni, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida yoshlar ongiga ezgulik g‘oyalari singdirib boriladi.


Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o‘tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiyma’naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik,adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg‘ularini tarbiyalaydigan mehnat jamoalari bo‘lib, turli millat va denga mansub odamlarni do’stlik va hamjihatlik, o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlikka chorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, sog‘lom ma’naviy muhitni vujudga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod, iymon, vijdon, mas’uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida, radio-televiedeniye, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o‘rnini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko‘ziga qarab turib aytildigan bama’ni so‘z va hissiyotlarning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-onada gapni aytishi lozim bo‘lsa, bolasining yuzini o‘ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko‘zidagi samimiyyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot, albatta, samarali bo‘ladi. Shu bois auditoriyalarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi, talaba va domla o‘rtasidagi muloqot ta’lim va tarbiya jarayonida katta ahamiyatga egadir.

Sog‘lom dunyoqarash, mas’uliyat, iymon va e’tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy obyektiv shart-sharoitlari va omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin (18- chizma):

- a) ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy muhit;
- b) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o‘sishi;
- d) yoshlarning bilim darajasi;

**Mafkuraviy ta’lim-tarbiyani yoshlar ongi  
va qalbiga singdirish omillari**



**18- chizma.** Mafkuraviy ta’lim-tarbiyani yoshlar ongi va qalbiga singdirish omillari.

e) odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, ilg'or fikrlashga o'tish.


Yangi davr, yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari aynan tafakkur va undagi o'zgarishlarni taqozo etadi, ammo bu jarayon birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi.

Bu murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, unda boshqa ijtimoiy qatlam vakillari bilan birga yoshlar tashabbuskorlik ko'rsatishi, o'z dunyoqarashi va e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir o'tkazishi kerak.

Mafkuraviy tarbiya ma'lum tizimga ega bo'lib, bu tizimda xilma-xil bo'g'inlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi (19- chizma). Bu borada mafkuraviy tarbiya subyektlari alohida o'rinn tutadi.

Jamiyat a'zosi hisoblangan inson doimo turli guruh va jamoalarning vakili sifatida ularning ta'siri ostida bo'ladi. Ya'ni har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub bo'lgan millat, xalq, professional (kasbiy) toifa, jamoa va oilaning ijobil yoki salbiy ta'siri bo'ladi.

## MAFKURAVIY TA'LIM-TARBIYANING AMALIY FUNKSIYALARI



**19- chizma.** Mafkuraviy ta'lism tarbiyaning amaliy funksiyalari.

Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili mavjud:

- makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi ijtimoiyma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari;
- mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson bolasi tug'ilib o'sadigan oila, ta'lism va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do'stlar muhitidagi ta'sirlar.

Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi bosqich ta'sirlargina belgilaydiganday tuyuladi. Chunki «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deganlaridek, odamning oilasiga, nasli-nasabiga, mahallasiiga, ta'lism olgan bilim dargohiga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oqlaydi ham. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini kansitish ham to'g'ri bo'lmaydi. Masa-

lan, sho'rolar tuzumi jamiyat a'zolarining mute, tobe, ixlossiz, ba'zi bir jihatdan iymonsiz bo'lib kamol topishiga zamin yaratganki, bunga, asosan, o'sha muhitdag'i nosog'lom, inson qadrini yerga uruvchi iqtisodiy siyosat va ideologiya sabab bo'lgan.

Mafskurani amalg'a oshiruvchi shaxsdan, avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishontira olish qobiliyati, notiqligi, o'ziga ishonch va boshqalar talab qilinadi. Bunday shaxslarning asosiy ish uslubi, o'zida mavjud bilim, tushuncha va g'oyalarni asos qilib olgan holda, birinchi navbatda, yoshlarda, qolaversa, keng xalq ommasi ongida mustahkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatishdir. Bunda u muloqotning barcha samarali va ta'sirchan vositalari dan – monolog, dialog, bahs-munozara kabilardan foydalanadi. Aynan ana shu faoliyat har bir ta'sir ko'rsatuvchidan ritorika asoslaridan xabardor bo'lishni, nutq mahoratini egallashni talab qiladi. So'zlovchi nutqiy va nutqiy bo'lmagan vositalardan o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi shart. Hissiy ta'sir usullari – o'rinni ishlatalgan qarashlar, imo-ishora, mimika kabilalar ham ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmaslik kerak.

Tarbiyachidan talab qilinadigan yana bir muhim xislat – uning yoqimtoyligidir. Bu ham notiqliga nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. Yoshlar auditoriyasida ma'ruza qiluvchi voizning mu-rojaatiga e'tibor jiddiyroq bo'ladi. Ziyolilar, olimlar auditoriyasida esa mantiqiy, ilmiy tahlillarga asoslangan fikr va mulohazalar katta ta'sir kuchiga ega.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Milliy mafskuraviy tarbiyaning maqsadi nimalardan iborat?
2. Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlarini ayтиb bering.
3. Istiqlol mafkurasining ta'lim-tarbiyaviy milliy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Istiqlol mafkurasining milliy xususiyatlari va asosiy pedagogik g'oyalari deganda qanday g'oyalalar ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi?
5. Istiqlol mafkurasining milliy xususiyatlarini nimalar tashkil etadi?
6. Istiqlol g'oyasining asosiy pedagogik g'oyalariiga nimalar kiradi va ularni tushuntirib bering.

7. Milliy istiqlol maskurasini yoshlar ongi va qalbiga singdirishning qanday usullarini bilasiz?
8. G‘oyaviy-maskuraviy ta’lim-tarbiya elementlarini nimalar tashkil etadi va uni asoslab bering.
9. Maskuraviy ta’lim-tarbiyani yoshlar ongi va qalbiga singdirishning qanday omillarini bilasiz?
10. Madaniyatli komil inson deganda qanday insonlar ko‘zda tutiladi?



### Foydalaniladigan adabiyotlar

1. **I. A. Karimov.** Milliy istiqlol maskurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: «O‘zbekiston», 2000.
2. **I. A. Karimov.** O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiy-siyosiy maskura. 1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 1996.
3. **I. A. Karimov.** Jamiyatimiz maskurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: «O‘zbekiston», 1996.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «Yangi asr avlod», 2001.
5. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: «Sharq», 1996.
6. **V. Karimova** va boshqalar. Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. – T.: «Ijod dunyosi». 2002. 28 bet.
7. **Q. Nazarov.** Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsad va vazifalari. – T.: «Ijod dunyosi». 27 bet.
8. **N. R. G‘aybullayev** va boshqalar. Pedagogika. – T.: TDMU, 2005. 175 bet.

### 3.4. TARBIYA JARAYONI VA TARBIYA METODLARI

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o‘rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashish o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni ham qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi O‘rtta Osiyo mutafakkirlariga, xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi va o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma’lumotlaridan foydalanadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo‘limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bog‘liqdir.

**Tarbiya** – muayyan maqsad asosida shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi, tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boriluvchi jarayon. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetka-zish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib topshirishga yo‘-naltirilgan jarayondir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiyaning mohiyati turlichcha bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Turli makon va zamonda tarbiya g‘oyasi turlichcha ifodalangan bo‘lsa-da, ammo yo‘naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko‘ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo sadoqat yo falokat masalasidur». Ushbu fikrlardan anglashiladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy-milliy masaladir. Zero, har bir xalqning taraqqiyoti, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g‘oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo‘li deb e’tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etishga xizmat qiladi. Demokratik insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o‘sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi, «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil Respublikamizda ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyanuvchiga munta-zam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlariga ko‘ra, shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabatiga bog‘liq. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki bu faoliyatga nisbatan tarbiyalanuvchining qalbida paydo bo‘layotgan munosabatni, turli kechinmalarni qanday anglashini, baholashini, his qilishini, ulardan o‘zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilishda, jamoadagi munosabatlar murakkablashib borganda asqotadi.

Tarbiya jarayonida o‘quvchining onginigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘sirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirot etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirot etish orqali o‘quvchilarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o‘quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyuştirilsa, bolaning tengdoshlarini va o‘zini-o‘zi anglash holati to‘g‘ri kechadi. Bola o‘z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishinga erishgach, ijobchi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo‘lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlanti-ruvchi kuchini, tarbiya jarayonining manbayini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.

Tarbiyada o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak, aks holda qarama-qarshiliklar vujudga kelishi mumkin.

Faoliyat jarayonida hosil bo‘lgan malaka va odatlar axloq me’-yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o‘qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etishi muhimdir. Aks holda xulq me’yorları, axloq talablarini yaxshi tushunolmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta’sirga beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda faoliyatning biror turi asosida uyushtiriladi.

Shaxsni shakllantirish boshqaruv, nazorat xarakteriga ega bo‘lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o‘ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o‘rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma’lum shart-sharoitlarning mayjudligi talab etiladi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiya jarayonidan ko‘zlangan asosiy maqsad – barkamol shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o‘quvchi shaxsining o‘zi tomonidan faollik ko‘rsatilishini taqozo etadi. Bunda pedagog yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tushunadi, shu maqsad yo‘lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlari va usullarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatlari tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin.

Shaxs tarbiyaning natijasi sifatida yaxlit mavjudotdir. Shaxsnинг ko‘pdan-ko‘p xislatlari bir-biridan ayri emas, balki o‘zaro mustahkam bog‘langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi.

Bola o‘sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqlashib boradi. Har tomonlama obyektiv ravishda aqliy, g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya birligini, o‘qituvchilarining ongi, xulq-atvori va faoliyatining umumiyligini, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllari qo‘shib olib borilishini ta’minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirishni va bu tizimlarning amal qilishini talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga, uning atrof-tevarakka, jamiyatga, odamlarga, o‘ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirishga, uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va guruhli bo‘lsa, uning ma’naviy dunyosi shunchalik boy bo‘ladi.

O‘z tabiatiga ko‘ra, tarbiya jarayoni ko‘p omilli xarakterga ega. Ya’ni bola shaxsining qaror topishi oila, maktab, jamoatchilik, sotsial muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta’sirlar ostida ro‘y beradi.

Tarbiya jarayonining natijalari, odatda, bir xil xarakterda bo‘lmaydi. Bu narsa o‘quvchilarining psixologik (individual-tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma’naviy tajribasiga, shaxsiy pozitsiyasiga bog‘liq. Tarbiya jarayoni, odatda, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va xususiyatlarni bartaraf etish bilan qo‘shib olib boriladi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsning o‘zida ijtimoiy qadrga ega bo‘lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta’riflanadi.

**O‘z-o‘zini qayta tarbiyalash** – shaxsning o‘zidagi salbiy odatlarni, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotishga, bartaraf etishga

qaratilgan ichki faoliyati mazmunidir. Bola xulqidagi og‘ishlar oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo‘l qo‘yan xatolari, o‘qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o‘zgartiriladi, bunda maktab va shaxsning shaxsiy ta’sirini oila, ota-onsa ham ma’qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash o‘quvchining o‘zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtida yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyo-qarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yonda-shuv, reja va ish birligi hissini uyg‘otish;
- b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarini tobora boyitish;
- c) umuminsoniy axloq me’yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat,adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka qarshi nafrat va hokazolar), muomala odobini, o‘quvchilarda yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;
- d) o‘quvchilarda huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ru-hida yondashishni, fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy burchga mas’ul-likni qaror toptirish;
- e) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;
- f) vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmatlash, hunar, huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;
- h) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish;
- i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat. Shu bilan birga, **tarbiya turlari** – axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyalar o‘zining xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda **bir qator vazifalarni** amalga oshiradi. Chunonchi:

a) **axloqiy tarbiyani tashkil etish** jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me’yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me’yorlar (talab va taqiqilar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong va madaniyatni shakllantirish;

b) **aqliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish** chog‘ida o‘quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlardan, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ijtimoiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish barobarida ularda tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashni shakllantirish;

d) **jismoniy tarbiyani tashkil etish** jarayonida o‘quvchilarda o‘z sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to‘g‘ri rivojlanish hamda uning ishlash qobiliyatini oshirish borasida g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘usini yuzaga kelтирish, ularda yangi harakat turlari borasida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish. Maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o‘quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, matonat, chidam, iroda va xarkterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

e) **estetik tarbiyani olib borish** jarayonida o‘quvchilarda estetik his-tuyg‘u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini, estetik ehtiyojlarini, go‘zallikni sevish va unga intilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

f) **ekologik tarbiyani olib borish** chog‘ida o‘quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o‘quvchilarga tushuntirish, ularda insonning insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o‘rni va ahamiyati borasida tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyyotkorona va mas‘ullik bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘ularini, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

g) **iqtisodiy tarbiyani tashkil etish** jarayonida o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida ularda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to‘ldirish, kichik va o‘rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urish tuyg‘ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

h) **huquqiy tarbiyalashni tashkil etish** jarayonida o‘quvchilarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta’limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo‘jalik, ma’muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tasavvurlarni singdirish, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

i) **g‘oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish** jarayonida o‘quvchilarga siyosiy bilim berish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyatasi asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat munosabatlari tizimi faoliyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mazmunini o‘rganishni ta’minlash asosida ularda siyosiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini qaror toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va boshqalar.

Tarbiya mazmunida oldinga qo‘ylgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat masifikasi g‘oyalardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g‘oyalarni yotadi:

1. **Tarbiya maqsadining aniqligi.** O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillardayoq Respublikada amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g‘oyalariiga ko‘ra, ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vosita – bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlarini tarkib toptirishdir. Ya’ni

shaxsnинг ақлий, ахлоқиј, жисмониј, естетик, иқтисодиј, экологик, ҳуқуқиј, сијосиј хамда меһнат маданијатини тарбиялаш тарбиянинг бosh мақсадини амалга ошириш имконијатини юратади.

**2. Bolalar va kattalarning birgalikda faoliyati.** О‘қитувчи болалар билан ма’навиј маданијатнинг eng yaxши namunasini izlashi, shu asosda tarbiyachi ishining hayotiy me’yor va qadriyatlarini ishlab chiqishi o‘quvchining tarbiya jarayonida faolligini ta’milashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to’la-to’kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari хамда ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta’sirga ega.

**3. O‘z-o‘zini anglash.** Tarbiya insonda e’tiqod, демократик қарашлар ва hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o‘z-o‘zini anglashi, o‘z shaxsiy hayoti va baxtining subyekti sifatida e’tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o‘z-o‘zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

**4. Tarbiyaning shaxsiy yo‘naltirilganligi.** Mazkur g‘oya ta’lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, shakl, metod va vositalar emas, balki o‘quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o‘ziga xos xarakteri, o‘z qadr-qimmatini anglash tuyg‘ulari rivojlantirib borilishi zarur.

**5. Ixtiyorilik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiyaviy g‘oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchi (talaba), ham o‘qituvchi ma’naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o‘qituvchi) o‘quvchining qiziqishi, faoliyati, o‘rtoqliк va fuqarolik burchini anglab, mustaqillikka intilish tuyg‘ularini ko‘ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi yuzaga keladi. Tarbiyalanuvchining irodali ekanligi ta’minlangan sharoitda uning shaxsiga ta’sir ko’rsatilsa, yo‘naltirilgan faoliyatda yaxshi samaraga erishiladi.

**6. Jamoa yo‘nalishi.** Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobjiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsnинг har tomonlama harakati unda dunyonи anglash va uni to’laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg‘ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi bilan birga amalga оширилади.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyachiga inson aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olishi lozimligini uqtirishning o‘zi kamlik qiladi. Bu yerda o‘quvchi uchun yuqorida qayd etilgan tarbiyalarning nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi masalalari qiziqarlidir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarbiya tizimida muammoning mana shu jihatni birinchi o‘ringa qo‘ymoqda. Yuqorida qayd etilgan g‘oyalar, agar to‘g‘ri tashkil etilsa, yetuk fuqaro, malakali mutaxassis hamda barkamol oila sohibini tarbiyalab voyaga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarni anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Bu **xususiyatlarning eng muhimi – aniq maqsadga yo‘naltiliganligi**. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarining birqalidagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsad – unga erishish yo‘li zamonaviy tarbiya jarayoni maqsadini tavsiflaydi.

**Tarbiya jarayoni ko‘pqirrali jarayon** bo‘lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko‘zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatishga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobjiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo‘nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvafaqqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o‘qituvchi faoliyati, balki o‘quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o‘rin tutadi.

**Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – uning uzoq muddat davom etishidir.** Tarbiya natijalari tez sur’atda yoki yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniyat sifatlarini namoyon eta oluvchi shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o‘zida turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi natijasida tarbiya jara-

yoni murakkablashadi. Maktab tarbiyasi shaxs ongini, dunyo-qarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki yoshlik yillarda inson yuqori darajada ta’sirchan hamda beqaror bo‘ladi, shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o‘quvchilik yillarda shaxsga to‘g‘ri tarbiya berish lozimligini talab etadi.

**Tarbiya jarayoni xususiyatlarining yana biri – uning uzluksizligi** hisoblanadi. Maktab tarbiya jarayoni – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi uzluksiz tizimli harakatlari jarayonidir. O‘quvchilarda ijobjiy sisatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o‘rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza olmaydi, chunki bolalar ma’lum muddat mактабда, o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri ostida bo‘lib, qolgan vaqtining asosiy qismini oilada, ko‘chada, jamoat orasida o‘tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta’til davrlarida o‘quvchilar maktab, o‘qituvchi ta’siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan xoli vaqtida ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining ta’siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar.

O‘quvchilarga nisbatan maktab (ta’lim muassasasi)ning ta’sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta’til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e’tibor beriladi. Ana shu maqsadda qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Ayni vaqtida respublikamizda o‘quvchilarni ta’lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo‘shimcha ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu muassasalarda o‘quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o‘rganishlari, texnik va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari mumkin. Shu bilan birga, bu maskanlarda tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchrashuvlar, ko‘rgazmalar, ko‘riklar, suhbatlar o‘quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o‘rin tutmoqda.

**Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir.** Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ma’lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtirila boradi, shu bois pedagogik ta’sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishni, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ehtiyyotkorlik bilan qaror toptirishni talab etadi.

**Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo‘lib, unda bolaning o‘zi ham faol ishtirok etadi.**


Ikki tomonlama aloqa ikki yo‘nalishda, ya’ni o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’siri (to‘g‘ri aloqa) hamda o‘quvchining o‘qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyasiga muvofiq, endilikda o‘quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo‘lib qolmasdan, subyekti bo‘lib ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlarini, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlarni, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi. Mana shundan **tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning g‘oyat ko‘pligi** kelib chiqadi.

Ushbu qarama-qarshiliklar o‘quvchilarda o‘z tushunchalariga muvofiq paydo bo‘lgan dastlabki sifatlar o‘rtasida yoki o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o‘rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari, bu qarama-qarshiliklar, ko‘pincha, bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo‘lmasligidan, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar yoshi va shaxsiy psixologik xususiyatlarini (fe’l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik sog‘lomligini) yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi (20- chizma):



**20- chizma.** Tarbiya jarayonining xususiyatlari.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidagicha hulosa yasash mumkin:

1. Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayoni bo‘lib, har qanday ijtimoiy tizim va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo‘lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil qilinadi. Ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tizim mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqr anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo‘yligan maqsadga erishish, shuningdek, vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

4. Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqr o‘rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o‘rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

### **3.5. TARBIYA JARAYONINING ASOSIY QONUNIYATLARI**

Tarbiya jarayonining asosi ijtimoiy hayotning obyektiv talablarini, insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlardan iborat.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mayjud bo‘ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi.

Bunday aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bu qonuniyat tarbiya jarayonida ham amal qiladi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyati, bir tomonidan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomonidan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq.

**Tarbiyaning bиринчи va eng muhim qonuniyati** uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog‘liqligidir.

Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g‘oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g‘oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy jarayonlar — tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, ja-moatchilik dunyoqarashi, mafkura g‘oyalari, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar tarbiyaning subyektiv omillari sirasiga kiradi. Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi ta’minlangan yillar va bunday sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o‘rnataladigan aloqalari shaxs tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati** uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligidir.

Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning g‘oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog‘liq. Ayni choqda tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga ham bog‘liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o‘qituvchi) tarbiyalanuvchi (o‘quvchi) shaxsini har tomonlama o‘rganishi va shu asosda unga to‘g‘ri psixologik tavsif berishi, shu asosda ta’sir ko‘rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, tarbiyaviy ta’-

sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo‘lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta’sirlarga mos bo‘lmay qoladi.

**Tarbiyaning uchinchi qonuniyati** – faoliyat va munosabat birligini e’tirof etish – shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbayi ekanligini e’tirof etishdir.

Tarbiyalanuvchilarining faoliyatni jamiyat uchun qanchalik foydali ravishda maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatning oqilonaga bo‘lishi ta’minlansa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo‘ladi. Shaxs faoliyatni ijtimoiy munosabatlar negizida yo‘lga qo‘yilib, tizimli tarzda kechadi.

Subyekt (shaxs), obyekt (ijtimoiy borliq) – ijtimoiy munosabatlar tarzida tashkil etiladigan aloqa jarayoni shaxs faoliyatni mazmuni va yo‘nalishini ham belgilashi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida borliqni his etish, o‘z-o‘zini anglash, aloqa, aralashuv va muloqotni tashkil etish ehtiyoji yuzaga keladi. Ehtiyojni qondirish yo‘lida dastlabki urinish ijtimoiy munosabatlar mazmunini o‘rganish va o‘zlashtirish hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashga qaratilgan faolit jarayonida ijtimoiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqish hosil bo‘ladi. Qiziqish, o‘z navbatida, shaxsda muayyan hayotiy maqsadning qaror topishiga olib keladi. Maqsad asosida shaxs nafaqat ijtimoiy bilimlarni egallashga intiladi, balki o‘zlashtirilgan bilimlarni egalash layoqatini ham namoyon eta boradi. Maqsad mazmunini ifoda etuvchi g‘oyalar amaliy harakatlarni tashkil etish borasidagi rag‘batlarning yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashiladiki, shaxsning shakllanishi – bu uning asosiy munosabatlarning shakllanishidir. Ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimida tarbiyachi, o‘qituvchi, ota-onalar hamda jamoaning tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, farzandlar va shaxs bilan bo‘ladigan o‘zaro ta’siri jarayonida kelib chiqadigan tarbiyalovchi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar doirasida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalgalashadi.

**Tarbiyaning to‘rtinchchi qonuniyati** – tarbiyalanuvchilarining o‘zaro tarbiyaviy ta’sirga ega ekanliklari, ularning o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishning mavjudligi sanaladi.


Tarbiyachi (o‘qituvchi)larning tarbiyalanuvchi (o‘quvchi)larga pedagogik ta’siri ular faoliyatni va munosabatlarning tizimli hamda rejali tarzda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishini nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o‘qituvchi) va tarbiyal-

nuvchi (o'quvchi)larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiya berish obyekti hisoblanaadi. Biroq tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erishilsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi.

Rivojlantiruvchi (shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) tarbiya jarayonidagi asosiy vazifalardir.

Tarbiyalovchi ta'sirlar muayyan shaxslarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ta'sir ko'rsatishning individual yo'llarini qidirib topishi lozim. Tarbiyachi muvaffaqiyati aksariyat hollarda u o'z o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini, ya'ni ularning ongliligi, axloqiy sifatlarga egaligi, odilligi, qat'iyatliligi va boshqa xususiyatlarini bishishiga bog'liqdir.

Demak, tarbiya jarayonining qonuniyatları quyidagilardan iborat (21- chizma):



**21- chizma.** Tarbiya jarayonining qonuniyatları.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko‘ra ish ko‘rilayotganligiga ham bog‘liq.

**Tarbiya tamoyillari** deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oya va qoidalar yig‘indisiga aytildi.

Tarbiya tamoyillari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvosiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg‘or ta’limotlar g‘oyalilariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg‘or tamoyillarga amal qilinishi uning samarasini ta’minlaydi.

### **Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:**

- tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi;
- tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalari ustunligi;
- tarbiyada milliy umumbashariy qadriyatlar ustunligi;
- tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo‘shib olib borish;
- tarbiyani mehnat bilan bog‘lash;
- tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyada o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash;
- tarbiyada o‘quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo‘qotish.

### **Tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi.**

O‘qituvchi ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi hamda puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g‘oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo‘lishi mumkin emasligini singdirish, ularni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir.

Bu sohada mustaqil respublika xalq ta’limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlesh qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis va komil shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yogga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

### **Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalari ustunligi.**

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy-huquqiy erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratlash – bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish, bu ishga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir.

O'qituvchi o'quvchiga, avvalgidek, tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchini tenghuquqli, hamkor, hamfikr deb qarashi lozim.

### **Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi.**

Xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan turib, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois xalq an'analari, urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagiga daxldor, qadr-qimmatga ega an'analar, urf-odatlari haqida ma'lumotlar berish, ularga nisbatan mehrmuhabbat uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ular uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak.

**Tarbiyada izchillik va tizimlilik.** Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaviy pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi.

Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhim. O'qituvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchiga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro zid harakatda bo'lmasliklari lozim.

**Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish.** Yosh avlodning o'sib-ulg'ayishi va shaxsning shakllanishiga, avvalo, hayot,

ijtimoiy jamiyat ta'sir etadi. Ikkinchidan, bolalarni tarbiyalashdan maqsad ularni turmush uchun, mustaqil hayot uchun tayyorlashdir. Shunday ekan, maktab va tarbiya muassasalarida olib boriladigan ta'lim va tarbiya ishlari turmush bilan mustahkam bog'langan bo'lishi kerak.

**Tarbiyanı mehnat bilan bog'lab olib borish.** Mehnatning yosh avlod uchun tarbiyaviy ta'siri juda kattadir. Unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyatini, iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetkazadi. O'quv faoliyati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor, izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun, ularda dunyoqarashni vujudga keltirish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni yoshligidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Aslida maktabda o'qishning o'zi ham bola uchun mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

**Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish.** O'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ular shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi.

O'quvchi shaxsini hurmat qilish ularga mehr-muhabbat va ishonch bilan qo'shib olib borilishi kerak. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerda o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

**Tarbiyada o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.** Tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlari: bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichini bosib o'tadilar.

Shu davrlarda ijtimoiy borliq va voqeliklar haqida aniq bilim-larga ega bo'ladilar. Shu yillar ichida bolaning axloqiy tuyg'usi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi, xarakteri tarkib topadi. Bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatiga ko'ra beriladigan tarbiyaning mazmuni ularga nisbatan pedagogik rahbarlik xarakterining ham o'zgarishiga olib keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisob-

ga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma’naviy o’sishida bir qadar umumiylit bor, biroq ularning mijoz, xarakter xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo‘ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o‘qish va mehnatida aks etadi. Bir o‘quvchiga nisbatan qo‘llangan foydali metod boshqa o‘quvchiga qo‘llanganda natijasiz bo‘lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o‘quvchining yosh va individual xususiyatini inobatga olish va o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

**Jamoa yordamida tarbiyalash.** Tarbiya jarayoni o‘quvchilarning jamoa bo‘lib birlashishlariga, ularda manfaatlar birligi, o‘zaro yordam tuyg‘usini o‘stirishga xizmat qilishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan jamoada odamlarning qobiliyat va iste’dodi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. O‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushganlaridagina tarbiya ishlarini amalga oshirish jarayoni ancha yengil va muvafaqiyatli kechadi, mana shunday jamoa fikri katta tarbiyaviy kuch kasb etadi. Bu xildagi jamoa fikri har bir shaxsga foydali ta’sir qiladi. O‘z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo‘sib olib borish, o‘zaro yordam kabi fazilatlar avvalo jamoada shakllanadi. O‘qituvchi hamma vaqt o‘quvchilar jamoasida yashash va ishlashga o‘rganib borishi lozim.

### 3.6. TARBIYA METODLARI

Tarbiyada o‘quvchi xulqidagi ijobjiy fazilatlarga tayanib, salbiy sifatlarni yo‘qotib borish muhim. Mahoratli pedagoglar o‘z o‘quvchilarining shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Ular tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobjiy sifatlarga suyanib ish ko‘radilar. Bu metod bolaning salbiy sifatlarini yo‘qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyatida, mazkur masalaning to‘g‘ri hal etilishida o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo‘llanilayotgan metodlar muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarkibiy qismlarni hamda ijtimoiy jamiyat ta’lim muassasalari oldiga qo‘ygan farzandlarimizni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Bu boradagi ishlar O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi shaxslarni tarbiyalash, ularni bu ishga jalg etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvosiq, tarbiya metodlaridan foydalananib ish ko'rish lozim.

**Tarbiya metodlari** (yunoncha «metodos» – *yo'i*) – bu o'qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy-ma'naviy e'tiqodlarni, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari demakdir. Bu usullar o'quvchi (tarbiyalanuvchi)ning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni tashkil etishni ham nazarda tutadi. Shu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o'qituvchi va o'quvchilarining tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan, birgalikdagi faoliyati usuli sifatida ko'rib chiqiladi.


O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlichay munosabatda bo'ladilar. Bu ularning individual xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlangani hamda mohirona qo'llanilganligiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobjiy hal qilishda, o'quvchilarining o'z-o'zini tarbiyalash va faolligini oshirishda yordam beradi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi zarur (22- chizma).

Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruuhga ma'naviy (axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h. k.) mazmundagi suhbatlar, hikoyalar, ma'ruzalar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinci guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga ega odatlar hosil qilinadi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvosiq ma'naviy odatlar, asosan, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarini ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulqlar atvori tajribasi bilan boyituvchi muhim manba hisoblanadi.

Ikkinci guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarning bajarilishi, ya'ni



**22- chizma.** Tarbiya metodlari tizimi.

ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalash; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalgaloshirish: u yoki bu harakatni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yiladi. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi xarakterda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishni ko'zda tutgan holda maslahat, iltimos, shama qilish, faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajada ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtida o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yilayotgan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

O‘qituvchi tomonidan qo‘yilayotgan talablar bora-bora jamoa talabiga aylanadi. Jamoa talabi ijtimoiy fikr tarzida namoyon bo‘ladi. Jamoa (jamoatchilik) fikri o‘zida jamoatning muayyan faoliyat, voqeа-hodisaga nisbatan beriladigan bahosini yoki muhokama natijasini ifodalaydi hamda faol ta’sir kuchi bo‘lib qoladi.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jaryonida tarbiyalanuvchilarni ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o‘rgatib boriladi.

O‘rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida o‘quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar va tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O‘rgatish o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

Bu faoliyatda mashq qilish mehnati ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o‘zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Mashq qilish o‘rgatish bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Agar o‘rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mashq qildirish o‘rgatib borishga suyangan holda ko‘p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazarda tutadi, bular esa asta-sekin ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo‘lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda, ko‘pincha, maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug‘iladi, bunda axloqiy hal qilishni mustaqil tanlash uchun imkon bo‘ladi. Pedagogik vaziyatlarda o‘quvchilar o‘z fikr va xulq-atvorlarini qayta o‘zgartirishlari lozim bo‘lgan sharoit yaratiladi.

**Ikkinci guruh** metodlari orasida musobaqa metodi o‘quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish samaradorligini oshirishning zarur va muhim sharti hisoblanadi. Musobaqa faoliyatning barcha sohalarida o‘quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o‘quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo‘naltilishga ko‘maklashadi. Musobaqa to‘g‘ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllantiriladi, intizom va o‘quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqa alohida faoliyat turi bo‘yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyuştiriladi, chunonchi, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi mакtab va h. k.

Tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zлari tashabbuskorlik asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko‘rsat-kichclarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta’milash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiyat-chilik uchungina tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoat-chilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo‘lib qoladi.

**Birinchi va ikkinchi guruh** metodlarining o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki o‘qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o‘quvchi ongi, xulqiga ta’sir etayotgan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko‘ra olishiga bog‘liq.

**Uchinchi guruh** metodlariga rag‘batlantirish yoki jazo berish kabi metodlar kiradi. Bu metodlardan tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirish, salbiy sisatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg‘ulari va maqsadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishda foydalaniladi.

Rag‘batlantirish metodlari o‘quvchilarning harakatlarini ijobiy-ijtimoiy baholashni ko‘zda tutadi. Rag‘batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag‘ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarga boshlaydi, o‘z faoliyati va xulqiga mas’uliyatni oshiradi. Bunday metodlar xilma-xil bo‘lib, ular sirasiga ma’qullah, ko‘ngil ko‘tarish va dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og‘zaki yoki yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi.

Rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Har qanday rag‘batlantirish o‘quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Rag‘batlantirish vaqtida o‘quvchining individual xususiyatlarini, jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u ketma-ket bo‘lmasligi shart. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash, talabchanlikni bo‘sashtirib yuborish – bular o‘quvchida manmanlik, xudbinlik sisatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag‘batni tashkil etishda o‘quvchining muvaffaqiyatlari bilan birga, uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati bora-sidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

**Jazo berish metodi** – bu o‘quvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me’yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma’lum xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatish, jamoa oldida uyalish, o‘zini gunohkor deb bilish hissini uyg‘otishi mumkin.

Jazolash va tanbeh berishning quyidagi usullari mavjuddir:

- o‘quvchining bajargan ishi xato ekanligini tushuntirish;
- xatoni ikkinchi bor qaytarsa, tanbeh berish;
- ogohlantirish;
- qattiq ogohlantirish;
- uyaltirish.

Jamoa tomonidan yoki uning qo‘llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham xilma-xil bo‘lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarini jamoa o‘rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berishda ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Jazo maqsadga muvofiq bo‘lib, o‘quvchining aybiga, salbiy xatti-harakatlariga qarab beriladi. Jazo berish chog‘ida salbiy xatti-harakatning sabablari, uning jamoaga yetkazadigan zarari, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Jazo berish o‘quvchining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi kerak.

Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham jazo o‘quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha’nini yerga urmasligi, huquqini poymol etmasligi shart.

Tarbiyaning barcha metodlarini sharoitni, joy va vaqtini, shuningdek, ularning o‘zaro bir-biriga ta’sirini hisobga olgan holda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya metodlari tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada va hatto bir-biriga singib ketgan bo‘lsa-da, bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalari sirasiga, eng avvalo, tarbiya maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat kiradi. Bu tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantiradi.

O‘yin, o‘quv, mehnat, sport, ijtimoiy va boshqa faoliyat turлari shunday vositalar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasи

sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari, badiiy, ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalarini qo'llashda doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlari va usullaridan foydalanish taqozo etiladi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi, o'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyatni uyshtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnik vositalardan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchining ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rileyotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.

Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari tarbiya metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Tarbiya jarayoni deganda nimalarni tushunasiz?
2. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
3. Tarbiya jarayoni qanday munosabatlar va xususiyatlarni bar-taraf etish bilan qo'shib olib boriladi? Buni tushuntirib, asoslab bering.

4. Tarbiya jarayoniga ta'sir etuvchi tarbiya turlari haqida nimalarini bilasiz?
5. Tarbiya mazmunining asosiy g'oyalarini gapirib bering.
6. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Tarbiya jarayonining ko'pqirrali xususiyati mazmuni va mohiyatini aytib bering.
8. Tarbiya jarayonining uzoq muddat davom etish xususiyati deganda nimalarini tushunasiz?
9. Tarbiya jarayonining uzluksizligi xususiyatini misollar keltirib tushuntirib bering.
10. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini deganda nimalarini tushunasiz?
11. Tarbiya jarayonining qanday asosiy qonuniyatlarini mavjud?
12. Tarbiya jarayoni qonuniyatlarining har biriga qisqacha tavsif bering.
13. Tarbiya jarayonining asosiy tamoyillarini aytib bering.
14. Tarbiya metodi deganda nimalarini tushunasiz?
15. Tarbiyaning qanday metodlari mavjud?



### Foydalilaniladigan adabiyotlar

1. **I. A. Karimov.** Buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998.
2. **I. A. Karimov.** «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblari. 1999-yil 3-fevral.
3. **Abu Rayhon Beruniy.** Ruhiyat va ta'llim-tarbiya haqida. – T.: «O'zbekiston», 1992.
4. **A. Q. Munavvarov.** Pedagogika. – T.: «O'qituvchi», 1996.
5. **N. R. G'aybullayev** va boshqalar. Pedagogika. – TDMU. 2005.
6. **Z. K. Ismailova.** Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: «Fan», 2001.
7. **Z. K. Ismailova, A. A. Shayusupova.** Pedagogikadan ma'ruza-lar matni. – T.: TIMI, 2005.



## **OILADA TARBIYA ASOSLARI**

---

---

### **4.1. MUTAXASSIS SHAXSNING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYA**

#### **Oila – davlat tayanchi, saodat beshigi**

*«Oila – jamiyat negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim... Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi».*

**I. A. KARIMOV**

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go‘zal mo‘jizalaridan biri bo‘lib, u insonlarga xos «tabiiy-biologik» (jinsiy munosabatlar, farzand ko‘rish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro‘zg‘orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo‘li bilan qayd etish), ma’naviy (er-xotin, ota-onva bolalar o‘rtasidagi mehr-oqibat tuyg‘usi va boshqalar) munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, bilogik, ijtimoiy, axloqiy, maskuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi.

Oila bir gulshanki, unda muhabbat chechagi qiyg‘os ochilur.  
Oila bir bog‘dirki, unda orzu-umid daraxtlari meva tugadi.  
Oila bir qasrki, baxt naqshlari rango rangdir.  
Oila bir ummonki, his-tuyg‘ular to‘lqinlari ko‘zni quvontiradi.

Bu barcha millat oilalariga xos fazilatdir. Biroq oila mazmun va mohiyatiga ko‘ra har bir xalq, har bir millat uchun o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Oila qurish va uning mustahkamligini, farovonligi va barqarorligini ta’minlash insonning o‘z millati, avlod-ajdodlari, jamiyati oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, oilada o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, uning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘snilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliv darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Shuning uchun ham mamlakatimizda oila va uning muqadasligini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 1998-yil «Oila yili», 1999-yil esa «Ayollar yili» deb va shuning uзвии davomi sifatida 2000-yil «Sog‘lom avlod yili» deb e’lon qilindi.

Oliv Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan «Oila Kodeksi» esa oilalarning mustahkamligini ta’minlashda, ularning huquqiy manfaatlarini muhofaza etishda huquqiy kafolat bo‘lib hisoblanadi.

Huquqiy jihatdan kafolatlangan oila o‘z burchlarini ham unutmasligi lozim. Shulardan eng asosiysi, oilani yaxshi oila qilib ko‘rsatuvchi fazilatlardan biri – farzandlarni oila qurishga tayyorlashdir. Darhaqiqat, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash oilalarning mustahkamligini ta’minlashning muhim shartidir. Shu bois ham «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da xuddi mana shu masalaga alohida urg‘u berilgan. Ya’ni:

- oila oilaviy an’analarni hamda ma’naviy-axloqiy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchi;
- jamiyatning eng kichik bir qismi bo‘lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlari o‘sishini va sog‘lom turmush tarzini ta’minlovchi;
- bolaning fe’l-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;

— hayotning barcha jahbalarida yosh avlodning doimo maslahatchisi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatguvchisidir, — deyiladi.

Demak, oila poydevorining mustahkamligi jamiyat poydevori va binosini puxta qilib qurishni ta’minlashning asosiy shartidir, uning moddiy va ma’naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat farovonligining negizi hisoblanadi. Zero, «oilan farovonligi milliy farovonlik asosidir».

Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligidan so‘ng oila farovonligini ta’minlash hukumatimiz faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Buning uchun oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq barcha masalalarni o‘zida mujassam etgan quyidagi yo‘nalishlarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda:

— oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarini huquqiy himoya qilishni ta’minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

— oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a’zolarining sog‘ligini muhofaza qilish va bilim darajasini oshirish uchun imkoniyatlarni yaxshilash;

— oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a’zolarini ish bilan ta’minlash darajasini oshirish, ro‘zg‘or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta’minlangan oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

— oilaning ma’naviy-axloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

— oilaning sog‘lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

— oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko‘rsatuvchi statistika hisobotini to‘plash va takomillashtirish.

Darhaqiqat, mustaqillikdan so‘ng qisqa davr ichida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy ma’rifatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko‘p bolali, kam ta’minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni,

qarovchisiz keksalar, yolg‘izlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilada ma’naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi:

Nega oila masalalariga, uning mavqeyini mustahkamlashga bunchalik katta e’tibor berilmoqda? Xo‘s, oilaning paydo bo‘lishi, uning taraqqiyot bosqichlari, oilani shakllantirish bilan bog‘-liq jarayonlar haqida fan nima deydi?

Har bir oilaning uzoq tarixga va chuqur ildizga ega bo‘lgan tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos betakror xususiyatlari kishilik jamiyatni taraqqiyotida muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Manbalarning ko‘rsatishi va tadqiqotchilarining fikricha, kishilik jamiyatni paydo bo‘lishining dastlabki davrlarida guruhiy nikoh, ya’ni poligamiya (ko‘p nikoh) asosida erkak va ayol tartibsiz jinsiy munosabatda bo‘lgan holda turmush kechirishgan. Keyinchalik esa erkak va ayolning turmush tarzi matriarxal, so‘ng patriarxal hukmronligi asosiga qurilgan. Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi, jamiyatning o‘zgarishi, bu o‘zgarishlarning insonlar ongiga ta’siri, shu asosda ular fikrlashining o‘sas borishi oila va oilaviy munosabatlarning shakllanishiga olib kelgan.

Xo‘s, hozirgi zamon o‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? U uzoq o‘tmish oilalardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Oila jamiyat, tabiat qonun-qoidalari asosida barpo etilsa va yashasa-da, oiladagi er-xotin, ota-onasi va farzandlar, qaynona-qaynota, qayin uka va singillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar oila an‘analari va qadriyatlari borasida mustaqil makon bo‘lib qolaveradi. Lekin u yoki bu tuzum, davlat yoki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, maskuraviy, ma’naviy-axloqiy boradagi ustuvor g‘oyalari bu munosabatlarga bilvosita yoki bevosita, ijobiy yoki salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi.

Oilaning o‘ziga xos qator vazifalari mavjud bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri – **reproduktivlikdir**, ya’ni farzand ko‘rish, avlodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta’minlashdan iboratdir. Oiladagi reproduktiv faoliyat er-xotin, qaynona-kelin, qaynota-kuyov o‘rtasidagi munosabatlarni yana-da mustahkamlaydi. Qon-qarindoshlar ichida mehr-muhabbat rishtalari qattiqroq bog‘lanadi. «Bolalik uy – bozor, bolasiz uy –

mozor» deganlaridek, bolalik uyda shod-u xurramlik, tinchlik-osoyishtalik hukm suradi. Bunday oilaning har bir kuni mazmunli, rejali va aniq maqsadli o‘tadi. Farzandsiz oila aksariyat hollarda notinch, omonat bo‘ladi.

Farzandsiz er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlар go‘yoki soxta, oilaga, atrof-muhitga, turmushga munosabatlari yuzaki, kelajakka intilishlari maqsadsiz bo‘lib, ular ota-onalik mehrmuruvvati hissiyotidan bebahra qoladilar. Quda-andalar o‘rtasidagi o‘zaro qarindosh-urug‘chilik rishtalari ham mustahkam bog‘lanmaydi. Bunday oilalarning taqdiri er-xotin o‘rtasidagi nikohning bekor qilinishi bilan tugashi mumkin.

Oilaning yana bir o‘ziga xos xususiyati uning **nuklearligidir**. «Nuklear» lotincha so‘z bo‘lib, «yadro» degan ma’noni anglatadi. Er-xotin va ularning bolalari oila deb ataladi. O‘zbek oilalari ko‘p bo‘g‘inli bo‘lib, aksariyat hollarda qaynona-qaynota, o‘g‘il va kelin, qayin aka, uka va qayin singil, opa, nevaralar birligida yashashadi. Bunday oilalar shu oilaning o‘zi uchun xos bo‘lgan o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarining mustahkamligi va shu kabi axloqiy qadriyatlarning keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, oiladagi kattalarning kelin, o‘g‘il va qizlariga oila saboqlarini, ro‘zg‘orshunoslik bo‘yicha tajribalarini, bola tarbiyalashdagi yutuqlarini o‘rgatishlari shu oila mustahkamligini ta’minalash uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Qaynota-qaynona bilan bir oilada yashaydigan kelin uchun baxt va saodat eshigi ochiqdir. Chunki boshqa oila sharoitida o‘sib tarbiyalangan qiz bola begona oilaga kelin bo‘lib tushadi. Har bir oilaning o‘z ichki tartib-qoidasi bo‘lib, unga amal qilgan, izzat-ikromini joyiga qo‘ygan kelingina shu oila a’zolari, shu avlod o‘rtasida hurmat topadi, tub qo‘yib, palak yozadi. Bu o‘rinda qaynona-qaynota o‘giti, tajribasi, ta’lim-tarbiysi, namunasi kelin uchun mayoq hisoblanadi. Xalqimiz o‘rtasida «Qarisi bor uyning parisi bor», «Qaynonasiz kelin masxara kelin», «Qari bilganini pari bilmas» kabi maqollar bejiz paydo bo‘lmagan.

Oilaning eng muhim vazifalaridan biri **iqtisodiy-moliyaviy xo‘jalik faoliyatini to‘g‘ri yuritish** hisoblanadi. Katta jamiyatning o‘z iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy masalalari bo‘lganidek, oilaning ham o‘ziga yarasha iqtisodi, budjeti, kirim-chiqimi, daromadlari kabi moliyaviy jihatlari mavjud. Oila a’zolarining daromadlarni

rejali sarflashi, kundalik turmush uchun zarur bo‘lgan ro‘zg‘or asbob-anjomlarini, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlarini me’yor bilan xarid qilishi, tejamkorligi, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasligi shu oilaning har tomonlama gullab-yashnashi uchun zamin yaratadi. Oila iqtisodini rejalahtirish, undan oqilona foydalanimish oila boshliqlaridan juda katta boshqaruvi, tadbirkorlik va rahbarlik mahoratini talab etadi. Albatta, bu o‘rinda oila boshliqlarining hayotiy tajribasi, nazariy va amaliy bilimi, ishbilarmonligi, tadbirkorligi oilaning boshqa a‘zolariga namuna bo‘lmog‘i zarur. Chunki har bir oila o‘z moliyaviy mavqeyi jihatidan alohi-da daxlsiz saltanatdir. Bu saltanatning moliya vaziri – ota, o‘rinbosari esa onadir.

Oilaning muhim vazifalaridan yana biri – **tarbiyadir**. Oila – tarbiya maskani. Aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Ota-onsa o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar ona suti, oila a‘zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan purhikmat so‘zlar oila tarbiyasining negizini tashkil etadi.

Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma’naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o‘rinda ota-onsa – san’atkor, bola – san’at asari, tarbiya jarayoni esa san’atning o‘zidir. San’at asarining muvafaqiyati, jozibadorligi, umrboqiyligi san’atkorning mahorati, savyasiga bog‘liq.

Oilaning vazifalaridan yana biri **dunyo voqealaridan voqiflik** bo‘lib, uning mazmunini oila a‘zolarining o‘zaro aloqalari, ommaviy axborot vositalari bilan oila a‘zolari o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’minalash (bu o‘rinda o‘scha vositalar orqali e’lon qilin-gan materiallarni muhokama qilish nazarda tutilyapti), tevarak-atrofdagi tabiatni, ijtimoiy muhitni idrok qilish kabi masalalar tashkil etadi. Keyingi yillarda yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari, matbuotning ta’siri katta bo‘lmoqda. Yoshlarning ko‘rgan-eshitgan, o‘qigan narsalarini o‘zlashtirishlarida va tegishli xulosalar chiqarishlarida oila vositachilik vazifasini bajarishi lozim.

**Bo'sh vaqt ni samarali tashkil etish** ham oilaning asosiy vazifalari-dan biridir. Bo'sh vaqt jamiyatning muhim ijtimoiy qadriyatları-dan biridir. Oilada bo'sh vaqt ni faol tashkil etish, ya'ni kitobxon-lik, mehnat, shuningdek, muzey, kino, teatr, konsert va tarixiy obidalarga, qadamjolarga sayohatlar uyuştirish va boshqalar oila barkamolligini ta'minlashning muhim vositasidir.

O'zbek oilasiga xos bo'lgan yana boshqa xarakterli xususiyat-lar mavjudki, ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat dara-jasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda, ya'ni oilaning ko'p bo'g'lniligi (oilada bobo, buvi, o'g'il-kelin, nevara-chevaralarning birga yashashi), bolajonlik, serfarzandlik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila budgetining ota-onan tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, bo'ysunishi, oilada erkakning muhim rol o'ynashi, ota-onaga nisbatan munosabatning alohida ahamiyat kasb etishi, ayol-larga nisbatan hurmat, ularni avaylab-asrash hissining kuchliligi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish har bir oila a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib-o'sgan joyga nisbatan alohida mehr-muhabbat tuyg'usining zo'rligi, o'rtoqlashishning an'ani-viyligi va boshqalar.

**Har bir ota-onaning vazifasiga** oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy bar-qarorligi, farovonligiga erishish, oilada bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, jismoniy va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, bo'sh vaqt ni unumli o'tkazishga erishish hamda giyohvandlik, maishiy noplilik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi.

Oilada kim nima bilan band va qanday ishlar bilan shug'ullanishi bir-biriga ayon bo'ladi. Deylik, o'g'illardan biri uyga o'z vaqtida kelmaydigan odat chiqara boshladi. Buni, albatta, dastlab, aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik esa ona sezib qoladi. Ota bilmasligi mumkin.

Ona, aka yoki opalar o'sha noxush voqeja va hodisaning, o'g'il yoki qizning nojo'ya xatti-harakat qilishi yoxud noto'g'ri yo'lga kirishining oldini olishlari zarur. Bu ishni u sababsiz kech kelgan birinchi kundanoq boshlash kerak.

Agar onaning kuchi yetmasa, buning uddasidan chiqa olmasa, darhol otasini yordamga chaqirishga to‘g‘ri keladi. Bu vazifani aslo kechiktirish mumkin emas. Agar kechikilsa, oqibati juda og‘ir bo‘lishi mumkin. Bu bilan oilada bola tarbiyasida o‘ta ehtiyot bo‘lish, pinhoniy nazoratni yo‘lga qo‘yish lozim, degan fikrni ilgari surmoqchimiz.

Zotan, mahallada bir oila notinch bo‘lsa, unda urush-janjal ko‘paysa, butun mahalla bezovta bo‘lishi mumkin. Mahallada bir oila maishiy buzuq bo‘lsa, demak, mahalla obro‘yiga putur yetadi. Shuning uchun bir oiladagi noxushlikni ota-onal eplay olmasa, shu oilaga mahalla yordam qo‘lini cho‘zishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, oila jamiyatning asosiy negizi bo‘lib, uning mustah-kamligi va farovonligidan jamiyat manfaatdordir. Darhaqiqat, donolarimiz ta‘biri bilan aytganda, «Oila – jamiyatning dur-u gavharidir». Ushbu dur-u gavharning musaffoligi, atrof-muhitga estetik ta‘sirchanligi, odamlar muhabbatiga doimiy sazovorligini ta‘minlash oilaning har bir a’zosidan juda katta mas’uliyat talab etadi. Oila deb atalmish muqaddas sultanatning toptalishi, buzilishiga yo‘l qo‘yishga, uning sha’nini bulg‘ashga hech kimga huquq berilmagan. Chunki oila – davlat tayanchi, baxt va saodat beshigidir.

## **4.2. OILAVIY TARBIYADA O‘ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA AN’ANALARI**

Yurtimizda mustaqillikka erishganimizdan keyin tarixiy haqiqat va adolatni tiklash uchun umumxalq harakati boshlandi. Ming yillar davomida yaratilgan, xalqimiz qoni va joniga aylangan ma’naviy durdonalarga yangicha qarash boshlandi. Milliy an’analarning qadri ko‘tarilishi kerakligi e’tirof etildi, bir so‘z bilan aytganda, zo‘rlik va ongsizlik oqibatida berkitilgan ezgulik buloqlari ko‘zini tozalashga kirishildi.

Ilgarilari milliy an’analari va udumlarga hadiksirab qaralardi, uning tarbiyaviy xazinalaridan ham qandaydir «illat» qidirilardi. Hayotbaxsh xalq an’analari kamsitilardi. Ba’zi urf-odat va udumlarga diniy tus berilib, hayot sahnasidan tamom supurib tashlangan edi. Ota-bobolarimizning va allomalarimizning qim-

matli pand-nasihatlari eskilikka yo'yilib, qadri toptalgan edi. Momolarimiz aytgan hikmatomuz ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati e'tibordan qola boshlagan, ayollar rohatbaxsh allalarini unuta yozgan edilar.

Bir yarim ming yillik islom qonun-qoidalari asosida turmush kechirib kelgan xalqimiz hayotiga yevropacha turmush tarzining tazyiq orqali tattbiq etilishi xalqimiz ongida va turmushida to'qna-shuvsalar va ziddiyatlar keltirib chiqardi. Xalq ikki o't orasida kuyib-yondi: bir tomonda ota-bobolarning ming yillardan beri amal qilib kelayotgan an'analarini va urf-odatlari, to'ylar, bayramlar, marosimlar, ikkinchi tomonda ma'muriy buyruqbozlik, «siyosiy ziyraklik» asosida zo'r lab tiqishtirilgan «yangi urf-odatlar» — nikohni komsomolcha o'tkazish, qadah ko'tarib, ko'pchilik oldida «gorko» deb behayolarcha o'pishish, kelin-kuyovlarning raqsga tushishi, ota-onasi, qavm-qarindoshlar janozasiga qatnashmaslik va hokazo. Yevropacha madaniy hayotga tez ko'niktirish uchun bir yarim ming yillik tarix, ma'naviy meros bitilgan alifbo ham shosha-pisha o'zgartirildi. Kaltabinlik shu darajaga borib yetdiki, arab alifbosida bitilgan kitoblarning hammasi diniy deb yo'qotildi. Xullas, qalb ehtiyoji sanalgan urf-odatlar va an'analar ham, ma'naviy xazina durdonalari ham, hur fikrli xalq farzandlari ham yo'q qilindi.

Bugun asossiz ravishda unutib yuborilgan asriy qadriyatlarimizni tiklashga urinyapmiz. Xalq an'analarini madaniyatimizning bir qismi sifatida jamiyat uchun chinakam xizmat qilishini istayapmiz. Nega? Bunga to'liq javob berish uchun an'ananing o'zi nima ekanligiga javob izlab ko'raylik.

An'ana nima?

«**An'ana**» — asli arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o'tib, davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. An'ana ijtimoiy va madaniy merosdir. Ular iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovar, ilmiy, oilaviy an'analar sifatida jamiyatda, ijtimoiy guruh va sinflar orasida keng yoyilgan. Shuning uchun ijtimoiy hayot va an'analarini o'rganish, ularning mazmunini bilish odamlarning xulqi va xatti-harakatlariga ta'sir etishini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lif-tarbiya ishlarida xalqimizning eng ilg'or, hayotda o'zini oqlagan an'analarini oila, maktab va mehnat jamoalarida qo'llash, ulardan foydalanish kabi vazifalar hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Shu kunlarda, ayniqsa, vatanparvarlik, millatlararo do'stlik, ekologik tarbiyaga doir an'analarini oilaviy tarbiya jaryoniga tatbiq etish, hozirgi davr avlodlarini xalq pedagogikasining xalqchil ko'rsatmalari asosida tarbiyalashni keng qo'llash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda necha millat, necha xalq bo'lsa, hammasining o'ziga xos turmush tarzi, o'tmishtayoti va kelajagi bilan chambar-chas bog'liq an'analarini mavjud. O'zbek xalqining ham urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lif-tarbiya, madaniyat an'analarini moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi, deganlaridek, hozirgi va kelajak avlodlarning bu an'analarini chuqur bilishi ma'naviyatining mag'zi to'qligi omilidir. Bu hamisha, hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan haqiqat. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq». («Haqiqat sovg'alari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning «Savdi ta'lif», Qori Niyoziyning «Hayot maktabi», Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarlarida Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizning ota-onani hurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug'lash, farzandga mehrli va fidoyi bo'lish kabi fazilatlari dunyoga tanilgan bo'lsa ajab emas.

Xususan, inqilobdan keyingi dastlabki yillardayoq ta'lif-tarbiya, ma'rifat va madaniyat borasidagi asl xalq tarbiyashunosligining ibratli tomonlari yuksak baholangan. Xususan, Rossiya pedagog-olimlari bolaga muhabbat, bolaga diqqat-e'tiborni Sharq xalqlaridan o'rganish kerakligini e'tirof etganlar. Bu, o'z navbatida, Sharq xalqlarining asriy an'analarini chuqur o'rganish vazifasini keltirib chiqarardi. Bu masalaga bo'lgan qiziqish avvaldan ma'lum edi. Masalan, inqilobdan oldin ham Turkiston xalqlari-

ning urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlar va shunga o‘xhash ko‘plab an’analari bir qancha rus etnograflarining ishlarida aks etgan.

Umuminsoniy oilaviy urf-odatlar va an’analarni chuqur o‘rganish, ularni tahlil qilish, turkumlashtirish, ularning paydo bo‘lish yo‘llari, evolutsion taraqqiyotini bilish, aniqlash, ilmiy asoslangan g‘oyalarni ilgari surish va shular asosida an’analardan foydalanish yo‘llarini tavsiya etishni hayot talab etmoqda. Bularning hammasi kelajak avlodni tarbiyalashda amaliy yordam beradi.

Qadim zamonlardan, hatto o‘zbek xalqining yozuvi bo‘lma-gan paytlardanoq yosh avlodni tarbiyalash, asosan, oilada amalgamoshirilgan. Bunda tabiiy va ijtimoiy omillar hal qiluvchi o‘rin tutganligi shubhasiz. Xalq pedagogikasi hamisha yaxshi samara bergen. Shuning uchun ham xalqning tarbiyaga oid bilimlarini chuqur o‘rganish, tarbiya natijalariga asoslanib, ularning asl manbalariga, tarbiya sirlariga nazar tashlash bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Har bir xalq o‘zining milliy an’analariiga asoslangan tarixiy madaniyati va turmush tarziga ega.

An’ana xalqimizning asrlar osha to‘plagan milliy boyligi bilan, shuningdek, uning yangi sharoitda yangi mazmun bilan boyitilishi, yangidan-yangi an’analarning vujudga kelishi bilan qimmatli va hayotbaxshdir. Masalaga shunday yondashilgandagina an’analar insonlarning turmushi va madaniyati asosi sifatida hozirgi zamon kishilari axloqiga ta’sir etishi mumkin.

An’analarning vujudga kelishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir. Unda xalqning dono fikrlari, axloq mezonlari, insonni hurmatlash va qadrlash o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham yosh avlod ajdodlarimiz tomonidan tarixiy sharoitda vujudga kelgan ilg‘or an’analarni o‘zlashtirishi, unga rioya etishi, boyitishi nihoyatda zarur.

Hayotda mazmuniga ko‘ra ilg‘or umuminsoniy, shakliga ko‘ra milliy an’analar qaror topmoqda. Eski va yangi an’analar qarama-qarshiliklar jarayonida saralanadi, sayqal topadi. Ayrim an’analar qanday bo‘lsa, o‘sha holida, ko‘rinishida uzoq vaqt saqlanib qoladi, boshqalari o‘z ko‘rinishlarini o‘zgartiradi, uchin-chilari esa yangilariga uyg‘unlashadi, takomillashadi.

Oilaviy an’analarga bolalarning tug‘ilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar, urf-odatlar, bolalar tarbiyasiga taalluqli bo‘lgan va umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan amaliy maslahatlar, qoidalar, metodik usullar va vositalar kiradi. Ana shu xususiyatlariga ko‘ra oilaviy an’analalar nisbatan yashovchandir. Ayniqsa, umumxalq ko‘rinishidagi oilaviy an’analarning umri boqiydir. Urf-odatlar qancha hayotiy, xalqchil, qancha keng tarqalgan bo‘lsa, u xalqqa shuncha tez singadi, shuncha uzoq yashaydi. Masalan, hozirgi kunda mavjud bo‘lgan an’analarning ko‘pi uzoq tarixga ega. Biroq ular o‘z davrida qanday yaratilgan bo‘lsa, shundayligicha qolgan deb bo‘lmaydi. Hayot ularga o‘zingning yangi-yangi xususiyatlarini, davr silsilasini kiritgani aniq. Har davrning vujudga keltiradigan yangi an’anasida yangi avlod vakillarining milliy xususiyatlari, shuningdek, ularning o‘tmish haqidagi yorqin xotiralari, mehnatkashlar ommasining kelajak uchun intilishi o‘z aksini topib boradi. Oilaviy an’analalar ham bundan mustasno emas.

Boshqa xalq an’analari kabi oilaviy an’analarda ham shu xalqning tarixi, uning turmush sharoiti va hayot tarzi bilan bog‘liq o‘tmishi va kelajagi aks etadi.

Shu ma’noda o‘zbek xalqining oilaviy an’analari qimmatli va azizdir. Ular faqat mazmuniga ko‘ra qiziqarli bo‘libgina qolmasdan, balki bolalar va yoshlarni mehnatga jalb qilishdagi tarbiya usullari va shakllari bilan ham hayotbaxshdir. Yangi davr, yangi sharoitda ular yangicha mazmun bilan boyib boradi.

O‘rtal Osiyoning boshqa xalqlarida bo‘lgani kabi o‘zbek xalqining inqilobdan oldingi hayoti haqida so‘z ketganda, bironata oliv o‘quv yurtining bo‘limgani haqida ko‘p gapiriladi. Bu faktni inkor etmaganimiz holda, boshqa Sharq xalqlari kabi o‘zbek xalqida ham avlodlar tarbiyasiga ta’sir etuvchi, kishilarni odamilik, egzulikka yetaklovchi «Xalq dorilfununlari» bo‘lganini, ularning xalqqa ta’sir kuchi g‘oyat katta bo‘lganini e’tirof etmoq-chimiz. Biz azal-azaldan xalqimizda ko‘pchilik ishtiroki bilan o‘tadigan hasharlar, bolalarning turli o‘yinlari, bolalar ijodi, choyxona suhbatlari, uchrashuvlar, gap-gashtaklar, xalfanalar-u to‘y va ma’rakalar, mavsumiy bayramlar – gulbarra, lola sayillari, «boychechak» aytish, qovun sayillari, «yangi mehmon» tug‘ilishini nishonlash, qizlar majlisi, kelinlarning qaynota, qaynonalar

oldidagi «yuz ochdilari», «kelin salomlari», sumalak, echki o'yini, uloq o'yini, kurash, mehmonda bo'lish, mehmon kutish kabi ko'plab marosimlarni nazarda tutyapmizki, bularning barchasi xalq tarbiyashunosligining durdonalari sifatida avlodlarni o'zbek xalqiga xos «o'zbekona», «sharqona» tarbiyalashda muhim rol o'ynagan.

Xalq pedagogikasining umrboqiyligi, o'lmasligiga sabablardan yana biri uning avloddan-avlodga yetkazish shaklining o'ziga xosligidir. Hatto xalqimiz hozirgidek ommaviy axborot vositalariiga ega bo'lмаган qadim zamonlarda ham xalq pedagogikasi xalq og'zaki ijodiyoti yo'li bilan qanot qoqqan. Uning tarbiyaviy ta'siri bolalarga ona allasi bilan singdirib borilgan.

O'zbek xalqining asrlar mobaynida to'plagan xalq og'zaki ijodi xazinasi g'oyat boy. U xalqimiz ma'naviy madaniyatining oltin xazinasi hisoblanadi.

Keksa avlod vakillari hayot tajribalari asosida to'plangan, shakllangan dono fikrlarini quyi avlodlarga og'zaki hikoya, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq, matallar shaklida singdirishga, hikmatlari bilan xalq qalbiga kirib borishga intilgan. Xalq ertaklari, topishmoq va matallar orqali bolalarni ota-onalarining, kattalarning maslahatlariga diqqat-e'tibor bilan qulq solishni o'rgatgan, ertak qahramonlaridan namuna olishga undagan.

Ertaklar faqat bolalargagina ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki ota-onalarning o'ziga ham, ularning hayot tarziga, qarash va ishonchlariga, axloqiy qiyofalariga ham ta'sir etadi.

Xalq xotirasida saqlanayotgan, avloddan-avlodga o'tib kela-yotgan eng yaxshi ertak va dostonlar, maqol va matallar, ashula va topishmoqlar bolalarni tarbiyalaydi, yaxshilikka, mehnat qilishga va haqgo'ylikka undaydi. Xalq og'zaki ijodida inson hayotining barcha qirralari aks etgan. Ularda ota-onalarning bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish borasidagi yo'l-yo'r iq va usullari ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham hozirgi paytda tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi xalq og'zaki ijodiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Xalq og'zaki ijodida bolalarni bosiqlikka, sofдillikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardagi gerdayish, ichiqoralik, chaqim-chilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan. «Manmanlik qilma, netarsan, obro'yingdan ketarsan», «Sen o'zingni maqtama, seni

birov maqtasin», «Egilgan boshni qilich kesmas», «Mevali daraxtning mevasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning boshi shunchalik pastga egiladi», «Baxilning bog‘i ko‘karmas», «Birovga go‘r qazisang, o‘zing yiqilasan», «Egri o‘ltirib, to‘g‘ri gapir», «Ko‘rpangga qarab oyoq uzat» singari xalq maqollarida pand-nasihat ifoda etilgan.

Ko‘plab maqol va matallarda bilimli bo‘lish ulug‘lanadi, bilimsizlik qoralanadi. «Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni», «Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq», «Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar», «Ko‘p o‘qigan – ko‘p bilar», «Olim bo‘lsang, olam seniki» va hokazo.

Vatanparvarlik, vatanni sevish mavzusi ham maqol va matalarda aks etgan. Masalan, «Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l», «Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas», «Elga qo‘shilganning ko‘ngli to‘q, eldan ajralganning beti yo‘q».

Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasi an’analar, ertak, maqol, topishmoq va matallar shaklida o‘z ifodasini topgan va u tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan. Ayniqsa, inson va uning tarbiyasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash, bolalikning yosh davrlari, ularning dangasalik va injiqqliklari, o‘yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal, maqol, aforizmlar yaratilgan bo‘lib, ular xalq pedagogikasi sabog‘ining yorqin namunasidir.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida, ularning bolalari bilan munosabatlari, onaning madaniy, tarbiyaviy ta’siri, donoligi atroflicha yoritilgan. Masalan, oilada hamma kishi bir kishiga – otaga itoat etgan. Otaning yoki onaning gapi ikki qilinmagan. Otaning izmidan chiqish, buyrug‘ini bajarmaslik, otaga gap qaytarish, uning ko‘ziga tik boqish gunoh hisoblangan. Ota farzandining nojo‘ya ishi, qilig‘i, gapi, qilmishi uchun haqorat qilishi, so‘kishi, hatto urishi mumkin bo‘lgan. Lekin farzand otaga tik boqmagan, otaga yoki onaga qo‘l ko‘tarmagan. Shu sababli ham bunday tartibli oilalarda bebosh o‘g‘il, nopol qiz bo‘limgan. Hadisda yozilganidek, «Otaga itoat qilish – Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish Tangri oldida gunohkor bo‘lish bilan barobardir».

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, xalq donishmandligi, an’analar avlodlardan-avlodlarga o‘tish jarayonida shakl jihatidan

o‘zgarishlarga uchraydi, lekin o‘z mazmuni, tarbiyaviy ta’sirini yo‘qotmasdan, hozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qiladi. Xuddi shu ma’noda xalq pedagogikasini ilg‘or tarbiya g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, oilaviy tarbiyada qo‘llanilgan an’analarni yildan-yilga shakllanib borayotgan yangilari bilan boyitish, yurtimiz uchun sadoqatli yoshlarni voyaga yetkazish davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

### ***Xalq tajribasida tarbiya uslubi***

Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek oilalari bolalar tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagi har qanday xatti-harakatning ham oqibati to‘g‘ri baholangan. Yoshga monand ta’sir ko‘rsatish yo‘l va vositalari yaratilgan. Rag‘batlantirish turlaridan foydalaniłgan, kerak bo‘lsa, jazolangan. «Bir bolaga yetti mahalla otiona», deb beziz aytilmagan. Tarbiya borasida xatolikka yo‘l qo‘ygan bola, u kimligidan qat’iy nazar, jazolangan. Noaxloqiy xatti-harakatlarni qisqa, lekin o‘ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan «yomon bo‘ladi» iborasi bilan tavsiflangan.

Masalan, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan odobaxloq qoidalariga ko‘ra nonga hurmat ulug‘langan va non ushog‘i bexosdan yerga tushib ketsa, «yomon bo‘ladi» deb, uni qo‘lga olib ko‘zga surtib, o‘pib, og‘izga solingan yoki chetga olib qo‘ylgan.

Suvga tuflash «gunoh» bo‘ladi, «yomon bo‘ladi» deb tushuntirishgan. Qadimda hovuzlarning suvi haftalab, oy lab toza turgan. Biror kishi uni «harom» qilishga botinolmagan. Bolalarga bu «yomon bo‘ladi» iborasi orqali yetkazilgan.

Qozonga mushuk yoki it, sutga sichqon tegsa, o‘scha idishlar «harom» hisoblanib, toza suvda yaxshilab yuvilgan. Kechqurun qozon yuvuqsiz qolsa, «harom» hisoblangan... Kechasi uy supurilmagan, supurgi yotqizib qo‘ylgan... Ikki qo‘lini orqaga tirab chalqancha yotish, barmoqlarni zanjir qilish, oyoqlarni chalish-tirib, ko‘pchilik oldida uzatib o‘tirish odobsizlik sanalgan.

«Yomon bo‘ladi» iborasi orqali kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik tarbiyalangan, yetim bolalarga, boshiga musibat tushgan oilalarga ozor yetkazilmagan. Otaga tik qarash, ularga ters javob berish, qizlarga, umuman, xotin-qizlarga behayolik qilish «yomon bo‘lish»i yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bola-

ning yoshi, xatti-harakatlari, o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ayrimlari noaxloqiy xatti-harakatlarning yomonligi Qur’oni karim, hadislardan misollar keltirish, hikoyalari aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-onasi, aka-uka, opa-singil, qo‘ni-qo‘snilarning ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

Bunday axloqiy fazilatlar bola aqlini tanimasdan, gapirishni bilmasdan oldin ota-onalar turmush tarzida ifodalangan. Keyinchalik esa, «yomon bo‘ladi» iborasi orqali davom ettirilgan.

Masalan, musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa «yomon bo‘ladi», erta saharda eshik ochilmasa «yomon bo‘ladi», «kunlik rizqimizdan benasib qolamiz» iboralari bolalarni erta turishga undagan. Kechki payt quyosh botish arafasida uxlasa «yomon bo‘ladi» deb uqtirilgan.

Hayvonlarga, qushlarga tosh otma, ozor berma, «yomon bo‘ladi», mevalarni tishlab tashlama, «yomon bo‘ladi», qush uyasini buzma, ekinlarni payhon qilma, «yomon bo‘ladi» kabi iboralar orqali ona tabiatga hurmat, uni avaylab-asrashga o‘rgatilgan.

Saranjom-sarishtalik – uyning bezagi, tejamkorlik – farovonlik kaliti, to‘g‘rilik, halollik – ko‘ngil xotirjamligi ekanligini mehnatkash xalqimiz unutmagan va oilada bolalarni ana shunday fazilatlar asosida tarbiyalashga doimo vaqt topa olishgan, «Tomatoma ko‘l bo‘lur, tommay qolsa, cho‘l bo‘lur» xalq maqolining qimmati ham ana shunda.

O‘zbek xalqida bolalar bilan bog‘liq juda ko‘p yaxshi an’analor bor. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat ko‘rsatish, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish, ta’lim-tarbiya berish, ehtiyyotlash kabi insoniy qarashlarni targ‘ib qilib kelgan.

Oilada yangi insonning dunyoga kelishini barcha xalqlar qadimdan kishi hayotidagi eng quvonchli hodisa sifatida nishonlab kelganlar. Xalqimiz ana shu quvonchni ifoda etuvchi turli urf-odatlarni ijod etgan.

Qadimiylar urf-odatlardan ko‘ra, yangi chaqaloqning dunyoga kelishi faqat uning ota-onasi uchungina emas, balki hamma qarindosh-urug‘lari va mahalla-ko‘y uchun ham sevinchli hodisa hisoblangan.

Hozirga qadar saqlanib kelayotgan qadimiylar odatlardan biri yangi chaqaloq sharafiga mevali daraxt o‘tqazishdir. Bu bilan ular

yangi chaqaloqning dunyoga kelishini an'anaviy marosimiga aylantirib, tabiatga mehr-muhabbat uyg'otibgina qolmasdan, balki keyingi avlodlar hayotining farovonlashishini ham ko'zlashgan.

Xalqimizda faqat o'zining bolasinigina emas, umuman, o'ziga yaqin hamma bolalarni sevish, ehtiyojlash, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish, payti kelsa, sho'x bolalarni tartibga chaqirish, ona suti berib parvarish qilish an'analari avloddan-avlodga o'tib keladi. «Bir bolaga butun mahalla ota-onasiz» maqoli shundan dalolat beradi. Mahalladagi har bir bolaning yurish-turishi, tarbiyasi uchun hamma baravar mas'uliyat hissini sezgan. Ota-onasiz qolgan bolalarni boqishni butun mahalla o'z zimmasiga olgan. Emizikli bolalar uchun ko'kragida suti bor onalarni jalg etish g'oyat qadrlangan. Bu savob ish, oliyhimmatlik, bag'rikenglik deb hisoblangan. Boquvchisi yo'qlar ham mahalla e'tiboridan chetda qolmagan. Inson hayotdan ko'z yumganda butun mahalla uning janozasida qatnashgan.

Biz xalq og'zaki ijodi asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, xalqning nom qo'yish odatiga keng o'rinn berilganini ko'ramiz. Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqida shunday odat bor: bolalarga oiladagi katta, el-u yurt o'rtasida mo'tabar bo'lgan kishilar, e'tiborli qariyalar nom qo'yadilar. Bu qadimdan qolgan rasmdir.

Xalq madaniyatining eng muhim belgilariidan xushmuomallikka, hozirjavoblikka alohida e'tibor berilgan. Sharq xalqlari o'z bolalariga soxtalik, yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan, samimiy munosabatni ulug'lagan, o'rgatgan.

Xalq pedagogikasini chuqur o'rganar ekanmiz, mutafakkirlarning ta'lif-tarbiyaga, odob-axloqqa oid asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, o'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi – o'yin shaklidan juda oqilona foydalanagini ko'ramiz. O'g'il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir qilib, qizlarni mehr-shafqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalaydigan shunday an'anaviy o'yin shakllari bo'lganki, ularni ham etnografiyasini o'rganish yo'li bilan tiklash hamda amaliyotda qo'llash kerak. Tadqiqotchilar o'zbek xalq tarbiyasi tajribasidagi eng yaxshi uslub va usullarni olishni targ'ib qilib, o'zbek bolalari o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlarini ijobiy baholab, ularning tabiat bilan yaqin munosabatda yashashlarini, juda ko'p qiziqarli o'yinlarga egaligini, jismonan chiniqqan, chaqqon ekanliklarini o'z tadqiqotlarida qayd qilganlar.

Xalq pedagogikasida farzandni jismonan baquvvat, aqlan barkamol qilib tarbiyalash bilan birga, ularni hayotga, turmushning og‘ir-yengil sinovlariga tayyorlab borishga ham jiddiy e’tibor berilgan. Bunda ta’lim-tarbiyaning o‘git, nasihat, namuna bo‘lish, mehnatda chiniqtirish shakllaridan unumli foydalanilgan.

«Yoz kunlaridan birida bog‘da ko‘maklashayotgan bola otasidan so‘rabdi:

— Nima uchun mana bu daraxt qiyshiq, mana bunisi esa to‘g‘ri?

— O‘g‘lim, — deb javob beribdi ota, — bu daraxtning qiyshiq o‘sgan joylari qirqilib, parvarish qilib turilgan, ikkinchi daraxt esa o‘z holicha o‘sgan, shuning uchun u qiyshiq.

— Unday bo‘lsa, daraxtlarni doim parvarish qilish kerak ekan-da? — xulosa chiqaribdi o‘g‘il.

— To‘ppa-to‘g‘ri, — deb javob beribdi ota, — o‘g‘lim, daraxtlarni parvarish qilish ko‘p foyda keltiradi. Sen ham xuddi yosh niholga o‘xshaysan. Sening xatolaringni tuzatib tursam, yaxshi narsalarga o‘rgatsam, sen esa mening so‘zlarimdan chiqmasang, yaxshi odam bo‘lib voyaga yetasan. Agar sen mening gaplarimga qulq solmasang, xuddi mana bu ikkinchi daraxtga o‘xshab egri o‘sib voyaga yetasan, — debdi».

Ota-onalar — farzand fidoyilar. Bu sharq xalqlari, xususan, o‘zbek millatiga xos fazilatdir.

### ***Odobli va epli qiz – oila baxti***

«...Ularning harakatlari chaqqon, jo‘shqin, biroq hech qachon bir yoqlama emas. Qiz bolaning xatti-harakati yoshlik chog‘idanoq kuzatib borilgan, shu sababli qizning faqat xatti-harakatigina emas, balki xulqi ham tabiiydek ko‘rinmas edi. U, masalan, tez yurishni xohlaydi, dinning siquvi ostida sekin yurishga majbur. Unga oyoqni uzatib, qo‘lini ikki tomonga harakatlan-tirib yurish man etilganligi uchun ham uning yurishi alohida, faqat ayollarga xos xarakter kasb etgan. U oyoqlari bilan tez, lekin mayda qadam tashlaydi, shu bilan birga, faqat qo‘llarigina emas, balki yelkasi va kallasi ham deyarli qimirlamaydi. Bunday ko‘rinish va o‘zini yengillik bilan boshqara bilishi uning ma’naviy «man»ligini ifodalaydi.

Ko‘plab qizlar o‘zlarining taassurotlarini ba’zan lab va qosh harakatlari bilan oliy darajada ifodalaydilar. Masalan, savol bermoqchi bo‘lsa, u qoshini tepaga shunday chaqqonlik bilan biroz ko‘taradiki, natijada haqiqatan boshqa har qanday savol uning tomonidan ortiqcha ekanligi ayon bo‘ladi, chunki uning yuzi mukammal darajada o‘z-o‘zidan savol belgisiga aylanadi...»

Darhaqiqat, o‘zbek xonodonida qadim-qadimdan qizlar tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Ularning xulqi, odobi, tarbiyasi hamisha diqqat markazida bo‘lgan. «Bir qizga yetti mahalla ega», degan naqlning hozirgacha yashab kelayotgani esa qizlar tarbiyasi bilan keng jamoatchilik shug‘ullanganidan, bu masala ijtimoiy ruh kasb etganidan dalolatdir. O‘zbek xonodonida qizlar, birinchi navbatda, ota-onaga itoatda, kattalarga hurmatda bo‘lish ruhida tarbiyalanib, odobning nozik tomonlariga o‘rgatilgan. Shuning uchun ham ular har doim sernazokat bo‘lishgan, ayniqsa, mehmonlar oldida muloyim odob saqlashgan. Ular yoshlik chog‘lari danoq belgilangan xulq-odobni o‘zlashtirishgan. Masalan, qizlar o‘tirgan uyga tashqaridan ota yoki katta akalari kirib kelishsa, ular darrov o‘rinlaridan turib, salom berishga o‘rgatilgan. Kattalar bilan bo‘lgan muloqotlarda o‘zlarini vazmin tutishga, berilgan savollarga erkak kishining yuziga deyarli qaramay, gavdani biroz egib, osoyishta ohangda javob berishga undalgan.

Qiz bola bir yoshga yetganda ikki qulog‘ini teshib isirg‘a tashishgan. Ulg‘aygach, sochlarini mayda o‘rib, qirq kokil qilib orqasiga tashlab, boshiga do‘ppi kiyib yurishgan. Sochining ko‘pligi va uzunligi uning sog‘lom, odobli, go‘zalligi ramzi hisoblangan. Qiz bola yetti yoshdan oshgach, na otasi, na aka-ukalari o‘pib erkalatmaganlar. Uni akalari va ota-onalari bilan bir xonada yotqizilmagan va hokazo.

Tarixdan qizlar tarbiyasi bilan, asosan, onalar shug‘ullanganligini bilamiz. Onalar ijtimoiy foydali mehnatga keng jalb etilishi munosabati bilan o‘zbek oilalarida ota-onalarning tarbiya vazifalarida qayta taqsimlanish sodir bo‘ldi. Masalan, otaning qizlar tarbiyasiga faol aralashuvi oqibatida qizlar dovyurak, jangovarroq, cho‘rtkesar, so‘zamol, epchil bo‘lib tarbiyalanayotirlar.

Qizlar xarakteridagi bu o‘zgarish jarayoni shu qadar tez va shu qadar shiddatli bo‘ldiki, ko‘p vaqt o‘tmay oilalarda «qizlarni asliga qaytarish» muammosi ko‘ndalang turdi. Ayol qudrati jami

xatti-harakatda erkaklar bilan tenglikda emas, nazokat va mehr-shafqatda ekanini yoshlarga singdirish zarur bo‘lib qoldi. Bu borada yana sharqona, o‘zbeklarga xos odob-axloqni joriy etish, latofat, bosiqlik, mulohazalilik, andisha, o‘zini tuta bilishlikni tarbiyalash, xalq pedagogikasi durdonalaridan unumli foydalanish zarurligi borasida ko‘p gapirila boshlandi. Qizlar tarbiyasida ularning his-tuyg‘ulariga, tabiat va jamiyat oldidagi burchini teran tushunib yetishiga alohida ahamiyat berish kerakligi ta’kidlandi. Bularning hammasi oiladan boshlanadi.

### *Qari bilganni pari bilmas*

Keksalar haqida gap ketganda, biz ularni xonadonimiz farish-tasi, xayr-u barakasi, deb ataymiz. Xalq donoligi, ming yillik tajribalar, milliy an'analar qariyalarimiz ongida, faoliyatida, turmush tarzida jamlangan. Ular yosh avlodning ustozi, murabbiysi, hayot dorilfununidir. Donishmandlar qari bilganni pari bilmas, deb bejiz aytishmagan.

Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniqsa, benihoyadir. Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo‘lga qo‘yishda, chinakam xalqchil tarbiyani, oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar. Yoshlarga ta’sir etishning eng samarali shakllarini tanlaydilar.

Oila jamiyatning eng kichik o‘chog‘idir. Bu muqaddas dargohna kelajak kishisi kamolga yetadi. Keksalar, ko‘pincha, «Bug‘doy eksang – bug‘doy olasan, arpa eksang – arpa», deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo‘lishi bugun qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg‘ular, qanday orzular bilan to‘ldirayotganimizga bog‘liq. Hayotning achchiq-chuchugini totgan, sinovlariga bardosh bergen keksalarimizchalik bolalar tarbiyasiga katta mas’uliyat bilan qaraydigan kishi bo‘lmasa kerak. Ular o‘zları bilganni sidqidildan farzandlarga o‘rgatadilar, ayni paytda donishmandlik bilan yoshlarni yomon xulqlardan asrashga harakat qiladilar. Ular insoniyat abadiy zanjirida o‘tmishta erishilgan boy ma’naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetka-zuvchi bebaho xalqdir.

## ***Mehnat baxt keltirar***

Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi deb ataydi. Inson tarbiyasi, asosan, mehnatga bo‘lgan munosabatlariqa qarab belgila-nishi bejiz emas. Mehnat hayot demakdir. Mehnat baxt kalitidir. Mehnat tarbiyasi esa tarbiyaning tarzini, mehnatkashlarning tarbiyaviy faoliyati mazmunini tashkil qiladi. Hamma xalqlarning eng ilg‘or an’analari mehnat jarayonida paydo bo‘ladi, takomilla-shadi. Xalq ommasi har doim eng ilg‘or, yaxshi va ulug‘ narsalar ning ijodkori hisoblangan. Xalq hayotini, yashash tarzini o‘rgani-sh uchun ham mehnat an’analarni bilish lozim.

Mehnat an’analarning tarbiyaviy ahamiyati ulkanligini unutmaslik kerak. Chunki mehnatga munosabatni qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat an’analarning tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mehnat an’analari zamirida shaxsning axloqiy sifatlari – mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof qilmashlik, saxiylik, har bir so‘mning qadriga yetish, qahramonlik, mehnat baxt keltirishini anglash kabilar qaror topadi.

Bolalarning mehnatga muhabbat qo‘yib o‘sishida oiladagi ijtimoiy muhit juda katta rol o‘ynaydi. Bunda ota-onalar, barcha oila a’zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning axloqiy shakllani-shi mehnatsevarlik, ilmgaga intilish, o‘z xalqining an’analarni hurmat qilish, Vataniga sodiqlik, jasurlik, sadoqat, uni dushmanlardan himoya qila olish kabi tarbiya ko‘rinishlari bilan kamol topadi.

O‘zbek oilalarida bolalarning mehnatga mehr qo‘yishida qadimdan kattalar namuna ko‘rsatib kelganlar. Odatda, qizlar uyro‘zg‘or ishlarida onaga yordam berishgan, ovqat tayyorlashgan, ukalariga qarashgan, uyni sarishta qilib, tikish-bichishni o‘rganishgan, o‘g‘il bolalar esa ekin ekish, uni parvarishlash, yig‘ish, yanchish, hayvonlarni boqish kabi yumushlarni bajarishgan. Oila a’zolari yetishtirgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘ishda, ayniqsa, paxta, poliz ekinlari, uzum va mevali daraxt hosilini yi-g‘ib-terib olishda katta-kichik barobar ishtirok etgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning turli-tuman yo‘l va usullari, vositalari, manbalari mavjud. Bunday yo‘l va usullar rang-barang bo‘lib, u faqat tarbiyachining qarashlariga bog‘liq bo‘lmasdan,

balki bolalarning o‘ziga xos xususiyatlariga ham asoslangandir. Bu yo‘l va usullar xalq ijodi manbalarida o‘z ifodasini topgan. Bunday ijodiy manbalaridan biri xalq ertaklaridir. Masalan, bir ertakda ota oltin va‘da qilib bolasini mehnat qilishga qiziqtiradi, o‘zining shaxsiy namunasi bilan hunarning foydasi va afzalliklarini hikoya qilish orqali hayotga tayyorlaydi, tarbiyalaydi.

Namuna sifatida quyidagi ertaklarni tahlil qilaylik:

«Bir kambag‘al o‘limi oldidan o‘zining uch o‘g‘lini chaqirib, uzum ishkomlaridan birining tagiga oltin ko‘mganligini, lekin hozir aynan qaysisining tagiga ko‘mganligini eslay olmasligini aytibdi. Agar bolalari oltinlarni topib olishsa, boyib ketishlarini uqtiribdi va olamdan o‘tibdi. Aka-ukalar ota o‘limidan keyin oltin topish ilinjida zudlik bilan bir necha kun davomida bog‘ni bir boshdan chopcha boshlashibdi. Ular qancha chuqur kavlashmasin, oltinni topisha olmabdi. Yaxshi chopilgan yer va uzumzor kelgusi yili juda katta hosil beribdi. Hosilni vaqtida terib, sotgan aka-ukalar tezda boyib ketishibdi. Shunda ular otalari uzumzorga oltin ko‘mmaganligini, shu hiylasi bilan bog‘ga yaxshi qarash, parvarishlash lozimligini, halol mehnat qilishlari kerakligini aytganini fahmlab olishibdi».

Boshqa bir ertakda o‘jar, injiq bolani tarbiyalash masalasi olg‘a surilgan.

«Kunlardan birida ota yosh o‘g‘li bilan daladan qaytayotganda, yo‘lda yotgan taqani ko‘rib qolishadi va ota o‘g‘liga:

— Taqani ol! — deydi.

— Nimaga olaman? Bu menga kerak emas, singan taqa-ku, — deb javob beradi o‘g‘il.

Ota hech nima demasdan, taqani olib, yo‘lida davom etadi. Ular shaharga kirib kelishadi. Ota taqani temirchilarga sotadi va puliga holva sotib oladi. O‘g‘liga e’tibor bermagan holda holvani yeb, uyi tomon jo‘naydi. O‘g‘il ham holvani yegisi, totib ko‘rgisi keladi. Buni sezib turgan ota qo‘lidagi holvaning bir donasini atay yerga tashlab yuboradi. O‘g‘il darrov engashib holvani olib, og‘ziga soladi. Birozdan keyin ota yana bitta holvani yerga tashlaydi.

Shunday qilib, ular manzilga yetib kelgunicha o‘n martacha holva «tushib» ketadi va har safar bolasi uni terib, og‘ziga soladi. Nihoyat ota to‘xtab, qolgan holvani o‘g‘liga berar ekan, deydi:

— Ko‘rdingmi, bir marta yerga egilib, taqani olishga bo‘yning yor bermadi, dangasalik qilding, taqaning puliga kelgan holvani yerdan olish uchun esa o‘n martalab yerga egilding. Endi qulog sol, agar sen oson ishni og‘ir deb o‘ylasang, undan ham qiyinroq ishlarga duch kelasan, agar oz bilan qanoat qilishni o‘rganmasang, ko‘pni hech qachon qo‘lga kirta olmaysan».

Millatimizning donoligi shundaki, u bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga ola bilgan va oilaviy tarbiyani xalq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda olib borgan. Yana bir jihatga e’tiborni qaratmoqchimiz. Sharq xalqlari ishyoqmas, bekorchilarni hamisha qoralab kelgan. Shuning uchun ham oilada ishsiz yurishdan uyalish hissini tarbiyalashga alohida e’tibor berilgan. «Bekor turguncha, bekor ishla», «Ishlagan – tishlaydi, ishlagagan – kishnaydi», «Ishlagan xor bo‘lmas», «Yalqovlikning oxiri xorlik», «Bekorchidan xudo bezor» kabi maqollarda xalqning mehnatsevarlik ruhi aks etib, maqsadsiz hayot kechirish qoralangan.

Bir donishmand kishidan:

— Nimani esda saqlash va nimani unutish kerak? — deb so‘rashdi.

— Agar senga kishilar yaxshilik qilgan bo‘lsalar, har doim esda saqla, sen kishilarga yaxshilik qilgan bo‘lsang, unut, — deb javob bergen ekan donishmand.

Yana undan:

— Kim baxtli? Baxtning o‘zi nima? — deb so‘rashibdi.

— Kim eksa, tiksa va hosilini o‘zi yig‘ishtirib olishga muyassar bo‘lsa, shu kishi baxtlidir, agar o‘limidan oldin hamma narsani to‘plab olsa, baxtsizdir, — degan ekan.

Bu va shunga o‘xshash ibratlari hikmatlar, maqol va matallar, naqllardan ota-bobolarimiz o‘z tajribalarida juda oqilona foydalanib kelganlar. Ana shular haqida o‘ylaganimizda xalq hikmatlari, maqol va matallari beziz dunyoga kelmasligiga, ular xalq top-qirligini ifodalabgina qolmay, muhim voqeа, hodisalarining, ijtimoiy jihatlarning ko‘zguzi ekanligiga ham ishonch hosil qilamiz.

O‘zbek oilalaridagi e’tiborga loyiq udumlarning yana biri — ular bolalarni yoshligidanoq hunarga, ma’lum bir kasbga, umuman, mehnatga o‘rgatib boradilar. Ko‘p oilalarda yoshlarni, birinchi navbatda, biron hunarli qilishga harakat qilinadi. Hozir aksariyat oilalarda bolalarning maktabda yaxshi o‘qishiga, keljakda biron

oliy o‘quv yurtiga kirib tahsil olishiga intiladilar. Lekin shunday oilalar ham borki, ularning avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’anaviy hunarlar, kasblari mavjud: zargarlik, misgarlik, kulochilik, zardo‘zlik, kosibchilik va hokazo.

Bunday oiladagi bolalar yaxshi o‘qigan, oliy ma’lumot egasi bo‘lsalar-da, oilaning an’anaviy hunarini ham yaxshi egallaganlar, el ichida obro‘ topganlar.

Hunar egasi bo‘lish qiz uchun ham, yigit uchun ham xayrli ish ekanligi xalq og‘zaki ijodida o‘z ifodasini topgan. Masalan, «Ziyod botir» ertagini olib ko‘rsak. Ziyod botir kuni bilan o‘z otasidan hunar o‘rganadi. Oqibatda bola otasidan ham usta bo‘lib yetishadi. Bir kuni Ziyod botir o‘zi tayyorlagan o‘q-yoyni otasiga ko‘rsatadi. Otasi uni ko‘rib, juda hayratda qoladi. O‘q-yoyning qabzasiga ajoyib baytlar naqsh qilib yozib qo‘yilgan ekan. O‘q-yoyn shunday chiroyli chiqibdiki, uni qo‘liga olib ko‘rgan kishi yasagan ustaga tahsin o‘qimay iloji yo‘q ekan. Otasi juda xursand bo‘libdi va o‘g‘lining peshonasidan o‘pib: «Balli, o‘g‘lim, mening hunarimni o‘rganib olibsan, endi to umringning oxirigacha hech kimga muhtoj bo‘lmaysan», – debdi.

Ko‘pchilik oilalarda onalar uy bekasi sifatida uy-ro‘zg‘or ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanadilar. Oila boshliqlari oila budgetini to‘ldirish uchun qo‘srimcha ish topadilar. Ayollar ham, ko‘pincha, korxonalarning buyurtmalarini olib, uyda do‘ppi, qalpoq, yostiq jiddlari va hokazo buyumlar tikishadi. Ularning fikricha, bu faoliyat bolalar tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Ayollar bolalarini yoshiga, uquviga qarab ishga jalb qiladilar, mehnat, hunar har kim uchun sharaf ekanini ularga yoshiligidan singdirib boradilar. Bolalarning o‘zlari ham oila budgetiga yordam berayotganliklaridan, ko‘pchilikka naflari tegayotganidan xursand bo‘ladilar.

Oilada kasb-hunar egallash an’analarini davom ettirish sharafli ishdir. Bunga rioya qilayotgan oilalardan xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun yaxshi mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Yangi ish joylarida ular qiyinchilik bilmaydilar. Kishilar bilan muomala-munosabatda ham, kasblariga oid yangiliklarni so‘rab-surishtirishda ham ular tashabbuskor, ishda ancha ko‘zlari pishigan bo‘lgani uchun dadilroq bo‘ladilar.

## *Do'st bilan obod uying*

O'zbek oilalarida yosh avlodning do'stlik, ahillik, birlik ruhida tarbiyalanishiga qadimdan katta ahamiyat berib kelingan. Xalqning eng ilg'or vakillari do'stlikni doimo qadrlaganlar. «Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim», «Birlashgan kuch yengilmas», «Do'stni boshingga kulfat tushganda sina», «Kuch – birlikda» singari maqollarda xalq o'zining eng ezgu niyatlarini ifoda etgan. U noahilikni hamisha qattiq qoralab kelgan.

Xalq o'rtaida do'stlik haqida ertak va rivoyatlar ham ko'p to'qilgan. Masalan, bir otaning uch o'g'li bor ekan. Kunlarning birida u farzandlarini chaqiribdi. To'ng'ich o'g'liga bir novdani berib, uni sindirishni buyuribdi. U o'ylab-netib o'tirmay, novdani sindiribdi-da, otasiga uzatibdi. Ota ikkita novdani bitta qilib, endi sindirib ko'rishini buyuribdi. U sal qiynalibroq sindiribdi. Keyin ota to'rtta novdani uzatibdi. O'g'il harchand urinmasin, baribir, novdalarni sindirolmabdi. Shundan keyin ota:

— Ko'rdinglarmi, agar ahil bo'lsanglar, sizlarni hech kim yenga olmaydi, — debdi.

Ko'p xonadonlarda o'g'il va qizlar ana shu ertakda ilgari surilgan g'oya bo'yicha tarbiyalanadi, ya'ni ahil va inoq bo'lishga da'vat etib kelinadi.

O'zbek xalqining otashin farzandi Hamid Olimjon o'zining bir nutqida do'stlikni ta'riflab, elimiz dili dagi gapni aytgan edi: «Biz bir qorindan talashib chiqqan xalqlarning vakillarimiz. Bizning beshigimiz bir yerda bo'lgan. Qozoq onasining aytgan allasiga o'zbek bolasi ham uxlagan. O'zbeklar tojiklar bilan bir hovlida yashab kelganlar. Navoiyni turkmanlar xuddi o'zbeklar day yaxshi ko'radilar, qirg'izning to'yi o'zbeklarsiz o'tmagan. Bizning xalqlarimiz bir-biridan qiz olib, qiz berib, quda bo'lib kelganlar. Bizning bobolarimizning qabrlari bir-biriga juda yaqin qo'yilgan».

Oilaviy tarbiyada baynalmilal an'analarning xizmati kattadir. Respublikamiz oilalari kishilar jam bo'lgan makon bo'libgina qolmasdan, balki turmush tarzi, insonlarning o'zaro yordamiga asoslangan, odatlarimizning shakllanishi va rivojlanishi markazi hamdir.

Umummillat munosabatlariga asoslangan bunday turmush tarzi va munosabatlar kundan-kunga turli millatlarga mansub

baynalmilal oilalarning va yangidan-yangi an'analarning shaklla-nishiga, ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Buni alohida qayd etish o'rinniki, turli millatlarga mansub baynalmilal oilalar o'zlarining tuzilishi va yashash sharoitlariga qarab son va sifat jihatidan turli ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Turli millatlardan tashkil top-gan oilalar shahar va qishloqlarda istiqomat qilishmoqda, ularning oilaviy munosabat xarakterida turli millatga mansub tomonlari ko'p uchraydi. Ularning turmush tarzlarida oldingi an'analar ho-zirgi kunda vujudga kelayotganlari bilan ancha tez uyg'unlash-moqda. Bunday oilalarda tug'ilgan bolalar o'zbek maktablarida o'qishadi va o'zbek tilida bemalol gaplashadilar.

Shahar va shahar atrofida istiqomat qiluvchi ba'zi oilalarning farzandlari, odatda, rus maktablarida o'qishadi va oilada ham aksariyat rus tilida gaplashadilar. Lekin bundan qat'iy nazar, ular o'zbek tilini ham mukammal bilishadi. Shu sababli, bunday oilalarda har ikki millat vakillariga mansub milliy an'analar uyg'unlashgan bo'ladi. Lekin arim oilalarning farzandlari o'zbek tiliga nisbatan ko'proq rus tilida muloqotda bo'lishi, hatto o'zbek tilini unutayozish darajasiga ham borganlarini ko'rish mumkin. Bu, albatta, kechirilmas holdir. Bunday holatning davom etishi o'zbek milliy an'analarini va ularning tarbiyaviy ta'siridan bebahra qolishga, yigit va qizlarning urf-odatlar, mehr-oqibat, odob-axloq va boshqa ma'naviy qadriyatlardan benasib qolishlariga olib kela-di. Bunga, ya'ni bolalarning arosatda qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

#### **4.3. O'ZBEK XALQ MUTAFAKKIRLARI OILAVIY TARBIYA HAQIDA**

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston Respublikasida tarbiya borasida to'plangan va izohlangan tarbiya uslubi kamol topayot-gan yosh avlod ta'limi va tarbiyasida ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi. Mustaqillik sharofati bilan ko'zi berkitilgan buлоqlarga qayta hayot baxsh etilganidek, o'tmishta yashab ijod etgan olim-u fuzalo, muallim-u muallimalar, qisqasi, xalq mutafakkirlari ijodiga qiziqish kuchaydi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Forobi, Alisher Navoiylardan tortib XIX asrning oxiri, XX asrning ma'rifatparvarlari Ahmad Donish (1827–1897),

shoir Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat (1858–1909), satirik shoir Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy (1851–1905), Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) va boshqalar xalqimiz uchun tarbiya borasida qimmatli, ulkan va o‘lmas asarlar yaratdilarki, ularning mazmuni bilan to‘la tanishish vaqtি yetib keldi. Chunki nomlari zikr etilgan mutafakkirlarimiz va ularning asarlari xalqimizning moddiy va ma’naviy boyliklari hisoblanadi. Bizning bu boyliklar bilan g‘ururlanishga qonuniy haqqimiz bor. Ular xalqimiz tomonidan ming yillar davomida to‘plangan, tajribadan o‘tkazilgan tarbiya uslublarini barkamol inson kamoloti uchun, inson va uning tarbiyasi, insoniylik g‘oyalari uchun bo‘lgan intilishlarini to‘pladilar, targ‘ib etdilar. Biz ularning asarlari va faoliyatlariga oilaviy tarbiya muammolari nuqtayi nazaridan to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

O‘z davridagi fanning deyarli hamma sohalarida qalam tebratgan ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sino o‘zidan oldin o‘tgan olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy dalillarni va tajribalarni bir tartibga sola oldi.

U, ayniqsa, Arastu va Abu Nasr Forobiyning ilg‘or fikrlarini yanada rivojlantirib, inson aqlini ulug‘ladi, inson aqli olamning, koinotning sir-u asrorlarini bilishga, o‘rganishga qodir ekanligini isbotladi. O‘z zakovati, bilimi, buyuk ilmiy asarlari bilan jahondagi barcha xalqlarning hurmatiga musharraf bo‘lgan Abu Ali ibn Sino buyuk muallim ham edi. Uning «Donishnama» asari necha yuz yillar davomida tarbiyachilar uchun qo‘llanma bo‘lib keldi. «Donishnama»da ta‘lim-tarbiya, ilm-ma’rifat, insonning ruhiyati, axloq va odob kabi masalalar to‘g‘risida chuqur fikrlar ifodalangan.

Agar qadimgi yunon faylasuflari Platon va Arastular bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo‘yib, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat majburiyatiga ag‘darib, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanish jamiyat va davlat manfaati uchun zarur va foydaliroq deb ta‘kidlab, bu tarzdagi qarashlari bilan tarbiyani ota-onan gardanidan soqit qilgan bo‘lsalar, Ibn Sino buning aksini, ya’ni bola tarbiyasi bilan, avvalo, oila, ota-onan shug‘ullanmog‘i lozim, deydi.

Abu Ali ibn Sinoning tarbiyaga oid qarashlari deyarli barcha asarlarida o‘z ifodasini topgan. «Tadbir al-manozil» kitobida tarbiyaning asosiy uslublarini sanab ko‘rsatib, agar oila bu tarbiya

uslubini to‘g‘ri tatbiq eta olsa, qo‘llay olsa, farzandlar hayotlarida o‘z baxtlariga tez erishadilar, deyiladi. Ibn Sinoning ta’kidlashicha, oilada otaning tabiatan yumshoqko‘ngil, shirin so‘zli bo‘lishi bola tabiatini buzadi. Oilada bosh tarbiyachi otadir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, ota bolalar tarbiyasida qattiqqo‘l va hatto lozim bo‘lsa, jazo berishga qadar ta’sir ko‘rsatuvchidir.

Mazkur kitobning «Ayollarning yaxshi sifatlari» bo‘limida esa onalarning donoligi, bosiqligi, halolligi, kamtarligi kabi axloqiy sifatlarini ulug‘laydi. Uningcha, ayollar hamma yerda erkakning munosib hamrohi bo‘lishi bilan birga oila mustahkamligi hamda bolalarni tarbiyalashda uning asosiy yordamchisi hamdir.

«Tib qonunlari» kitobida Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasida onaning vazifalariga alohida e’tibor beradi. Jumladan, bola kamolotiga emizuvchi ayolning «g‘azablanish, qayg‘urish, qo‘rqish» kabi ruhiy kechinmalari zarar keltirishini uqtiradi. Mumkin qadar sipo, bosiq va chidamli bo‘lishi lozimligi maslahat beriladi.

Shu bilan birga, bola axloqining shakllanishida er-xotinning bir-biriga bo‘lgan munosabati, bir-birini hurmat qilishlari ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, buning uchun oila a’zolarining har biriga ma’lum vazifalar yuklatilgan bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Chunonchi, erkak kishi oilada boshliq vazifasini bajarganligi uchun u oilaning zarur talablarini bajarishi lozim, nimaiki va’da qilgan bo‘lsa, o‘z va’dasi ustidan chiqishi shart, deb uqtiriladi.

Ibn Sino bola tarbiyasiga oid o‘z fikr va mulohazalarini bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdan boshlashni lozim topadi hamda bolalarga yaxshi, munosib ism tanlashni otonaning dastlabki oliyanob vazifalaridan hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, alloma nafaqat tabib, faylasuf, olim, balki buyuk murabbiy ham edi. Uning asarlarida tarbiya, ayniqsa, oilada bolalarni sog‘lom, aqlli, axloqli, pok, mehnatsevar qilib tarbiyalashda ota-onalarning muqaddas burchi sanab ko‘rsatilgandir. Uning fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham bemalol qo‘llanma bo‘la oladi, barkamol insonni tarbiyalashda uning g‘oyalari aslo eskirmaydi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ma’rifatparvarlik harakatiga boshchilik qilgan buyuk shaxslardan biri Alisher Navoiydir. Uning adabiy merosi va ta’lim-tarbiya borasidagi xizmati shu qadar ulug‘ va muhim bo‘lganki, ular insoniyat ufqini yorib chiqib, umumbashariy mazmun kasb etgan.

Alisher Navoiy hayotiga nazar tashlagan kishi umr bo‘yi topgan-tutganlarini och-yalang‘ochlarga, yetim-yesirlarga, muhtoj shoir-u olimlarga ulashib bergani va ularga ota mehri bilan munosabatda bo‘lganligining guvohi bo‘ladi. Uning fikricha, insonning insoniyligi aql vaadolat bilan, halollik va poklik bilan faoliyatda bo‘lishidir. Shu sababli bolani yoshligidan kamol toptirishda ota-onalarning vazifasi muhim ekanligi, ularning o‘z farzandlari ta’lim va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga alohida e’tibor berishlari lozimligi ta’kidlanadi.

Yoshlarni ota-onani juda hurmat qilishga, ularni qadrlashga chaqiradi:

Biri erur makrumati validayn,  
Bilki shuning qilmog‘idur farzi ayn.  
Bu ikkining xizmatini bir bil:  
Har necha ifrat esa, taqsir bil.

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a...  
Tun-kununga aylagil nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh!

So‘zlaridin chekma qadam tashqari,  
Xatlaridan qo‘yma qadam tashqari!  
Bo‘lsun adab birla bori xizmating,  
Ham qil adab «dol»i kabi qomating.

Navoiy ayollar masalasida ham jasur fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. U o‘z zamonasidagi ayollarning o‘ta ayanchli ahvoliga yurakdan achinadi, ularning xo‘rlanganliklaridan shikoyat qiladi, ayollardagi qobiliyatni, mahoratni, uquvni madh etadi:

Yuz tuman nopol erdin yaxshiroq  
Pok xotinlar oyog‘ining izi.

«Mahbub ul-qulub» asarida kishilarda, ayniqsa, yoshlarda yaxshi sifatlarni shakllantirish, yomonlik yerdan uzoqroq yurish, qochish lozimligini maslahat beradi. Yaxshi kishilarning suhbatlaridan bahramand bo‘lishga, halollik va to‘g‘riso‘zlikka undaydi.

Bizning davrimiz uchun Alisher Navoiyning inson kamoloti haqidagi fikrlari ulug‘ tarbiyaviy xazina bo‘lib, sofdil kishilarimizda oliyanob xislatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida yashab ijod etganlar bilan tanishar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda Ahmad Donish gavdalanadi. Uning faoliyati va asarlari ta’lim-tarbiya bobida o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Ahmad Donish o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya muammolariga katta o‘rin berib, ularni falsafiy va siyosiy dunyo-qarash bilan chambarchas bog‘lab tahlil etadi.

Uning «Navodir ul-vaqoye», «Siyosiy risola», «Farzandlarga vasiyat» va boshqa asarlarida xalq hayotiga oid yorqin va jonli lavhalar juda ajoyib tarbiyaviy mazmunda bayon etilgan. Ahmad Donish bolalarni katta mas’uliyat bilan va puxta o‘ylab tarbiya qilish ota-onaning burchi deb hisoblaydi:

«Otaning bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, albatta, lozimdir. Bolaga odob o‘rgatish, ilm o‘qitish dastlab ularga aytish va ko‘rsatish bilan bo‘ladi. Bolalar bunga qulq solmasalar, urish, so‘kishlar ham ishlatiladi. Shuning uchun avval sizlarga eng zarur narsalarni aytib o‘taman:

Ey o‘g‘illarim, bilinglarki, kelajakda oldingizdan turli-tuman ishlar kelib chiqadi, boshlaringizga har xil savdolar tushib, fe’l-atvorlarining o‘zgarib boradi», — deb yozgan edi Donish o‘z o‘g‘illariga. Shu bilan birga, o‘z o‘g‘illariga shaxsiy manfaatlar bilan ijtimoiy manfaatlarni birga qo‘sish zarurligi haqida «jamiyat va oila manfaatlarini himoya eting», deb yozadi.

Shunungdek, «Kishilarga zarur bo‘lgan ilm-fanni o‘rganishda beparvo bo‘lmang... Zinhor mol to‘plab, dunyo ko‘paytirishga tiringmanglar. Agar bunga qiziqar ekansizlar, o‘lguncha mehnat va mashaqqatdan qutula olmaysizlar. Dunyo to‘plashga kirishganlar botqoq loyga botadilar. Qaysi bir hunar, qaysi bir kasbni tanlamoqchi bo‘lsangizlar, undan kutilgan maqsad xalq uchun foyda yetkazish bo‘lsin. Ilm o‘qib, hunar orttirishda vatandoshlarning hojatlarini chiqarishni niyat qilinglar, uning boshqa foydalari bo‘lsa ham shu bilan qo‘lga kiraveradi», deydi Ahmad Donish.

Donish o‘zining turmush tajribasiga asoslanib, kim bilan aloqa bog‘lash mumkin-u kim bilan mumkin emasligini va hatto xavfli ekanligini ko‘rsatadi: «Modomiki, sizlar odamlar bilan

muloqot qilishga majbur ekansizlar, o‘z fe’lingizga yaqin, aqlli va ziyrak kishilarни tanlang, chunki aqli paco kishi o‘zgaga yomonlik istamaydi... Bunday kishilar donishmand va e’tiqodli kishilar orasida uchraydi. Boshqa tabaqadagi kishilarни ham o‘rganinglar, ulardan ko‘z-qulqo bo‘lib yuringlar, ular o‘z xulq-atvoridagi nom-aqul xislatlarga barham beradilarmi, yo‘qmi, bilinglar va shundan keyingina ular bilan do‘stlashinglar.

...Badavlat qarindosh va urug‘laringiz bilan juda zarur bo‘lib qolgan taqdirdagina aloqa qilinglar, faqir qarindoshlaringizga esa qo‘lingizdan kelganicha muruvvat qilinglar».

Ahmad Donish bilim va hunar egallamay, o‘zining nasl-nasabi bilan maqtanib yurgan, ota-onasining mol-u davlatiga ishonib, taralabedod qilib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar biror ijobjiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan mevasiz daraxtga o‘xshaydilar, bunday yoshlarning jamiyatga nafsi tegmaydi. Shunga alohida e’tibor berish lozimki, garchi Ahmad Donish o‘z o‘g‘illariga pand-nasihatlar qilgan bo‘lsa-da, bu nasihatlar yoshlarga qaratilgandir. U o‘z farzandi misolida yoshlarni do‘stlikka sodiq qolishga, to‘g‘riso‘z, xushmu-mala, kamtar va saxiy bo‘lishga undaydi.

Ahmad Donishning ta’lim-tarbiya borasidagi tavsiyalari hozir ham o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Uning chuqur ijtimoiy ma’noga to‘liq asarlarida yoshlarning ma’naviy qiyofasi, ularda qanday ijobjiy fazilatlarni tarbiyalash yorqin va nafis bo‘yoqlar bilan tasvirlangan.

O‘zbekistonda tarbiyashunoslikning yetakchi vakillaridan biri, dastlabki xalq maorifi namoyandası, muallim-ijodkor Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining serqirra faoliyati davrida oila va oilaviy tarbiya muammolariga alohida e’tibor berdi.

Hamza san’atkor, jamoat arbobi bo‘lish bilan birga, to‘ng‘ich muallim sifatida maktabga qimmatli tarbiyaviy meros qoldirdi. U 20 yilga yaqin o‘qituvchilik qildi. Kambag‘al bolalar uchun bepul maktablar, kattalar uchun kurslar ochdi. Uning tarbiyaga bag‘ishlangan ko‘p qirrali faoliyati ham ibratlidir. Ma’rifat haqidagi g‘oyalari, yangi zamon kishisini tarbiyalash to‘g‘risidagi qarashlari darslik va asarlarida o‘z ifodasini topdi. Bu o‘rinda 1914—1915-yillarda yozilgan «Yengil adabiyot», «Axloq hikoyalari»,

«Qiroat kitobi» nomli o‘qish kitoblari, tarbiyaga oid she’rlari va dramalari o‘ziga xosdir.

Uning tarbiyaviy konsepsiyasida bolalarga dunyoviy bilim, aqliy va jismoniy tarbiya berish, hunar bilan qurollantirish asosiy o‘rinni egallaydi.

Adib xalqni ma’rifatli qilish maqsadida maktabni, o‘qituvchi va ilmni tinmay targ‘ib qildi. Ularning obrazlarini yaratdi. O‘zing fikrlarini ifodalash uchun didaktik va badiiy shakllardan foydalandi. Darslik va asarlarini bolalar ruhiyati, yoshi va saviyasiga mos qilib yaratdi. Bunda xalq og‘zaki ijodidan mohirona foydalandi.

Biz Hamzaning tarbiyaga oid merosini ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda har tomonlama rivojlangan insonning kamol topishida oilaviy tarbiyaning roliga katta ahamiyat berilganini, bola tarbiyasida ota-onasiga, o‘qituvchi hamda jamoatning samarali ta’siriga e’tibor berilganini ko‘ramiz.

Xalq «Bola boshidan» deb bejiz aytmagan. Axloqiy tarbiyaga oilada asos solinadi. Bu o‘rinda ota-onasiga bosh namuna hisoblanadi. Ayniqsa, uning shaxsiy ibrati beqiyosdir. Oilada bola to‘g‘ri tarbiyalansa, jamiyatning haqiqiy fuqarosi yetishib chiqadi. Ota-onalar o‘z farzandlarini aqlli, bilimli, sog‘lom, odobli qilib o‘stirishlari lozim. Chunki ular birinchi tarbiyachilardir.

Bolalarda ota-onalarga hurmat, ular uchun sarflangan moddiy va ma’naviy mehnatning qadriga yetish, oilaviy munosabatlarga ongli qarash tuyg‘ularini o‘stirish muhim tarbiyaviy omillardan biridir.

Shoir bu muammolarga qayta-qayta murojaat qiladi. Jumladan, uning «Axloq hikoyalari» o‘qish kitobida ota-onalarni hurmat qilishga da’vat etiladi. «Ato nasihatining namoyishi» hikoya-sida ota-onalar so‘ziga doimo amal qilish uqtiriladi. «Ul aqllik bolaning mushfiqa onasi uchinda qilgan tashakkurlari» sarlavhali hikoyerlarda esa ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘rnatalgan samimiyy munosabatlari ko‘rsatiladi.

Hamza bolaning dunyoda eng mehribon kishisi – ota obrazini yaratadi. Bu masalaga u sinfiy nuqtayi nazardan yondashadi. U obraz qilib olgan ota haqiqiy mehnatkash insondir. Ota bola tarbiyasi uchun butun hayoti, mehnatini sarflaydi. Otaning mehnati bola tilidan madh etiladi:

Toki tongdan kechgacha mehnat etib,  
Tarbiya qilgan bizni zahmat chekib.  
Ya’ni boqqan osh-u non bizga topib,  
Ustimizga yoz-u qish to‘nlar yopib.

Bola otadan xursand. Shoir bu she’rda ham o‘zining estetik idealini, bolaning odam bo‘lib yetishishida asosiy mezon – o‘qish ekanligini unutmaydi. Bola deydi:

Otamiz bo‘lsin desak bizdan rizo,  
O‘qisak, ham rozi, ham qilg‘ay duo.

Ona ham oilada bola tarbiyalashda markaziy shaxs hisoblana-di. U bolaga juda yaqin turadi. Hamza ulug‘ Alisher Navoiyning an’analalarini davom ettirib, onani ulug‘ladi, uning bola tarbiyalashdagi mashaqqatli mehnatini ochib berdi, bolalarda onalarga nisbatan farzandlik tuyg‘ularini uyg‘otdi. Bola tilidan ona portreti chiziladi:

Parcha go‘sht erdik tug‘ilgan vaqtimiz,  
Onamizning bag‘ri o‘ldi taxtimiz.  
Tutdi emchak shirin uyqudan cho‘chib,  
Kechalar sovuq beshiklarni quchib.

Ikki-uch yil bag‘ri uzra ko‘tarib,  
Katta qildi o‘zi mehnatda horib.  
Jon-dilda asradi bizni suyub,  
Dedi bizni, boshqa orzuni qo‘yib.

Og‘risa bir joyimiz yig‘lab yurib,  
Har eshikni kezdi doru axtarib.  
Ya’ni yo‘q bizga anodek mehribon,  
Siynaga qalqon, bosh uzra posibon.

Bizga ham lozim ani shod aylamak,  
Bizga qilgan xizmatin yod aylamak.

Oilaviy tarbiyada ota-onaning shaxsi ham muhimdir. Ular ma’naviy jihatdan yuksak, axloqiy pok, odobli va madaniyatli bo‘lmoglari kerak. Agar ular shaxs sifatida bolalarga namuna bo‘lma-

salar, u oiladan tarbiyalangan farzand kutib bo‘lmaydi. Xalq «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», deb bejiz aytmagan.

Ota-onalar bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashlari uchun avvalo o‘z-lari tarbiyalangan bo‘lishlari shart. Bolalarni moddiy jihatdan yetarli darajada ta‘minlashlari kerak. Aks holda, fojiaviy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Bola bola emas, balo bo‘lib yetishadi.

Hamza ota-onsa roliga ana shunday tarzda qaraydi, bolaning yomon bo‘lishiga ota-onsa javobgar degan tezisni ilgari suradi. Bunga uning «Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi» she’ri misol bo‘la oladi. She’rda bolani noto‘g‘ri tarbiyalagan onaning fojiasi ishonarli tarzda ko‘rsatiladi.

O‘tmishda bolani «tarbiyalash» uchun oilada ham, mакtabda ham vahshiyona jazo qo‘llanar edi. Bolalar kaltak zarbidan passiv, qo‘rqoq bo‘lib o‘sardi. Hamza o‘qitishning bunday yaramas usuliga tish-tirnog‘i bilan qarshi chiqdi, johil ota-onalarni tartibga chaqirdi, ularga jazo berilishini lozim deb topdi. Ayollar huquqini, yetim-yesirlarni himoya qildi.

Hamza o‘zining ta‘lim-tarbiyaga oid asarlarida ijobiylar salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar obrazini yaratadi. Ular orqali oilada yaxshi va yomon tarbiya olish natijasi nimalarga olib kelishini ko‘rsatadi.

Axloqiy tarbiyada rostgo‘ylik muhim xususiyatlardan biridir. Hamza ijobiylar qahramonlarining xususiyati ham to‘g‘riso‘zlikdir. Shoir bolani yoshlikdan haqiqatchi qilib tarbiyalash masalasini ilgari suradi, rostgo‘ylikni feodal jamiyatning mahsuli bo‘lgan yolg‘onchilikka qarama-qarshi qo‘yadi.

Shoir deydi:

Haq quli bo‘lsang, haqiqat rishtasin tutgil mudom,  
Zohir-u botin haqiqat nahridin oboddir.

Shoir bolalarni to‘g‘riso‘zlikka o‘rgatish g‘oyasini ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida targ‘ib qilish bilan birga, bolaga to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri murojaat qiladi:

To‘g‘ri so‘zla, ey o‘g‘il,  
Til burmag‘il yolg‘onga hech.  
Bir masal bor: to‘g‘ri so‘zla,  
Boshingni kesmas qilich.

Hamzaning ta’lim-tarbiyaga oid va badiiy asarlari, ularda olg‘a surilgan fikrlar bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onalar, tarbiyachilar, o‘qituvchilar uchun tunganmas xazina bo‘lib xizmat qiladi.

Savodxon oilada tarbiya topgan Abdulla Avloniy avval eski maktabda, so‘ngra madrasada o‘qidi va o‘z davrining o‘qimishli ziyyolisi sifatida voyaga yetdi.

U «Turkiy guliston yoxud axloq», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Guliston maqtab» singari tarbiyaga oid asarlar yaratdi, yangi usulda o‘qitiladigan maktablar ochdi. «Adabiyot yoxud she’rlar» deb nomlangan 6 jildli she’riy to‘plamlarini ham yangi tipdagi maktablarda o‘qitishni mo‘ljallab tuzgan edi. Biz bu asarlarning ayrimlari bilan oilaviy tarbiya ruknida tanishamiz.

Abdulla Avloniy tomonidan 1912-yilda nashr qilingan va 1915–1917-yillarda qayta nashr qilingan «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim»ning bevosita davomi bo‘lib, axloqiy hikoyalar uslubida bayon etilgan. Hikoyalarning aksari nasriy bo‘lib, ularning barchasi bolalarning yoshiga, aqliga mos holda xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan foydalanish asosida yozilgan. Bu hikoyalarda ota-onani hurmatlash, qadriga yetish, halol mehnat qilish, ilmli bo‘lish kabi axloqqa oid maslahatlarni uchratamiz. Kitobdagi dastlabki ikki hikoya «Saxiylik» va «Baxillik» deb nomlangan. Birinchi hikoyada tasvirlanishicha, Said ismli bolaning otasi har kuni o‘g‘liga maktabga ketishi oldidan 10 tiyin ovqat puli berardi. Bir kuni Said maktab yo‘lida faqir kishini uchratib qolibdi. «O‘g‘lim, ikki kundan beri ochman, taom yey desam ustidagi yirtiq chopondan boshqa hech narsam yo‘q», — debdi. Said qo‘lidagi o‘n tiyinlikni beradi va o‘sha kunni ovqatlanmasdan o‘tkazadi. Otasi o‘g‘lining oliyjanobligidan mamnun bo‘ladi, «saxiy Saidim», deb olqishlaydi. Ertasiga 20 tiyin beradi. Mazkur hikoyada saxiylik, rahm-shafqat fazilat sifatida talqin qilinsa, «Baxillik»da xasislik, torko‘ngillik qoralanadi.

«Aqli bola», «Qalampir ila cho‘l hofizi», «Ovoz», «Xrus ila bo‘ri», «Ta’na balosi», «Aqlsiz bola» kabi hikoya va masallarda xushfe’llilik, xushmuomalalik, yaxshilik qilish fazilat sifatida madh etiladi, aql va donishmandlik sharaflanadi, qo‘pollik, badnafslik kabi illatlar hajv tig‘i ostiga olinadi.

Mehnat mavzusidagi hikoyalardan bo‘lmish «Soqi ila onasi» hikoyasini tahlil qilaylik. Muallifning fikricha, mehnat kishini

baxtiyor va saodatmand etadigan, unga shuhrat olib beradigan qandaydir g‘ayritabiyy qudrat emas. U o‘z nomi bilan mehnat. Binobarin, u mashaqqatli, kishidan kuch va iroda talab etadigan, uni toliqtiradigan, qiynaydigan faoliyatdir. Ayni choqda, u insoning yashash usullaridan, organizmning tabiiy, zaruriy ehtiyojlaridan biridir, deb hisoblaydi.

Hikoyaning mazmuni quyidagicha:

Soqi ismli bola maktabdan keladi-da, onasidan ovqat berishini so‘raydi. Onasi uning oldiga bir kosa sho‘rva keltirib qo‘yadi. Soqi sho‘rvadan bir qoshiq og‘ziga olib: «Ona, sho‘rvangning mazasi yo‘q, ichmayman», – deb achchiq bilan o‘rnidan turib ketadi. Ona ovqatni o‘g‘lining oldidan olib qo‘yarkan, unga taskin beradi va darhol boshqa ovqat tayyorlashga kirishishini aytadi. Bu o‘rtada unga yaxshi gaplar gapirib, bog‘ga olib chiqadi va kech-gacha xazon tashitadi. Soqi horib-charchab uyga kiradi. Qorni ochib, ovqat so‘raydi. Onasi yana haligi sho‘rvani isitib, o‘g‘lining oldiga qo‘yadi. Soqi sho‘rvani zo‘r ishtaha bilan paqqos tushiradi. Sho‘rva benihoya mazali edi. U bunday totli sho‘rvani hech qachon ichmagandi. Soqi shularni aytganda onasi kulib yuboradi. U xuddi haligi, o‘zi mazasiz deb ichmasdan tashlab ketgan sho‘rvasi ekanligini, u mehnat qilganligi, harakatda bo‘lganligi uchun ishtahasi ochilib, ovqat mazali tuyulayotganini aytadi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi ta’lim-tarbiyaviy fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. 1913-yilda yozilgan va 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilingan mazkur asar fikri taraqqiyot tarixida o‘ziga xos hodisadir. U faqat maktab doirasi bilan cheklanmadni, balki adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llamma bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur asar 64 bobdan iborat bo‘lib, har bir bob ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlanadi va biri ikkinchisini to‘ldiradi, takomillashtiradi.

U bola tarbiyasida bola yashab turgan sharoit va kishilarning roli muhim ekanligini ko‘rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini e’tibordan chetda qoldirmaydi. Tarbiya bolaning axloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta’sir etishini e’tirof qiladi va ota-onalarni o‘z bolalarini tarbiya qilishga chaqiradi.

Abdulla Avloniy sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarurligini aytib, bolani sog‘lom qilib tarbiyalashda dastlab oilaga, ota-onalarga murojaat qiladi va sog‘lom badanga zarar keltiradigan narsalardan saqlanishni tavsiya etadi.

Abdulla Avloniy butun kuch-quvvati, ijodi, umrini o‘z xalqining baxt-saodati yo‘liga sarf etdi. Ota-onalarning bevosita rahbarligida Turkiston uchun muqobil farzandlar yetishtirishga bel bog‘ladi va umrining oxirigacha bu yo‘ldan chekinmadi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Oila deb nimaga aytildi?
2. Oilaning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ota-onaning farzand oldidagi burchlarini sanab bering.
4. Farzandlarning ota-ona oldida qanday burchlari bor?
5. Er-xotin orasidagi munosabatlар oilada komil farzand tarbiyalashning muhim omili ekanligi haqidagi o‘z fikrlaringizni bildiring.
6. Oila tarbiyasida xalq pedagogikasining o‘rnini haqida gapirib bering.
7. Oilaning o‘ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
8. Xalq tajribasida tarbiya uslubi tushunchasiga qanday qaraysiz?
9. O‘zbek xalq mutafakkirlarining oila haqidagi fikrlaridan misollar keltiring.
10. Mutafakkirlarning oilaviy tarbiya muammosiga bag‘ishlangan qanday asarlarini bilasiz?




### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: 1992.
2. 1998-yil – Oila yili deb e’lon qilinishiga doir hujjatlar.
3. **A. Q. Munawvarov.** Oila pedagogikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1994.
4. **E. G‘oziyev.** Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: «Universitet», 1997. 80-bet.
5. **Kaykovus.** Qobusnoma. – T.: «O‘qituvchi», 1990.
6. **A. Qayumov.** Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali Ibn Sino. – T.: 1987. 240-bet.
7. **Z. K. Ismailova, A. A. Shayusupova.** Pedagogikadan ma’ruza-lar matni. – T.: TIMI, 2005.
8. **N. R. G‘aybullayev** va boshq. Pedagogika. – T.: TDMU, 2005.



### **5.1. O'ZBEKISTONDA FAN VA MAORIFNI DUNYO STANDARTIGA KO'TARISHDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH DIDAKTIKASI**

Didaktika pedagogika fani ta'lif jarayonining umumiyligini qonunlarini o'r ganuvchi qismidir. «Didaktika» grekcha so'z bo'lib, «didasko» — «o'qitish», «didachol» — «o'rgatuvchi» degan ma'nolarni anglatadi. «Didaktika» so'zining ma'naviy tarjimasi «Ta'lif nazariyasi» demakdir. Ta'lif nazariyasi — ta'lif jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lif tamoyillarini, ta'lif mazmunini, ta'lif metodlari, shakkularini va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta'lif nazariyasining asosiy mohiyati ta'lifni tashkil etishdan iborat. Ta'lifni tashkil etishdan asosiy maqsad esa yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir (23-chizma).



**23- chizma.** Didaktika va uning vazifalari.

Didaktikaning tadqiqot predmeti ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi funksional bog'lanishdir.

Didaktikaning maqsadi – o'qituvchi va o'quvchi, o'qitilayotgan fan, didaktik materiallar, didaktik tamoyillar orasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini aniqlash.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Amaliyot inson bilishining asosiy manbayi hisoblanadi. U o'zlashtirilayotgan nazariy bilimlarning asosli ekanligini ko'rsatuvchi haqiqiy mezondir. Inson tevarak-atrofbdagi voqelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Mana shu amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini bilib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgi idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlashi yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqelikni chuqur tushunadi.

Bilim manbayi sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

**Bilish** – murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohada dan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun mavhum, o'zlashtirilmagan narsa, voqeа va hodisalar mohiyatini ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofbdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi a'zolari (bizga ma'lumki, ular beshta)ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir a'zo, har bir analizator, I. P. Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his etadi. Sezish muayyan narsa, voqeа-hodisalar mazmunining ongda idrok etilishiga olib keladi.

**Idrok** – sezgi a'zolari orqali ongga ta'sir etib turilgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir. Sezish, idrok qilish tashqi buyumlarning yo'qolishi bilan to'xtaydi.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilin-

gan narsa va voqea-hodisalarining ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zahirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o'yaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mayjudligi bilan bog'liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular ham haqiqiy voqelikni bilish muammo-sini to'la hal etmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Inson faqat tafakkur yuritish orqaligina muayyan jarayon yoki voqea-hodisa mohiyatini, munosabatlarning baholanishlari-ni aniqlaydi va shu orqali moddiy borliqni chuqur, to'la va to'g'ri aks etishiga erishadi. Tafakkur, I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, asab tolalari baholanishlari yoki assotsiatsiyalarning hosil bo'lishidan iborat.


Jonli mushohada uchun birinchi signal tizimi, abstrakt tafakkur uchun ikkinchi signal tizimi asosiy ahamiyatga ega.

Abstrakt tafakkur voqelik bilan o'zaro aloqada bo'lgan taqdirdagina inson bilimlari chuqurlashib boradi. Jonli mushohada va abstrakt tafakkur birligi bilimlarni haqiqiy va chuqur bilimlarga aylantiradi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq amaliyot ayni vaqtda bilimning to'g'riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va tasdiqlangandagina inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bilim amaliyotdan sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'ladi va yana amaliyotga qaytib boradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgarigi ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishda, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni sxema tarzida quyidagi holatda ko'rishimiz mumkin (24- chizma):

Bilim – odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim obyektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar ham, o'z navbatida, doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'z-garib boradi.



**24- chizma.** Bilimning sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo‘lishi.

Bilimlar asosida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari qobiliyatları rivojlanadi, ularda e’tiqod hosil bo‘ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g‘oyalalar tizimi tarkib topadi.

Ta’lim jarayonida biror fan sohasida insoniyat tomonidan o‘zlashtirilgan barcha bilimlarni o‘rganish mumkin emas. Ta’lim jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar – fanlarning asoslari o‘rganiladi. Ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan o‘quv predmetlari soni o‘z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boradi. Boshlang‘ich sinflarda tabiat va jamiyat qonuniyatları bora-sida eng oddiy ma’lumotlar berish asosida ularda dunyoqarash shakllantirib boriladi. Mazkur bilimlar asosida o‘quvchilar obyektiv borliq mohiyatini anglay boshlaydilar.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmasdan, balki faoliyat ko‘nikma va malakalarini ham hosil qiladilar.

Bilimlarning amalda bir necha bor qo’llanishi ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga olib keladi. **Ko‘nikma** – bu o‘zlashtirib olin-gan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorgarlikda ifodalangan ongli faoliyatdir. Demak, ko‘nikma muayyan faoliyatni tashkil etish yo‘llari va usullarini bilib, o‘zlashtirib olish hamda o‘z bilimlarini amalda qo‘llay bilishdir.

Ko‘nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o‘zgargan vaqtida ham ma’lum xatti-harakat qiliш (tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ko‘nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish mumkin emas. Har qanday ko‘nikma zamirida bilim yotadi. Bilimlar fikr-mulohazalarda,

ko‘nikma esa xatti-harakatlarda ifodalanadi. Xatti-harakatlar aqliy yoki jismoniy bo‘lishi mumkin.

**Malaka** — muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o‘rganib qolning, avtomatlashgan ongli harakatdir.

Malaka bir xatti-harakatning o‘zini bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo‘lsa, odam ishni shunchalik tez va to‘g‘ri bajaradi.

Malakalar turlicha bo‘ladi: chunonchi, o‘quv malakalari — o‘qish, yozish, og‘zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari — ish qurollari bilan ishslash, materiallar hamda texnika bilan muomalada bo‘lish va hokazolar; harakat malakalari — yurish, yugurish va shu kabilar. Ko‘nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi. Ko‘nikma va malaka o‘rtasida farqli tomonlar ham bor. Xususan, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar har xil xarakterda bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonida tarkib topadi. **Ta’lim** — dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo‘lib, unda ikki tomon — o‘qituvchi va o‘quvchi ishtirok etadi. Ta’lim o‘quvchilarga bilimlar berish, ularda ko‘nikma va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo‘naltirilgan ijodiy, mantiqiylashtirilgan ijodiy, tafakkurni tarbiyalashdir.

**O‘qish** esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish, o‘qish qobiliyati, fikrlash hamda muayyan harakatlarni hosil qilish jarayoni hisoblanadi. O‘qish jarayonida o‘quvchilar ma’lum bo‘limgan, anglanmagan ma’lumotlarni o‘zlashtira boradilar.

Bu jarayon to‘rtta asosiy bosqichdan tashkil topadi:

- 1) o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalar hosil qilish;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi;
- 4) hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash.

Har bir bosqich uchun o‘quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati ahamiyatlidir. Bu faoliyat o‘qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

Ta’lim jarayonining boshlang‘ich bosqichida o‘zlashtirilayotgan bilimlar mohiyati analiz va sintez metodlari yordamida anglanadi.

**Analiz** (lot. «analusia» — bo‘laklarga ajratish) — narsa va voqeahodisalarni tarkibiy qismlarga, bo‘laklarga ajratishdir. Masalan, anor qattiq po‘st, qat-qat parda va donachalarga ajratiladi.

**Sintez** (lot. «synthesis» — birikish, qo'shilish) — analizga qarama-qarshi bo'lgan fikrlash jarayonidir. Unda o'rganilayotgan narsa va hodisalarning alohida qismlari, bo'laklari bir butun qilib birlashtiriladi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyati taqqoslashda ham namoyon bo'ladi.

**Taqqoslash** — narsa va hodisalardagi tafovut hamda o'xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishga yo'naltirilgan fikrlash operatsiyasidir.

Induktiv va deduktiv tafakkur o'quv materialini tushunib olishda muhim ahamiyatga ega.

**Induktiv tafakkur** (lot. «indektio» — keltirib chiqarish) — juz'iy yoki yakka hollardan umumiya, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakllaridan biridir.

**Deduktiv tafakkur** (lot. «deductio» — ikkiga ajratish, keltirib chiqarish) — umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarab borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat metod, induktiv va deduktiv tafakkur metodlaridan foydalanish asosida o'quvchilarda tushunchalar hosil bo'ladi.

**Tushuncha** — voqelikdagi narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bir so'z yoki so'zlar birikmasi bilan ifodalashdan iborat tafakkur shakli. Ta'lim jarayonining dialektik xarakterga egaligi bois tushunchalar asta-sekin chuqurlashib va murakkablashib boradi.

Ma'lumotlarning o'zlashtirilishi, tushunchalarning tarkib topishi bilimlarni egallab olish jarayonidagi muhim vaziyat hisoblanadi. O'rganilgan materialni mulohaza qila olmaslik, uni ta'lim va mehnat faoliyatida mustaqil qo'llay bilmaslik, ularga nisbatan ijobiy yondashmaslik bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishiga olib keladi.

Ta'lim muassasalarida beriladigan ma'lumot tarixiy xususiyatga ega. Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yosh avlodga beriladigan bilim mazmuni va uning hajmi muayyan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyoji, fan, texnika taraqqiyoti darajasi, madaniyati holatidan kelib chiqadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida beriladigan ma'lumot mazmuni o'quvchilarga ilmiy bilimlar berish, ularning faol ijtimoiy faoliyat tashkil etishlari yo'lida ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ifodelaydi.

Mustaqil O‘zbekiston respublikasi ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim (ma’lumot) mazmuni, avvalo, komil inson va malakali mutaxassisni tayyorlash jarayoni bilan belgilanadi.

Ushbu maqsadni o‘zida aks ettirgan ma’lumot mazmuni davlat ta’lim standarti, o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va darsliklar mazmunida namoyon bo‘ladi:

A) Davlat ta’lim standarti umumiyl o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’lim uchun alohida ishlab chiqiladi.

Umumiyl o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti o‘quvchilar umumita’lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. O‘z navbatida, kasb-hunar ta’limi davlat standarti o‘quvchilarning kasb-hunar tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan (oliy ta’lim davlat standarti talabalarning mutaxassislik tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan) majburiy minimal darajani belgilaydi.

Davlat ta’lim standarti (DTS) ta’lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta’lim mazmunining o‘zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, qo‘llanmalar, nizomlar, o‘quv rejasi va boshqa me’yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiyl o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’limning DTS o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra davlat, hudud ta’lim muassasalar manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng muhim o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyatları va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

DTSni, uning talabalarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Umumiyl o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’limning DTS quyidagi tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqiladi:

- DTSning davlat va jamiyat talablari va shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o‘quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog‘liqligi;
- umumiyl o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzlusizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

- umumiy o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’lim mazmunining insonparvarligi;
- ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- umumiy o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion (ilg‘or) texnologiya yutuqlariga tayanish;
- pedagogik tafakkurda qaror topgan an’anaviy qarashlar bilan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» mazmunida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyiliги; ilg‘or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribalaridan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

DTS ning tarkibiy qismi sisatida umumiy o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Bu o‘quv reja ta’lim sohalarini me’yorlash hamda ta’lim muassasalarining moliyaviy ta’minotini belgilashga asos bo‘luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o‘quv rejasi o‘quv predmetlari bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini belgilaydi. Mazkur hujjat muayyan siftda ma’lum o‘quv predmeti bo‘yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta’lim mazmunini aniqlashga asos bo‘ladi.

Har bir sinf (1, 2, 3, ... va hokazo) yakunida o‘quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim (o‘quv) predmetlari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv rejasi va dasturlarida o‘z ifodasini topadi.

**B) O‘quv rejasi** — barcha ta’lim muassasalarida so‘zsiz amal qilinishi lozim bo‘lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo‘yicha o‘rganilishi kerak bo‘lgan o‘quv predmetlari, mazkur predmetlar uchun yaratilgan haftalik soatlar hajmi ko‘rsatiladi.

Ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan o‘quv rejasi DTS-ning tarkibiy qismi bo‘lgan tayanch o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi va tegishli vazirlik tomonidan (Respublika xalq ta’limi yoki Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi) tasdiqlanadi. O‘quv rejasi ta’lim muassasasi ma’muriyatiga yuboriladi hamda mazkur hujjat asosida o‘quv jadvali tuziladi. O‘quv jadvalida hafta davomida o‘qitiladigan o‘quv predmetlarining nomi va ularga ajratil-

gan soatlar miqdori ko'rsatilib, u o'quv yurti direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinnbosari tomonidan tasdiqlanadi.

D) **O'quv dasturi** ham xuddi o'quv rejasи kabi muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmeti (masalan, «Inson va jamiyat» fani)ning mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv dasturlari tegishli ta'lif (umumiy o'rtta, kasb-hunar yoki oliy ta'lif) turidagi barcha ta'lif muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiy.

Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materiali mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Tushuntirish xatida o'quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o'rni, ular o'rtasidagi aloqadorlik, materialni o'rganish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar ochib beriladi, ayrim bo'lim va mavzularni o'rganish xususiyatlari ko'rsatiladi, o'qitish (ta'lif) metodlari va vositalarini qo'llashga doir tavsiyalar beriladi.

Soatlar hisobining asosli o'rinnlarda o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi.

Dastur materiali bo'limlar va mavzular bo'yicha taqsimlangan bo'lib, har bir mavzuni o'rganish uchun o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan tushunchalar tizimi, shuningdek, ko'nikma va malakalarning aniq ko'rsatkichi beriladi, nihoyat, o'quvchilarga qo'yildigan yakuniy talablar bayon etiladi.

Dasturdagi material ta'lif va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar, uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi va taqsimlanadi.

O'quv dasturlari quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

1. Dastur mazmunining ilmiy xususiyatga egaligi;
2. Dastur mazmunining ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatga egaligi;
3. Nazariy g'oyalarning amaliyat bilan birligi;
4. Dastur mazmunining ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egaligi;
5. Dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo'lishi;
6. O'quv predmetlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik, bog'lanishning mavjudligi;
7. Dasturni tayyorlashda o'quvchilarning psixologik va ruhiy xususiyatlarini inobatga olish.

O‘quv rejasi va dasturi ta’lim muassasasi ma’muriyati, o‘quvchilar jamoalari so‘zsiz amal qilishlari lozim bo‘lgan davlat hujjatidir.

E) **Darslik** – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan o‘quv kitobi sanaladi. Darslikning xarakterli xususiyati – bu uning mazmunining o‘quv dasturiga mos kelishidir. Darslikda material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu muayyan bob, uning tarkibida bo‘lgan bandlar asosida ochib beriladi.

O‘quv darsligi bir qator talablarga muvofiq yaratiladi. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

1. O‘quv darsligida ilmiy bilimlar tizimi va hajmi o‘quv dasturi talablariga hamda tegishli sind o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari hamda g‘oyaviy yo‘nalishi tizimli va izchil bo‘lishi, keltirilgan ma’lumot va dalillar asosli, ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta’rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim.

3. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liqligi ta’minlanishi lozim.

4. Darslik fanda isbot qilinmagan, ma’lum ta’rif va qoidalarga ega bo‘lmagan, muammoli masalalardan xoli bo‘lishi kerak.

5. Bayon qilinayotgan materiallarning xususiyatiga bog‘liq holda tegishli qoida va ta’riflar berilishi, dalillar keltirilishi va ba’zi materiallar rasm, surat, sxema, diagramma va boshqa tasvirlar bilan boyitilishi talab etiladi.

6. Bayon qilinayotgan material o‘quvchilarga tushunarli, pishiq-puxta va ixcham jumlalardan iborat bo‘lishi lozim.

7. Darslikning tashqi ko‘rinishi, bezagi muayyan sind o‘quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo‘lishi kerak.

8. Darslik muayyan sind o‘quvchilari uchun joriy qilingan gigiyena qoidalariga muvofiq bo‘lishi zarur.

Darsliklar o‘quv materiallarini to‘laroq va chuqurroq egallab olishga yordam beruvchi o‘quv qo‘llanmalari bilan to‘ldirilishi lozim.

Yo‘nalishi va hal qilinadigan vazifalariga ko‘ra o‘quv qo‘llanmalari quyidagilarga bo‘lish mumkin:

a) o‘quv materiallarini chuqurlashtiruvchi va uni eslab qolishga yordam beruvchi qo‘llanmalar – xrestomatiya, mashqlar to‘plami, kartalar;

- b) ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beruvchi qo'llanmalar – topshiriqlar kartochkasi;
- d) ma'noli tushunishni yengillashtiruvchi qo'llanmalar – lug'atlar, ma'lumotnomalar;
- e) ko'p maqsadga xizmat qiluvchi qo'llanmalar – kinofilmlar, ensiklopediyalar va boshqalar.


Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Didaktika («didasko» – *o'qitish*, «didchol» – *o'rgatuvchi*) pedagogika fanining asosiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonining umumiyligini qonuniyatlarini o'rganadi.
2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim (ma'lumot) mazmuni komil inson va malakali mutaxassisni tayyorlash jarayoni mazmuni bilan belgilanadi. Ma'lumot mazmuni yuqorida qayd etilgan g'oyani o'zida aks ettiruvchi davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari mohiyatida aks etadi.

## **5.2. TA'LIMNING QONUNIYAT VA TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)**

Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv ta'lim-tarbiya jarayonining baracha bosqichlarini o'zida qamrab oladi hamda har tomonlama yetuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shu sababli mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilandi. Bular: ta'limning ustuvorligi, demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi, milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish va shu kabilardir. Jamiat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar o'qitish, bilim berish, ya'ni ta'lim jarayoniga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari alohida, ya'ni didaktika qismida o'rganiladi (25- chizma). Bu jarayonda ta'lim prinsiplariga ham alohida to'xtaladi.

Yaqin va o'rta Sharqda Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy kabi mutasakkirlar ilmiy didaktikani



## **25- chizma.** Ta'lim berish qonuniyati va tamoyillarining maqsadi.


yaratdilar. A. Komenskiy, shveysariyalik pedagog I. G. Pestalotssi, nemis pedagogi A. Disterverglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Ular pedagogik qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida shakllanishiga, mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishiga e'tibor berganlar.

Sharq xalqlari pedagogikasining buyuk allomasi Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asari orqali ilm-fan, ma'rifatning ahamiyati, ta'rifi va tafsifida odamlarni tinmay ilm olishga, bilim o'rGANISHGA undaydi. Bilimlar rivojida sharqning yana bir buyuk mutafakkiri Al-Xorazmiyning salmoqli hissasi bor, albatta. Buyuk olim algebra, arifmetika, astronomiya, geografiya va musiqa sohalarida bir qancha asarlar yozgan.

Sharq-u G'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi, didaktika rivojiga buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ham katta

hissa qo'shgan. Uning «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlan-tirishga katta ta'sir ko'rsatdi va muallimlarning doimiy foydala-nadigan adabiyoti bo'lib qoldi.

Ta'lismazmuni ham alohida majmua bo'lib, ta'lismarayoni-dagi tamoyillar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lismazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi (26- chizma):



**26- chizma.** Ta'lism berish (didaktika)ning tamoyillari.

**Ta’lim mazmunining davlat ijtimoiy-siyosiy rivojlanish yo‘nalishlariga bog‘liqlik tamoyili.** Prezidentimiz I. A. Karimov o‘z asarlarida respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 5 ta tamoyilini belgilab bergan.

I. A. Karimov Oliy Majlis sessiyasida fan, madaniyat arboblari bilan uchrashuvlarda istiqlol maskurasi masalalariga to‘xtalib, ta’lim-tarbiya masalalarida umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishimiz kerakligini uqtirdilar. Bu g‘oyaviy yo‘nalish bizdan umuminsoniy ijobiy xislatlarni shakllantirish yo‘nalishida, ya’ni siyosiy partiyalari ta’siri, xalq pedagogikasi durdonalari asosida yuz beradi, demakdir.

**Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili.** O‘quvchi bilimlarini hayotda qo‘llay olishi uchun ta’lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish kerak. Shunday sharoit yaratilganda o‘quvchida ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil tafakkur, nutq madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e’tiqod tarkib topadi.

**Ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqaqlashtirish tamoyili.** Bu, birinchidan, ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlanayotganida uni bir necha tur modifikasiyasini (xillarini) tayyorlash imkoniyatlarini beruvchi unifikatsiyalashgan o‘quv rejalarini tuzishni ko‘zda tutsa, ikkinchidan, umumtexnik, umum-pedagogik va maxsus predmetlar mazmunini tabaqaqlashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi an’analarni hisobga oladi.

**Ta’limning ko‘rsatmalilik tamoyili.** Bu tamoyil o‘qitish jarayonining sifatini orttiradi, talabalarning bilim olishlarini osonlashtiradi. O‘qitishning ko‘rsatmaliligi shuni ta’kidlaydiki, agar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan narsa va hodisalarни bevosita idrok qilishga bog‘liq hissiy-amaliy tajriba bo‘lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o‘zlashtiradilar.

**Kasbga yo‘naltirish tamoyili.** O‘quv rejadagi barcha predmetlar bo‘yicha bilimlarning o‘zi yetarli emas. Chunki yosh mutaxassis o‘qishni bitirib ish boshlagunicha real texnologik jarayonda ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin. Shuning uchun ta’lim ma’nosini ma’lum bilimlarni ko‘zda tutadi. Mutaxassisda tezroq bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, kasbiy yo‘naltirilganlik ko‘nikmalarini taraqqiy ettirish ko‘zda tutiladi va hokazolar.

**Ta’limning tizimli va izchil bo‘lishi tamoyili.** Ta’limda izchilikka rioya qilib o‘qitish lozim, toki o‘rganilgan bilimlar kecha

o‘rganilganlarni mustahkamlasini. Ya’ni o‘tilayotgan fan yoki bayon qilinayotgan materialning o‘quvchilarining oldingi o‘zlash-tirgan ilmiy bilimlari, ko‘nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog‘lanishi, shu bilan bir vaqtida, o‘qitilayotgan materialni o‘z-lashtirish orqali kelajakda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

**Ta’lim-tarbiyaning birligi tamoyili.** Ta’lim-tarbiyaning birligi ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil qilish va o‘qitishning xilma-xil usul va uslublaridan foydalana olishga ko‘p jihatdan bog‘liqidir. Ayniqsa, ta’lim bilan tarbiyaning birligini ta’minalash uchun qu-yidagilarga riyoa qilish kerak:

- bayon qilinayotgan o‘quv materialining mazmuni ham g‘oyaviy, ham ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishi;
- o‘qitilayotgan mavzuning ilmiy va tarbiyaviy mohiyati ochib berilishi, ta’lim jarayonida hadislardan foydalanish imkoniyati-ning yaratilishi;
- bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o‘zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;
- ta’limda muammoli jarayonni vujudga keltirish, o‘quvchi-larning qiziqishlari, faollik va tashabbuskorliklarini ta’minalashga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarining uyushqoqlik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o‘zaro yordam hislarini tarbiyalashni ta’minalamoq zarur.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da yosh avlodni milliy istiqlol masifikasi ruhida tarbiyalash, darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni milliy ta’lim-tarbiya an’analari asosiga qurish masalalari ko‘tarilgan va shu muammoni hal qilish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan (27- chizma).


**Shaxs** — kadrlar tayyorlashning bosh subyekti, ta’limga oid xizmatlarning iste’molchisi va ularning yaratuvchisidir.

**Fan** — yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste’molchisi.

**Uzluksiz ta’lim** — kadrlar tayyorlashning poydevori.

**Ishlab chiqarish** — kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning istiqbolini bel-gilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, moddiy va moliyaviy ta’minalashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi.

## Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi




**27- chizma.** Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi.

**Davlat va jamiyat** – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh omillari.

Ma'lumki, xalq ta'limining asosiy bo'g'inini uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etadi. Shu sababli, bu masalaga alohida diqqat-e'tibor qaratish darkor.

Shuning uchun ham umumta'lim dasturlarini maktabga muvofiq: maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, umumiyy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzilgan (28- chizma).



**28- chizma.** O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'lim tizimi.

- Maktabgacha ta'lim.** Uch yoshdan boshlanib, olti, yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qat'iy nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.
- Boshlang'ich ta'lim.** 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish 6–7 yoshdan boshlanadi.
- Umumiy ta'lim.** Bunda o'quvchilarga 5–9-sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.

**4. O‘rta maxsus bilim va kasb-hunar ta’limi.** O‘qish muddati 3 yildan kam bo‘lмаган akademik litsey va kasb-hunar kollejlari.

*Akademik litsey* – o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan holda o‘qitishni ta’minlaydi.

*Kasb-hunar kolleji* – o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatini, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir necha zamonaviy kasbni egallashlari imkonini beradi.

**5. Oliy mutaxassislik ta’limi,** odatda, o‘n sakkiz va o‘n to‘qqiz yoshdan boshlanib, to‘rt yildan kam bo‘lмаган muddatda davom etadi. Oliy mutaxassislik ta’limi bakalavrlik va magistraturaga bo‘linadi:

*Bakalavriat* – tayanch oliy ta’lim bo‘lib, mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha umumiy ta’lim negizida kamida to‘rt yil davom etadi.

*Magistratura* – aniq mutaxassislik bo‘yicha to‘liq oliy ta’lim bo‘lib, odatda, bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadi.

Shu bilan birga, uzlusiz ta’limning rasmiy tizimida yakunlovchi bir bosqich ham mavjud. Bu bosqich ikki darajaga bo‘linadi, ya’ni aspirantura va doktorantura:

*Aspirantura* – nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi.

Aspiranturaning maqsadi – muayyan mutaxassisliklar bo‘yicha oliy kvalifikatsiyali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shaklantirish.

*Doktorantura* – fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoya qilish bilan yakunlanadi.

Bundan tashqari, yangi tizimda qo‘srimcha kasbiy ta’lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish, maktabdan tashqari ta’lim masalasiga ham katta e’tibor beriladi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. «Didaktika» so‘zining ma’nosi, mazmuni va mohiyati nimalaridan iborat?
2. Shaxsning rivojlanishida didaktika (ta’lim) qanday rol o‘ynaydi?
3. Bilim berishning asosiy qonuniyatlarini tahlil qiling.
4. Nima uchun o‘quv jarayonini ikki yoqlama xarakterga ega deb o‘laymiz?

5. Ta'lif mazmunini nimalar tashkil etadi?
  6. Ta'limning o'quv-uslubiy majmuasiga nimalar kiradi?
  7. Qanday jarayonlarga dars deb ataladi?
  8. Darslik nimalarga asoslanib yoziladi?
  9. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qachon qabul qilingan?
- Uning maqsad va vazifalarini aytib bering.
10. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli nimalardan tuzilgan?
  11. Uzluksiz ta'lif tizimi strukturasini aytib bering.
  12. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilari qanday konstruksiyaviy huquqlarga ega?
  13. Didaktikaning qanday asosiy tamoyillarini bilasiz va ularning mohiyatini nimalar tashkil etadi?
  14. Materiallarni ongli ravishda tushuntirish va darsda o'quvchilarning bilimini yuksak darajada oshiruvchi sharoitlarni aytib, tushuntirib bering.
  15. Bilim, malaka va ko'nikmalarining mustahkamligiga erishish sharoitlari qanday?



## Foydalaniladigan adabiyotlar

1. **I. A. Karimov.** Donishmand xalqimizning mustahkam irodasi-ga ishonamiz. («Fidokor» gazetasi muxbirı savollariga javoblari). – T.: 2000.
2. **I. A. Karimov.** O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999, 9-bet.
3. **I. A. Karimov.** Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998.
4. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: 1996. 39-bet.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni.// «Ma'rifat» gazetasi, 1997-yil 1-oktabr.
6. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: 1997.
7. **A. K. Munavvarov.** Pedagogika. – T.: «O'qituvchi», 1996.
8. **Y. A. Komenskiy.** Buyuk didaktika. – T.: «O'qituvchi», 1970.
9. **S. P. Baranov** va boshqalar. Pedagogika. – T.: «O'qituvchi», 1990.
8. **Z. K. Ismoilova.** Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: «Fan», 2003.
9. **R. Mavlonova** va boshqalar. Pedagogika. – T.: «O'qituvchi», 2001.



## **TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI**

---

---

### **6.1. MUTAXASSIS MURABBIY VA RAHBARNING FAOLIYAT MAHORATI**

Ta'lism-tarbiya jarayonini boshqarish o'z tarkibiga yoshlarning, talabalarining fikrlash faoliyatlarini, kasb egallash va o'zlarida komil inson sifatlarini shakllantirishning bir nechta bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi, bir-birini to'ldiruvchi faktorlarini oladigan murakkab jarayondir.


Davlatimizda ta'lism-tarbiyaning hozirgi bosh strategik maqsadi 1997-yil avgustda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida: «Zamon talablariga, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi, o'zida komil inson sifatlarini shakllantirgan yetuk mutaxassislar tayyorlashdan iborat», deb belgilandi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'liming keng yoyilishi, miqdor va sifati jihatidan jadal o'sishi, turli xildagi ta'lism tizimi va ta'lism muassasalaridan tashqari ta'lism-tarbiya maskanlarining ishlab turishi ta'lism va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini taqozo etadi. Sotsial boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, hodisalarini va obyektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bu holda pedagogik boshqarish tushunchasi qo'llaniladi.

Bu borada biz, birinchi navbatda, ta'lism-tarbiya jarayonini boshqarish va unga rahbarlik qilish haqida fikr yuritmog'imiz darkor.

Rahbarlik qilish – konkret shaxslar va ularning jamoalarini bevosita boshqarishdir. Bu termin va tushunchaning ma'nosi shundan iboratki, rahbarlik qilish ongli faollikni talab qiladi. Boshqarishning barcha asosiy qoidalari rahbarlik-murabbiylit qilishga ham taalluqlidir. Quyidagilarni aniq biladigan rahbarlar jamoalar va tashkilotlarni boshqarishlari mumkin:

1. Rahbarlikning maqsadini.
  2. Ishchilar shaxsining oqibat holatini, ishchilar taraqqiyot darajasini, ularning xususiyatlarini, ma'lumotini, axloqiy sifatlarini.
  3. Xodimlarining shaxsiy sifatlarini va uning o'zgarish yo'llarini.
  4. Boshqariladigan tizimga ta'sir qiladigan vositalar va usullarni.
- Odamlar orasida ishlash jarayonida rahbarning har bir xodimga munosabati tushunchasi yotadi. Bunda biz rahbarning munosabatlaridan kelib chiqqan axloqiy sifatlarni, uning ijobiy yoki, aksincha, salbiy harakatlarini, munosabat formalarini quyidagi bosqichlarda kuzatishimiz mumkin (29- chizma):



**29- chizma.** Rahbarning munosabati.

Rahbarning boshqa odamlarga, jamoaga, jamiyatga munosabatiga qarab uning:


- dilkashligi yoki qarama-qarshiligi;
- ochiq ko'ngilligi yoki injiqligi;
- sezgirlingi;
- o'rtoqchiligi;
- xushmuomalaligi kabi xislatlari aniqlanadi.

Insonning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida o'z qadr-qimmatini his etish, to'g'ri tushunilgan g'urur va u bilan bog'langan o'z-o'zini tanqid qilish, kamtarlik yoki uning aksi bo'lgan surbetlik, shuhratparaslik va hokazolar ko'zga tashlanadi. Rahbarning o'z ishiga va mehnatga munosabatida esa, unda eng avvalo:

– tashabbuskorlik, tirishqoqlik, mehnatsevarlik yoki aksincha, erinchoqlik, qiyinchiliklarni yengib o'tish ishtiyobi yoki cho'chish, haqgo'ylik, saranjom-sarishtalik kabi sifatlar ajralib turadi.

Bu borada biz faoliyat tushunchasiga katta ahamiyat berishimiz zarur.

Rahbarning boshqaruv texnikasi – ish faoliyatida ham, ish- dan tashqriderda ham zarur bo'lgan umumiyl malakalar majmuyidir (30- chizma).



**30- chizma.** Boshqaruv texnikasining tuzilishi.

**Faoliyat** insonning muhit bilan o'zaro faol munosabatidir. Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan institut talabasi faoliyatining maqsadi o'zini moddiy jihatdan ta'minlash va butunlay mustaqil odam bo'lish uchun hunar egallashdan iborat.

Faoliyat kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki va tashqi faolligidir, harakatlarning avtomatlashtirilishi esa malakalarни yuzaga keltiradi.

**Faoliyat** → mashq qilish, o'quv, bilim, aql hosilidir  
**Malaka** →

Mahorat egasi oz mehnat qilib, katta natijalarga erishadi (31- chizma). Faoliyatning samarali bo'lishi uchun rahbarda qobiliyatning quyidagi turlari bo'lmog'i lozim:

1. Bilish qobiliyati.
2. Tushuntira olish.
3. Kuzatuvchanlik.
4. Tashkilotchilik.
5. Obro' orttira bilish.
6. To'g'ri muomala qila olish.
7. Kelajakni ko'ra bilish.

Hozirgi davr sharoitida boshqaruv faoliyatini xalq xo'jaligining yakuniy natijalariga, jamiyatning ehtiyojlarini qondirishsga, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirishning ta'sirchan tizimidan mohirlik bilan foydalanish, uni yuksak darajadagi davlat intizomi

## Rahbarning faoliyat mahorati

Rahbarning mehnati: behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, kundalik ishlar, hafsalasi pir bo‘lish va qilgan ishlaridan xursand bo‘lish


Rahbarning san’ati: qandaydir qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan narsalar

### 31- chizma. Rahbarning faoliyat mahorati.

bilan birga qo‘shib olib borishga, boshqaruvning tashkiliy tuzilishi va usullarini takomillashtirishga qaratish muhim ahamiyatga egadir. Xalq ta’limi tizimi boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib, unga rahbarlik qilish va uni boshqarishni takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb muammosidir.

Boshqarish har qanday jamiyatda hayotning barcha sohalariiga xos bo‘lgan narsadir. Boshqarishdan asosiy maqsad – mehnatkashlarning moddiy-ma’naviy ehtiyojlarini tobora to‘la qondirish uchun ishchilarda barcha ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. Hozirgi kunda boshqarish, birinchi navbatda, kishilarning iqtisodiy ahvolini, xalq xo‘jaligining moddiy holatini, ijtimoiy faoliyatini, ularni qadriyatlarimiz ruhidagi tarbiyalashni nazarda tutadi.

Jamiyatning ma’naviy hayotini boshqarishdan maqsad esa, ilm-ma’rifatli, madaniyatli, har tomonlama kamol topgan yuksak darajadagi pok va axloqli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshqaruv taraqqiyotining har qanday bosqichida jamiyatning o‘ziga xos ichki xususiyatga ega bo‘lgani holda, kishilarning ijtimoiy jamoatchilik mehnatidan, turmush va mehnat jarayonida o‘zaro aloqada bo‘lish hamda o‘z moddiy hamda ma’naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqdi. Tabiiyki, boshqaruvsiz, muayyan tartibni o‘rnatmasdan va quvvatlamasdan turib, mehnat faoliyatini, ayniqsa, keng miqyosda amalga oshirib bo‘lmaydi. Har qanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat idora qiluvchiga ma’lum darajada



**32- chizma.** Rahbarlikning sohalari.

muhtojdir. Idora qiluvchi ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishchi faoliyatidan farq qilib, umumiy vazifalarni bajaradi.

Ma'lumki, jamiyat uch asosiy sohani: iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarni o'z ichiga oladi (32- chizma).

Masalan, yakka skripkachi skripka chalganda o'zini o'zi idora qiladi. Lekin orkestr dirijorga muhtoj. Demak, to'g'ri boshqaruvning muhim sharti boshqaruvchi yoki rahbarning bo'lishidir. Kishilarning faqat mehnat faoliyati emas, balki ularning ijtimoiy xulq-atvori ham muqarrar suratda boshqarilishi, tartibga solib turilishi kerak. Kishilarning ma'naviy faoliyatiga kelsak, bu faoliyat ham tashkilotdan, jamiyat nazoratidan tashqarida bo'lmaydi.

Shu tarzda boshqarishning ham uchta asosiy turi mayjud.

Ulardan eng asosiysi **iqtisodiy boshqaruv** bo'lib, u jamiyat hayoti va taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Hozirgi kunda hukumatning iqtisodiyotni boshqarishga, ayniqsa, ko'p e'tibor berishi beziz emas.

**Ijtimoiy-siyosiy boshqarish** – kishilarning turli jamoalari (ijtimoiy guruhlar, millatlar, clatlar va hokazo) o'rtaisdagi munosabatlarni hamda ana shu jamoalar ichida kishilar o'rtaisdagi munosabatlarni ham boshqarishdir. Ijtimoiy-siyosiy boshqaruvning bu turining asosiy mohiyati jamiyatni boshqarish tizimida siyosiy negiz bo'lgan ishchilar bilan dehqonlar ittifoqini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat.

Ijtimoiy-siyosiy boshqarishning asosiy maqsadi – ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, ijtimoiy bir xillikka erishish, davlat boshqaruvini takomillashtirib, ijtimoiy o'z-o'zini idora qilishga aylantirishdir.

**Jamiyat va uning har bir a'zosining ma'naviy rivojlanishini boshqarish** – boshqaruvning yana bir assosiy turidir. U maktab-gacha tarbiya muassasalari, hunar-texnika bilim yurtlari, oly o'quv yurtlari, pedagogik malaka oshirish institutlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat kabi sohalarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

**Ishlab chiqarishni boshqarish vazifalari** deganda boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi manbalarga ta'sir ko'rsatishdagi u yoki bu yo'naliishlarni tushunmoq kerak.

Boshqaruv vazifalariga:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- sozlash;
- muvofiqlashadir;
- nazorat qilish;
- hisob-kitob qilish kabilar kiradi.

**Rejalashtirish** – boshqariluvchi manbani rivojlantirish maqsadini va bu maqsadga erishish vositalarini belgilash, ishslash rejasini tuzishdir. Rejalashtirish boshqariluvchi manbalarni rivojlantirish va modellashtirishni o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

**Sozlash** – tizimning turli elementlari o'rtaida ma'lum nisbatni tugatib turishga, boshqariluvchi manba ishlatganida reja topsiriqlaridan chetga chiqib ketishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan.

**Nazorat qilish** – ishchining amaldagi jarayoni va taraqqiyoti rejaga qanchalik muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishdan iborat.

**Hisob-kitob qilish** esa rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlar qanday bajarilayotganligiga yakun yasashdir. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan boshqaruv vazifalarini xalq xo'jaligining xohlagan sohasiga, jumladan, maorif sohasiga ham to'liq ma'noda tatbiq qilish mumkin. Modomiki shunday ekan, har bir rahbar xodim o'zining boshqaruv ish tizimi mazkur boshqaruv vazifalari asosida tashkil qilsa, bu borada yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimini boshqarishning quyidagi tamoyillari (prinsiplari) mavjud:

1. **Ta'lim-tarbiya tizimiga rahbarlik qilish tamoyili.** Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatlari bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'-

liq. Ta’lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo‘nalishdir.

**2. Demokratik tamoyil.** Bu biz yashab turgan jamiyatni, tashkilotlarni boshqarishning eng muhim tamoyilidir. Bu tamoyilda jamiyatni yanada demokratlashtirish, xalqning o‘z-o‘zini boshqarishini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demokratiyani takomillashtirishning eng samarali yo‘llarini qidirib topish boshqaruv ishlari bilan shug‘ullanuvchi barcha rahbar xodimlar, olimlar oldidagi muhim vazifadir.

Demokratiya uchun ilmiy asoslangan pishiqlik-puxta tashkiliy sharoit yaratib qo‘ylgan bo‘lmasa, yoshlarni, talabalarni, mutaxassislarni, mehnatkashlarni, jamoa ishchilarini boshqarish ko‘nikmalari ruhidha tarbiyalash sohasidagi ish zaif bo‘lsa, unga zid bo‘lgan anarxiya tomonga og‘ish sodir bo‘lishi mumkin, ba‘zi jarayonlar boshqarib bo‘lmaydigan darajaga yetishi mumkin. Chinakam demokratiya mahalliy xususiyatlarnigina emas, balki mahalliy tashabbusni ham to‘la-to‘kis rivojlantirish imkoniyating umumiy maqsadga olib boradigan yo‘llari, usullari har xil bo‘lishini nazarda tutadi.

**3. Boshqarishda ilmiylik tamoyili.** Bu tamoyil ham hozirgi sharoitda tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Uni amalga oshirish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini to‘laroq bilib borishni, qonunlardan, har bir ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq soha yo‘nalishlari, xo‘jalik tarmog‘i, o‘quv yurtini boshqarish tajribasidan yanada keng foydalanishni nazarda tutadi.

Ta’lim-tarbiyani ilmiy asosda boshqarish tamoyilini amalga oshirishning uchta asosiy sharti mavjuddir:

a) ta’lim-tarbiyani boshqarishning ilmiy negizlarini turli choralar bilan bo‘lsa-da, rivojlantirish, ishchilarini boshqarishning turli muammolarini ishlovchi maxsus ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmog‘ini, jumladan, maorifning ilmiy tarmog‘ini rivojlantirib borish;

b) ta’lim-tarbiyaga rahbarlik qilish darajasiga talabning kuchayib borayotganligini hisobga olgan holda boshqaruv mehnati xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash tizimini tashkil qilish;

d) o‘quvchilarini boshqarish, jumladan, boshqarishning eng yaxshi tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish.

Har bir rahbar xodim rahbarlik qilayotgan muassasani yoki o‘quv yurtini boshqarishda ana shu uchta shartga rioya qilishi shart.

#### **4. Boshqarishning jamoatchilik va shaxsan mas’ullik tamoyili.**

Bu to‘g‘ri boshqarish va rahbarlik qilishning eng oliv tamoyili. Bu tamoyil salmoqli o‘rin egallashi bilan birga, ommanning ijodiy faolligini pasaytirishga olib boruvchi shaxsga sig‘inish bilan chi-qisha olmaydi, jamoatchilik va kengashib ish yuritish esa to‘g‘ri boshqaruvning garovidir. Jamoatchilik yo‘li bilan xo‘jalikni boshqarish va unga rahbarlik qilish, eng muhim qarorlarni birgalikda, maslahatlashib hayotga tatbiq etish to‘g‘ri boshqaruvni tashkil qilishning muhim shartidir.

**5. Boshqarishda ijroni tekshirish.** Bu ham boshqarishning muhim tamoyillaridan biridir. Boshqarish ishida yuqori organlar chiqargan qarorlar va o‘z qarorlari ijrosini nazorat qilish hamda tekshirish muhim ahamiyatga ega. Ijroni tekshirishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – belgilangan ish rejasini tadbirlarini amalgalashirishni barbod etish ehtimolining oldini olishdan, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishdan, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta‘minlashdan, amaliy ish qilishdan iboratdir, qaror bilan ijroning birligi to‘g‘ri rahbarlik uslubi negizini tashkil etadi.

**6. Boshqarishda rejaliq tamoyili.** Bu tamoyil ham boshqaruv tizimida eng muhim hisoblanadi. Boshqaruv apparati faoliyatida muayyan reja bo‘lishi kerak. Bu shundan iboratki, faoliyat tasodifiy, bir-biriga aloqasi bo‘lmagan tadbirlar yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki aniq sharoit va vaziyatning xususiyati hamda jamiyat oldida, uning ayrim guruhlari oldida turgan vazifalarning qat‘iy suratda tartibga solingen tadbirlar yig‘indisidan iborat.

**7. Boshqarishning samaradorlik va tejamkorlik tamoyili.** Bu rahbarlikda omilkorlik, rejaliq tamoyili bo‘lib, boshqaruv apparatining oqilona tuzilishini va apparat ishining samaradorligini oshirishni ta‘minlaydi. Har qanday mehnat unumidorligining o‘sishi oqibatida mehnat ish vaqtini tejaladi. Umuman, mehnat unumidorligi qancha ko‘p bo‘lsa, ma’lum buyum uchun zarur bo‘lgan ish vaqtini shuncha kam bo‘ladi, buyumning qiymati esa shuncha yuqori bo‘ladi.

### **6.2. BOSHQARISHNI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH USULLARI**

**Boshqarishni to‘g‘ri tashkil etishda boshqaruv usullarining** roli benihoya kattadir. Boshqarish usullari o‘qituvchi, tarbiyachi, texnik xodimlarga, tashkilot rahbarlariga ta’sir ko‘rsatish vositasidir.

bo‘lib, bu vositalardan ko‘zlangan maqsadga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham boshqaruvni tashkil qilish va uni amalga oshirishda rahbarlar boshqarish usullaridan to‘g‘ri foydalanishlari, usullarni to‘g‘ri tanlashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Boshqarish usullari** ta’lim-tarbiyaviy, moliya-xo‘jalik (korxona, maktab, tashkilot)dan tashqari ishlar, hamkorlikdagi ishlar, ishchilar jamoasi bilan ishslash kabi munosabatlardan kelib chiqadi. Boshqarish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Boshqarishning tashkiliy-ma’muriy usuli.
2. Boshqarishning sotsial-psixologik usuli.
3. Boshqarishning huquqiy usuli.
4. Boshqarishning bevosita ko‘rsatma berish usuli.
5. Boshqarishda rag‘batlantirishdan foydalanish usuli.
6. Xodimlarni ma’naviy jihatdan rivojlantirish usuli.
7. Boshqarishda kuzatish usuli.
8. Boshqarishda suhbat usuli.
9. Hujjatlarni tahlil qilish usuli.

**1. Boshqarishning tashkiliy-ma’muriy usuli** boshqaruv tizimida alohida o‘rin egallaydi. Tashkiliy-ma’muriy ta’sir ko‘rsatish turli tashkiliy choralarini, masalan, maktabni boshqarishning tashkiliy mazmuni va mundarijasini belgilashni, ichki tartib-qoidalarni o‘rnatish va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Farmoyish, ko‘rsatma va buyruq berish yo‘li bilan ta’sir ko‘rsatish barcha boshqaruv bo‘limlarining ishslashini kunda tezkorlik bilan ta’minlab turishdan iborat bo‘lib, unga ko‘rsatmalar berish yozma shaklda yoki og‘zaki beriladigan buyruqlar vositasi bilan erishiladi.

**2. Boshqarishning ijtimoiy-psixologik usuli** ishchilar jamoasini, ulardagi «psixologik iqlimni», har bir hodisaning shaxsiy xususiyatlarini va hokazolarni o‘rganishga asoslanadi.

Boshqarishning ijtimoiy-psixologik usuli 2 ta asosiy turga:

- a) har bir xodimga jamoa orqali ta’sir ko‘rsatishga hamda
- b) bo‘ysunuvchilar bilan yakka holda ish olib borish kabilarga bo‘linadi.

**3. Boshqarishning huquqiy usuli** mamlakatimiz xalq xo‘jaligi tarmoqlarini hamda o‘quv maskanlarini, asosan, davlat yo‘li bilan boshqarish ma’muriyatlar tizimida huquqiy vositalardan tobora kengroq foydalanish imkonini bermoqda. Huquqiy vositalar de-

ganda ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir ko'rsatish vositalarining jami tushuniladi.

Huquq mezonlari davlat tomonidan chiqariladi, agar jamoat tashkilotlari tomonidan chiqarilsa, davlat tomonidan tasdiqlanadi.

Huquq mezonlari turli qonuniy hujjatlar, nizomlar, ko'rsatmalar, instruktiv-metodik ko'rsatmalar, buyruqlar, farmoyishlar, qarorlar shakliga kiritiladi.

**4. Boshqarishning bevosita ko'rsatma berish usuli** ko'proq subyektlarning buyruq, ko'rsatma, farmoyish, topshiriqlar berish yo'li bilan boshqarish manbayiga ta'sir ko'rsatishini ta'minlovchi usul va hisobotlarni o'z ichiga oladi. Bevosita ko'rsatmalar berish usuli har bir rahbarning, ijrochining va boshqaruvchining burchi, huquq va mas'uliyatini aniq belgilashga asoslanadi.

**5. Boshqarishda rag'batlantirishdan foydalanish usuli** ichki boshqaruv tizimida o'qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni rag'batlantirish, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish va uning sifat-samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rag'batlantirish turlariga quyidagilar kiradi:

— joriy mukofotlash:

— ta'lim-tarbiya ishida alohida o'rnak ko'rsatgani uchun mukofotlash (faxriy yorliq, xalq maorifi a'lochisi, xizmat ko'rsatgan xodim) va hokazolar.

**6. Xodimlarni ma'naviy jihatdan rag'batlantirish usuli** mehnatning ma'naviy omillari, ma'naviy-siyosiy, ijodiy izlanish va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy-siyosiy omillarning negizi ilmiy dunyoqarashga, tarixiy taraqqiyot istiqbollarini tushunish va qayta qurish tantanasiga ishonishdir. Hozirgi vaqtida xodimlarning ongi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning mehnat sohasidagi faoliyati, binobarin, o'quv-tarbiya bobidagi yutuqlari shunchalik yuksak bo'ladi.

Ijodiy izlanishning negizi kasbga mehr qo'yish, uni qadrlash, mehnatning o'zidan, uning natijalaridan qanoat hosil qilishdir.

**7. Boshqarishda kuzatish usuli** muayyan bir jarayon yoki hodisani aniq mavzu va maqsad asosida muntazam ravishda o'rganishdan, ta'lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarda rivojlanib, takomillashib borishini kuzatishdan iboratdir. Kuzatish davomida rahbarlar u yoki bu masalaga tegishli bo'lgan turli ma'lumotlarni to'playdilar, mazkur ma'lumotlarni tahlil qiladilar va ishni yaxshilash uchun tegishli tadbirlarni belgilaydilar va uni amalga oshiradilar.

**8. Boshqarishda suhbat usuli.** Boshqaruv tizimida suhbat usulidan o‘qituvchi, tarbiyachi, to‘garak rahbari va tashkilot rahbarlarining ma’lum bir pedagog harakatini, hodisaga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun foydalaniladi. Suhbat o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar, mudirlar, boshqa xodimlar bilan ham o‘tkaziladi. Suhbat natijalarini sinchiklab yozib borish (protokol, stenografiya yoki lentaga), keyinchalik uni tahlil qilish yaxshi natijalar beradi.

**9. Hujjatlarni tahlil qilish usuli.** Ichki boshqaruv tizimida pedagogik jarayonni, ayrim hodisalar va faktlarni tekshirish, maktab hujjatlarini chuqur o‘rganish va har tomonlama tahlil qilish masalasiga alohida e’tibor berish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Hujjatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- o‘quv mashg‘ulotining jadvali;
- rejalashtirishning barcha turlari;
- ta’lim-tarbiya ishlariiga tegishli hujjat va hisobotlar;
- nizomlar;
- metodik ko‘rsatmalar;
- buyruq, kengash qarorlari;
- dastur va rejalar;
- ishchi xodimlarning shaxsiy hujjatlari;
- moliyaviy hujjatlar;
- statistik hisobotlar va h. k.

Tashkilotlarni (bilim yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, maktab) boshqarish ijodiy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir san’atdir. Har bir rahbar ta’lim-tarbiya ishining u yoki bu masalasi yuzasidan qaror qabul qilganida, uning bajarilishini tashkil qilganda, qo‘l ostidagi xodimlar ishini nazarat qilganda, u o‘z vazifasiga muvofiq ish ko‘radi. Lekin har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayoni o‘zi uchun xos bo‘lgan, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydigan turli samarali usullar bilan ish olib borishi kerak.

Har bir rahbar tarbiyachidir. U jamoani tarbiyalash uchun yuksak javobgarlikni his etish tuyg‘usiga to‘liq ega bo‘lmog‘i lozim. Rahbar qo‘l ostidagilar shaxsiga shu qadar madaniyatilik bilan ta’sir ko‘rsata bilishi kerakki, bu ta’sir natijasida mazkur jamoaning har bir a’zosida onglilik shakllansin, u mehnatga nisbatan ijodiy yondashadigan, ijtimoiy hayotda faol qatnashadigan bo‘lsin. Rahbarning boshqarish bo‘yicha mehnatini qaror qabul

qilish uchun sarflangan vaqtga qarab emas, balki uning faoliyatidagi pirovard natijasini hisobga olish bilan baholash maqsadga muvofiqdir.

Boshqarish madaniyatining elementlari tegishli mezonlar bilan belgilanadigan axloq qoidalarini (huquq va etikani) o‘z ichiga oladi. Boshqaruvin madaniyati ishni ilmiy asosda ishlangan, aniq maqsadni ko‘zda tutgan reja asosida tashkil qilish, bunda so‘z birligi bilan amaliy ish birligini ta’kidlash, institut jamoasining ehtiyoj va talablariga diqqat-e’tibor bilan, manfaatdorlik bilan munosabatda bo‘lish, ularning birortasining izzat-nafso-niyatiga tegmaslik, ko‘z bo‘yamachilik bilan shug‘ullanmaslik, yuqori darajadagi madaniyatni saqlash, rahbarning shaxsan o‘ziga va qo‘l ostidagilarga talabchan bo‘lishlari kabilardan iborat. O‘z ishida asosiy narsani ko‘ra bilish mahorati har qanday rahbar uchun muhimdir. Biroq rahbarga bunday qobiliyat va fazilat g‘oyat yuksak darajada xos bo‘lishi zarur. Chunki uning mas’uliyatlari lavozimi o‘zida bir emas, balki ko‘plab ixtisosni birlashtiradi.

Hozirgi sharoitda rahbarning fazilati qanday bo‘lishi kerak? Bizningcha, hozirgi kundagi rahbar dadil, tashabbuskor, bilimdon, yuksak madaniyatli, halol va va’dasiga vafodor bo‘lishi lozim. Bunday oqil rahbar har qanday vaziyat va turmush hodisalariga dadil, odil baho bera oladi, haqiqiy talabchan va adolatli ish uslubini vujudga keltira oladi. Mehrbon inson sifatida katta mavqega ega bo‘la oladi.

Boshqarish va siyosat yurgizish san’ati rahbarning asosiy kuchlarini va e’tiborini qayerga qaratish kerakligini o‘z vaqtida hisobga olishi va bilishidan iborat.

Hozirgi kunda rahbarlarda quyidagi fazilat va xususiyat bo‘lishi kerak:

1. Yuksak ishonch, keng siyosiy bilim bo‘lishi.
2. Tashkilotlar (pedagoglar) jamoasiga rahbarlik qila oladigan, uning ishini tashkil eta biladigan, ish sifatini to‘g‘ri, odil baholay oladigan va talabchan.
3. Sezgir, kishilarga e’tibor bilan yaxshi muomala va munosabatda bo‘ladigan, ularning mehnatini to‘g‘ri qadrlay biladigan, adolatli va prinsipial.
4. Jamoatchilik o‘rtasida katta obro‘ga ega.
5. Dunyoqarashi keng, o‘zining siyosiy, ilmiy-metodik va rahbarlik malakasini muntazam ravishda oshirib boradigan.

6. O‘z kasbini yaxshi bilishi jihatidan ishchilarga namuna.
  7. Izlanuvchan, yangilikka, ilg‘orlikka ijobiy munosabatda bo‘ladigan.
  8. Ishga vijdonan munosabatda bo‘lib, mehnatni to‘g‘ri tashkil qiladigan.
  9. Xo‘jalik masalalarini to‘g‘ri hal qila oladigan va tejamkorlik san‘atiga ega bo‘lgan.
  10. Yetarli tajribaga va ma’muriy qobiliyatga ega bo‘lmog‘i kerak.
- «Obro‘-e’tibor» xususiyat bo‘lib, uning qo‘llanish sohasi o‘zgarib turadi. Obro‘-e’tibor xodimlarning turli jihatlariga, rahbarlikning mezon va aqidalariga rioya etishiga bog‘liqdir. Tashqi vaziyatlar uning rivojlanishiga ko‘maklashishi va uni rag‘batlantirishi mumkin. Agar rahbarning amaliy va siyosiy xususiyatlari o‘zi egallab turgan lavozimiga mos kelmasa, u oqibat natijada o‘ziga topshirilgan ish sohasini uzoq vaqt idora qila olmaydi. Har bir kishi o‘z obro‘-e’tiborini mehnati bilan yaratadi. Rahbar xodim esa o‘z obro‘-e’tiborining bиринчи va asosiy ijodkoridir. Rahbarlarning mavqeyini boshliqlarni qo‘llab quvvatlashi emas, balki uning o‘z ishiga munosabati belgilaydi.

Bu borada biz o‘zbek xalq maqollaridan quyidagilarni rahbarlarga xos deya olamiz:

1. «*Har kimning kori a‘moli – o‘ziga*» («a‘mol» – amallar, ishlar, qilmishlar; «kor» – ta’sir qilish, *oqibat*, *namoyish* ma’nosiga to‘g‘ri keladi). Mazkur maqol har kim o‘z qilgan ishiga yarasha ajrimni (mukofotini) oladi, yaxshi ishlari uchun yaxshilik ko‘radi, yomon ishlari uchun yomonlik ko‘radi, yani ta’zirini yeydi.
2. «*Sekin yog‘gan yomg‘irdan qo‘rq, kulib boqqan rahbardon qo‘rq*», «*Kulib-kulib nonim olding, so‘rib-so‘rib qonim olding*».
3. «*Sirka so‘rashga ham silika kerak*» («silika» – *silliq*, *yumshoq* ma’nosini bildiradi). Bir dehqon bo‘lib, u betob bo‘lib qolibdi va o‘zini tabiblarga ko‘rsatibdi. Tabiblar yetti yillik sirkani iste’mol qilishini aytishadi. Dehqonning ikki o‘g‘li bor ekan. U katta o‘g‘liga: «Sen falon qishloqqa borgil, u yerda mening do‘sstim bor, unda sirka bor, olib kelasan», – debdi. O‘g‘il uni qidirib topib, undan bora zahotyoq salom-alik qilmasdan, sirka so‘rabdi. U kishining ensasi qotib, «Sirka yo‘q», – deb yuboribdi. Keyin dehqon kichik o‘g‘lini jo‘natibdi. U to‘g‘ri borib, salom berib, boboga yer haydashib, asta-sekin sirka so‘rabdi. Shunda chol unga sirka

berib yuboribdi va otasi shifo topib ketibdi. Otasi: «Sirka so‘ramoqqa ham usul, vosita va odob kerak», — debdi o‘g‘illariga.

Yuqorida keltirilgan maqollar rahbarning odamlar bilan munosabatida yordam beradi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. Ta’lim-tarbiyani boshqaruv yo‘nalishlari qaysilar, sanab bering.
2. Boshqaruv tushunchasining ma’nosи, mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?
3. Boshqarishning qanday asosiy sohalari mavjud?
4. Rahbarning munosabat turlariga nimalar kiradi?
5. Rahbarning texnikasi degan tushunchani ta’riflab bering.
6. Ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.
7. Ta’lim-tarbiyani boshqarishning qanday asosiy usullarini bilasiz?
8. Rahbarning muomala madaniyati deganda nimalarni tushunasiz?
9. Mutafakkirlarning rahbarlik va ularning odobi haqidagi fikrlaridan misollar keltiring.



### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. **I. A. Karimov.** Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiiga ishonamiz. («Fidokor» gazetasi muxbir savollariga javoblari). — T.: 2000.
2. **I. A. Karimov.** O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: «O‘zbekiston», 1999, 9-bet.
3. **I. A. Karimov.** Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: 1998.
4. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. — T.: 1996. 39-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.// «Ma’rifat» gazetasi, 1997-yil 1-oktabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». — T.: 1997.
7. **A. K. Munavvarov.** Pedagogika. — T.: «O‘qituvchi», 1996.
8. **Y. A. Komenskiy.** Buyuk didaktika. — T.: «O‘qituvchi», 1970.
9. **S. P. Baranov** va boshqalar. Pedagogika. — T.: «O‘qituvchi», 1990.
10. **Z. K. Ismailova.** Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. — T.: «Fan», 2003.
11. **R. Maylonova** va boshqalar. Pedagogika. — T.: «O‘qituvchi», 2001.

# MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

## *I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI*

1.1. Pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalari .....	5
1.2. Pedagogikaning metodologik asosi .....	8
1.3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari va tarmoqlari .....	11
1.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari .....	16
1.5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi .....	20

## *II BOB. PEDAGOGIKADA SHAXS MUAMMOSI*

2.1. Mutaxassis shaxsini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari .....	23
2.2. Shaxsnинг shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar .....	26
2.3. Jamoa tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari .....	32

## *III BOB. TARBIYA NAZARIYASI ASOSLARI*

3.1. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani tarbiyalashning pedagogik asoslari .....	44
3.2. Istiqlol mafkurasining milliy xususiyatlari va asosiy pedagogik g'oyalari .....	48
3.3. Milliy istiqlol g'oyasining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati .....	54
3.4. Tarbiya jarayoni va tarbiya metodlari .....	62
3.5. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatları .....	75
3.6. Tarbiya metodlari .....	81

## *IV BOB. OILADA TARBIYA ASOSLARI*

4.1. Mutaxassis shaxsining axloqiy sifatlarini shakllantirishda oilaviy tarbiya .....	89
4.2. Oilaviy tarbiyada o'zbek xalq pedagogikasi va an'analari .....	96
4.3. O'zbek xalq mutafakkirlari oilaviy tarbiya haqida .....	114

## *V BOB. TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI ASOSLARI*

5.1. O'zbekistonda fan va maorifni dunyo standartiga ko'tarishda mutaxassislar tayyorlash didaktikasi .....	126
5.2. Ta'larning qonuniyat va tamoyillari (prinsiplari) .....	136

## *VI BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI*

6.1. Mutaxassis murabbiy va rahbarning faoliyat mahorati .....	145
6.2. Boshqarishni to'g'ri tashkil etish usullari .....	152

**ISMAILOVA ZUXRA KARABAYEVNA**

## **PEDAGOGIKA**

*(O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi nopedagogik oliy o'quv yurtlari uchun  
darslik sifatida tavsiya etgan)*

Muharrir *S. Xo'jaahmedov*  
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Rahimqoriyev*

Bosishga ruxsat etildi 03.05.07. Bichimi  $60 \times 90 \frac{1}{16}$ . Kegli 11, shponli.  
Tayms garniturasi. Bosma t. 10,0. 1000 nusxa.  
Buyurtma №



ISBN 978-9943-302-13-6

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-302-13-6.

9 789943 302136